

Ezgin Kilich

Menga Baxtni

Korsat

*Inson yuragiga sig'dira olmaganini
vujudiga ham sig'dira olmaydi.*



Ezgin Kilich



Menga Baxtni

Korsat

Ba'zan o'z yo'lingni yaratishing, o'sha yo'lidan
yurishing kerak bo'ladi. Yo'lning to'g'ri yoki noto'g'rili
muhimi emas, muhim o'zingning yo'ling bo'lishi kerak.

"Ilm-Ziyo-Zakovat"
Toshkent – 2022

“Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Destek” nashriyoti bilan 2022-yil 17-iyunda tuzgan shartnomasi asosida chop etdi.

UO‘K: 332.125.1

KBK: 821.512.174-4 (Turk)

K -12

EZGIN KILICH. “Menga baxtni ko‘rsat” / turk tilidan **XUSANBOYEVA Aziza** tarjimasi / “Jahon adabiyotining bestselleri” turkumi — T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2022. — 176-bet.

Qachondir yoningda bo‘lishimni istasang-u, lekin buning iloji bo‘lmasa, ko‘zlarining mahkam yum va qo‘llaringni yuragingning ustiga qo‘y. Men sening ko‘z qovoqlaring ortidagi qorong‘ilikda, yuragingning har bir urishida bo‘laman. Qachonki kemaga chiqadigan bo‘lsang, sochlaringning orasidan o‘tgan shamol emas, mening barmoqlarim bo‘ladi. O‘qiyotgan kitobining har bir satrida yoki tinglayotgan qo‘srig‘ingning musiqasida nafas olishni davom ettiraman. Yomg‘irli kunda yelkangdan o‘padigan yomg‘ir tomchisi qiyofasida ham yoningda bo‘lishim mumkin. Balki, hidlash uchun qo‘lingni uzatgan gul bargidan uchib ketayotgan kapalak bo‘larman. Meni qanchalik ko‘p his qilishni xohlasang, men ham shunchalik ko‘p yoningda bo‘lishni davom ettiraman.

Yuragingning pardasini hech qachon berkitib qo‘yma. Yorug‘likning ichkariga kirishiga ruxsat ber. Tabassum qilmoq senga yarashadi, aslo qovog‘ingni uyma... Baxtiyorlik — ulkan va behisob qiyinchiliklarga bardosh bergan insonlarning haqqidir. Maqtanib aytishga arziyidigan kunlarni va orzularingdagidek ajoyib hayotni yasha. Ko‘zlarining yum va ikkalamiz suhbatlashadigan lahzalar uchun ajoyib xotiralarni yig‘ib qo‘y.

Axir, qayg‘uni, qayerda bo‘lsa ham, tanib olaman, menga baxtni ko‘rsat...

ISBN: 978-9943-8427-4-8

© Ezgin KILICH.

© Destek Yayınları Originally published in the Turkey by Destek Yapım Produksyon Dış Ticaret A.Ş, 2020.

© “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti.

**NAVOIY NOMIDAGI
ARDARYO VILOYATI AKMA**

INV № 2023/4-19



Salom, do 'stim, siz bilan yana diydorlashish naqadar ajoyib...

Ikkalamiz ham ulkan bir daraxtning turli shoxlaridan ko 'kka bo'y cho'zgan yaproqlarmiz. Yo 'llarimiz qanchalar farqli, safarimiz qanchalar turfa bo 'lsa-da, maqsadimiz bir, manzilimiz bir... Ikkalamiz ham bitta Yer va bir osmon orasida bir chimdim baxt uchun, birozgina tabassum uchun, huzur-halovat bilan olingan bir chimdim nafas uchun yashayapmiz... Ushbu hayotdag'i barcha shoshqaloqliklarimiz ham, shoshqaloqligimiz tufayli qarshimizdan chiqqan mag 'lubiyatlarimiz ham, xatolarimiz va xatolarimizdan olgan barcha tajribalarimiz, saboqlarimiz ham — barchasi go 'zal bir hayot kechirish va bu hayotni sevgi bilan yashay olish uchundir...

Siz ham, shubhasiz, shuni bilasizki, hayot biror-bir umidni, istakni, orzuni mashaqqatsiz, mehnatsiz qurbanliksiz ro 'yobga chiqarmaydi. Ba 'zida istaganlariningizga erishish uchun fidoyilik-u qurbanliklar qilishingiz kerak bo 'ladi. Ba 'zida qancha kurash-sangiz ham, qancha urinsangiz ham, afsuski, chekkan mashaq-

qatingiz, qilgan mehnatingizning mevasini tota olmaysiz. Ammo oradan bir qancha vaqt o 'tgach, shamol o 'z yo 'nalishini o 'zgartiradi. Qayg 'u-yu alamlaringiz tarqaladi, og 'riqlaringiz kamyadi, barcha jarohat-u yaralaringiz tuzalib ketadi. Ha, aynan o 'shanda huzur-halovatli, pokiza vijdon sohibiga aylanasiz. Eng muhimmi, oqibatini aslo o 'zgartirib bo 'lmaydigan pushaymonlik-larning yig 'ilib qolishiga yo 'l qo 'ymaslik kerak. Men mehr-oqibat, yaxshilik, samimiylik va sevgi bilan yengib bo 'lmaydigan biror-bir g 'am-tashvishning yo 'q ekanligiga ishonaman. Muhabbat-u sevgi bilan to 'lib-toshgan yuragingizni, qalbingizni ko 'k-singizda olib yursangizgina, yaxshi inson bo 'lishingiz mumkin.

Endi yuragingizni, qalbingizni oching, do 'stim. Qo 'l-laringizni ham oching, hovuchlariningizga sevgi va ezgulik bilan to 'lib-toshgan bir hikoyani solyapman. Bu hikoya siz uchun sevgidan ham kuchliroq, g 'am-qayg 'udan ham yuqoriroq bir safar bo 'ladi...

Yana birgalikda yangi bir safarga chiqishimizga qadar qalbingiz samimiyat va ezguliklar bilan to 'lib toshishini tilayman...

— I —

Kunning qay tarzda bunchalar tez o'tib ketganini angolmay qoldim.

Uyga ketish uchun o'qishdan chiqqanimda hamma yoqni allaqachon zulmat qoplagan edi.

Qo'lsoatimga qaradim: soat millari 22:37 ko'rsatar edi. Dastlab taksi chaqirishni o'yladim, lekin telefonimning quvvati tugab o'chib qolgan ekan.

Keyin esa: "Uyim bor-yo'g'i bir necha ko'cha narida-ku", — deya o'yladim va piyoda keta boshladim. Kunduzlari g'oyatda xavfsiz va yorug' bo'lib ko'ringan bu ko'chalar tunda qay holda o'z qiyofasini bunchalar o'zgartirar ekan? Taxminan besh daqiqa yurganimdan so'ng: "Qaniydi, bir yo'lini topib taksi chaqira ol-sam edi", — deya o'zimcha o'yladim. Yaxshiyamki, ko'pi bilan o'n daqiqadan keyin uyimga yetib olaman. Shu o'y-fikrlarim bilan o'zimni tinchlantrishga, sokinlashtirishga harakat qilish bilan birga yo'limda davom etdim. Go'yoki ko'chaning har bir bur-chagini qo'rqinchli odamlar egallab olgandek qalbim dahshatdan dir-dir titrab ketardi. Balki, meni ta'qib qilishsa-chi yoki, ehtimol, izimdan poylab kelishayotgan bo'lishsa-chi?.. Ularning

qo'lidan qanday qilib qutulardim? O'zi bu paytgacha mактабда qolishimning nima keragi bor edi? Shu paytgacha kutishga arziy-digan nima bor edi o'zi? Qaniydi, maktabdan uyga ertaroq chiq-sam edi. Har qadamda duo o'qib: "Oz qoldi, oz qoldi", — deya o'zimga jasorat-u jur'at, tasalli berishga harakat qilardim.

Tor bir ko'chaga kirganimda mendan biroz oldinda og'ir qadamlar bilan sekin-asta ketayotgan odamning devorlarga tushgan soyasi dev kabi ko'rinyotganini payqab qoldim. Go'yoki bu odam aslo olg'a siljimayotgandek ko'rindi va shu payt qalbimda yo'q qilib bo'lmaydigan bir qo'rquv paydo bo'ldi. Shuning uchun bu ko'chadan yurishda davom etishga jur'at etolmadim va uyimga orqa ko'chadan borishga qaror qildim. Shunchalar qo'r-qib ketgan edimki, qadamlarimning tovushi eshitilmasligi uchun baland poshnali tuflimni yechib qo'limga oldim. Agar biror-bir tahdidga, xavfga duch keladigan bo'lsam, shu tarzda tezroq yugurib qochishim mumkin edi. Tezkor qadamlar bilan narigi ko'chaning yarmiga borgan edimki, yelkam ustidan o'tib, og-zimga yopishgan bir qo'lning sovuqligidan yuragim to'xtab qolay dedi. "Mendan qutula olishingni o'ylaganmiding?" — deya shivirlagan o'sha dahshatli ovozni eshitganimda tanam suv bilan emas, go'yoki qon bilan terlaganday bo'ldi.

O'z karavotimda qo'rquvdan titrab uyg'onib ketdim.

Bu men tez-tez ko'rgan dahshatli tushlarimdan biri edi...

Boshimni chapga burib, yonimda uxlab yotgan Umutni ko'-rish qalbimni ta'riflab bo'lmas xotirjamlik hissi bilan to'ldirdi. U ham uxlab qolmasidan oldin bir qo'li bilan meni qanday quchoqlab olgan bo'lsa, hamon o'shanday bir qo'li bilan quchoqlab yotardi... So'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan bir ajoyib tarzda uxlab yotardi... Uyg'onib ketmasligi uchun hididan nafas olgan holda sekingina o'pdim. Tilim va tanglayim qurib qolgan edi,

ko'zlarimni qattiq yumgan holda yana uyquga ketishga harakat qildim, ammo, baribir, uxlay olmadim. Qachonki shunday terlab uyg'onsam, o'tmishim neon nuri bilan yoritilgan peshlavha kabi ko'zimning qovoqlari orqasiga yopishib olib, miyamni ilmateshik qilardi. Bir necha daqiqadan so'ng sekin Umutning quchog'idan chiqib, bir stakan suv ichish uchun oshxonaga bordim. Oshxona stolining yoniga o'tirdim va miyamning ichida miltillab yonib o'chayotgan "Mendan qutula olishingni o'ylaganmiding?" yozuvli peshlavhani yana qayta-qayta o'qiy boshladim. Hammasi boshlangan o'sha kunga yana qaytdim...

O'n yil orqaga qaytdim...

10 yil oldin...

Eskishehirda yolg'iz o'tkazgan olti yilining oxiri kunlarning birida otamning kechki taomni yeyotgan paytida to'satdan miyasiga qon quyilishi tufayli vafot etgani haqidagi xabarni oldim. Spidometr mili oxirigacha qadalgan mashinada ketar ekanman, boshim xuddi devorga urilgandek bo'ldi. Bolalik kunlarimning beg'ubor tantiqlig-u erkaliklari ko'z oldimiga keldi. Jahldor ko'rinishga urinsa-da, lekin buni aslo eplay olmagan otamning mehr-shafqatli tanbehlari, o'sha paytlarda menga bema'nilik kabi ko'ringan, ammo hozir esa oqilona ekanligi yaqqol ko'riniib turgan nasihatlari quloglarim ostida jaranglab turardi. Eskishehir bosh bekatidan boshlanib, Istanbulgacha cho'zilgan yo'l davomida avtobusdan oynasidan yuzimga urilgan salqinlik ichida otam haqida o'ylab borardim.

Bundan olti yil avval onam va dadam bilan Eskishehirdagi universitetga o'qishga kirish uchun hujjat topshirishga kelgandim. Bir lahma davomida o'sha kunni xayolimda jonlantirdim. Ko'z ochib yumguncha oradan shuncha vaqt o'tib ketibdi. O'qishni tugatganimdan so'ng shu yilning o'zidayoq taabalik davrim o'tgan shu shahardagi maktablarning biriga o'qituvchi etib tayinlandim va boshlang'ich sinflarga musiqadan dars bera boshladim, ikki yil musiqa o'qituvchisi bo'ldim. Darhaqiqat, o'zimcha o'zimni baxtli sanar edim, endi esa yig'idan namlangan bir juft ko'z va qayg'uga botgan yuragim bilan otamni so'nggi bor ko'rish uchun Istanbulga qaytayotgandim.

Otam o'z mehrini ochiqcha ko'rsata oladigan odam emas edi. Uni doim quchoqlab olardim, u bilan hazillashar edim... Vaqt o'tishi bilan kulrang tusga kirgan qalin mo'ylovi ostidagi lablarini ko'ra olmasdim, lekin ko'zi ostidagi ajinlarining qisilishdan, ko'z qisishlaridan jilmayib turganini yaqqol ko'ra olardim. Otam hayotim davomida biror-bir marta ham menga bosim o'tkazmagan, biror-bir ishni majburlab qildirmagan edi, har doim menga ishonardi. "Sen buni qila olmaysan, bunday qilishing mumkin emas!" — deya taqiqlar qo'yish o'mniga: "Sen mening yuzimni yerga qaratmaysan, sharmanda qilmaysan, buni bilaman", — deya taqiqlardan ham og'irroq bir yukni gardanimga yuklab qo'y-gandi.

Otam hurmat va ishonch tuyg'usi katta mas'uliyat bilan kelishini bilardi. Tabiiyki, ahyon-ahyonda qarshimdan chiqqan jarliklar yoqasida aqlimni yo'qotmaganligim va tubsiz bo'shliqlarga qadam qo'ymay ortga qayta olganim uchun otamdan qarzdorman... *Inson yaqinlarini, sevganlarini bir kun yo'qotish mumkinligini va ushbu ayrliliqlar tufayli qalbi bo'shab qolishni negadir qabul qila olmaydi.* Janoza kuni atrofimdagи insonlarning yig'ilari. onamning o'z bag'rini parchalab dod-faryod solishlari menga g'alati tuyulgandi. Balki, ishonishni istamagan bir haqiqatga duch kelishdan qo'rqqanim uchun o'zimni shunday his qilgandirman. Toki otamning yuzini menga oxirgi marta ko'rsatib, boshqa hech qachon ochilmaydigan qilib oppoq kafanga o'rab, muzdek sovuq tobutga solib qo'ygunlaricha o'zimni o'shanday g'alati tutdim. Yog'och tobutning bunchalik sovuq bo'lishi xayolimga ham keltira olmasdim. Ana o'shandan keyin mening dunyom ham butunlay vayron bo'ldi, vayronaga aylandi. Ana o'shanda endi otamni hech qachon bag'rimga bosa olmasligimni, uning kulgan yoki kulmaganligini bilish uchun ko'zlari

atrofidagi ajinlarni sanay olmasligimni, nima qilishimdan, nima bo'lishidan qat'i nazar, orqamdagи qudratli tog' endi men bilan birga bo'lmasligini angladim. Qalbimning qanchalar yemirilgанини so'z bilan tasvirlab berishimning iloji yo'q... **Ba'zi bir histuyg'ularni tasvirlash uchun so'zlar ojizlik qiladi, faqatgina yig'laysiz. Bir tomchi ko'z yoshingiz qolmaguncha yig'laysiz, his qilgan dardingiz tezda o'tib ketishini istaysiz.**

Onamni Istanbuldagi uyimizdan va u yerdagи xotiralarimizdan ajratib, o'zim bilan Eskishehirga olib ketishga ko'ndira olmadim. Bu yerda yolg'iz qoldirishga esa mening ko'zim qiyamadi, shuning uchun Eskishehir ishimdan navbatdagи o'quv yili uchun ishdan bo'shashga ariza yozib, uyimizga, o'zim tug'ilib o'sgan shaharga qaytdim... Keyin esa bu yerdagи bir mакtabga ishga kirdim va yangi do'stlar orttirdim...

Endi hayotimda yap-yangi bir sahifa ochilgan edi. **Vaqt insonga ko'p narsani qanchalar unuttirsа, hayotga ko'nikishга, hayot ogimini o'zgartirishга, yangi bir hayot qurishга shunchalar o'rgatardi.**

Bo'lib o'tganlarning hammasini onam bilan birga chornochor, noiloj qabul qildik. Endi esa tashvishlarimiz ham, umidlarimiz ham boshqacha tus oldi. Chunki hayot davom etar edi... Shu tariqa otamning vafoti hayotimning burilish nuqtasi bo'ldi va men hamma narsani qaytdan boshladim, yillar davomida poydevor qo'yishga harakat qilgan rejalarimni barbod bo'lganidek ortda qoldirdim. Yangi maktabga ko'nikishim qiyin bo'lmasdi. Qisqa vaqt ichida yangi do'stlar orttirdim va yangi tartibga moslashdim.

Bir kuni ertalab boshimni ichini teshib o'tgan qo'rqinchli telefon ovozi tufayli uyqum bo'lindi. Sizga shuni ishonch bilan ayta olamanki, erta saharlab eshikning taqillashi yoki telefon

jiringlashi tufayli uyg' onishdan ko'ra ko'proq insonning asabiga tegadigan narsa yo'q.

— Bu odamlarning erta saharlab kimgadir qo'ng'iroq qilihdan boshqa qiladigan ishi yo'qmi? — deb to'ng'illab karavotim boshidagi javonning ustida turgan telefonimga qo'limni cho'zdim.

Hali hamon ko'zimni ocha olmagandim, hatto gapiradigan holim ham yo'q edi. Kim qo'ng'iroq qilayotganiga ham qaramay darhol telefonga javob berdim. Men bilan bir mакtabda ishlaydigan geografiya o'qituvchisi dugonam Melike qo'ng'iroq qilayotgan ekan. Uni ovozidan taniy oldim.

— Tinchlikmi, Melike?

— Elif, qayerdasan? Seni mакtabda ko'rmadim. Yoki kasal bo'lib qoldingmi? Ovozing juda uzoqdan kelyapti.

— Bugun shanba-ku... Qanaqa mакtab, Melike? Uxlashga harakat qilyapman, kasal-pasal emasman. Ishqilib, yaxshilikka bo'lsin, nega bunday paytda qo'ng'iroq qilding?

Kunlarni chalkashtirib yuborayotganimni o'shanda angladim. "Nahotki, bugun juma bo'lsa?" — deya vahima ichida kara-votimdan sakrab turdim va uydan shoshilib chiqib mакtab tomon yo'lga chiqdim. Yaxshiyamki, uyimga yaqin bir mакtabda ishlayotgan edim va birinchi dars tugaguniga qadar yetib oldim. Tushda Melike bilan ovqatlangani chiqdik. U mакtabdagи eng yaxshi dugonam edi. U mendan uch yosh kichik bo'lsa-da, turmushga chiqqan edi. Uning hatto bir yoshga to'lgan shirindan shirin bolasи ham bor edi. Tushlikdan keyin dars boshlangunicha birgalikda bir finjondan qahva ichdik.

— Kunlarni chalkashtirib yuborishni qanday eplaysan? — deya so'radi Melike qahvasidan zavqlanib ho'plarkan.

— Sen so'rama, men aytmay. Kecha onam tufayli juda kech

yotgandim. Onamning qanaqa ekanligini bilasan... O'tgan kuni tug'ilib o'sgan joyiga ketgan edilar, hali ham o'sha yerda. Otam vafot etganidan keyin: "Qachon turmushga chiqasan?" — deya har kuni boshimda kaltak sindiradilar. Bir muncha vaqt bu mavzu haqida gapirmay qo'ygandilar, lekin kecha yana qo'ng'iroq qildilar, roppa-rosa ikki soat telefonda shu haqida gaplashdik. Shu desang, oyimning meni turmushga berish dardi yana qo'zib qoldi. Sen ham menga bunaqa qarab, qayta-qayta aytib berishimga majbur qilma, Melike. Keyin uyqum qochib ketdi, biroz televizor tomosha qildim, kech bo'lganini sezmay qoldim. Ertalab nima bo'lganini o'zing ham bilasan: kunlarni chalkashtirib yuborib-man.

Darsdan so'ng klinikni biror-bir muammosiz nihoyasiga yetkazganim uchun o'zimni yaxshi his qilardim. Lekin haddan tashqari charchagan edim, ko'zlarim yumilib ketayotgan edi. Xayriyatki, haftaning oxirgi kuni ishimni tugatgan edim va bu safar kunlarni chalkashtirib yubormaganimga amin bo'ldim... Ertaga xohlagancha uxlashim mumkinligini o'ylab ancha yengil tortdim. Biroz chalg'ib va o'ychanlik bilan maktabdan uyga qaytayotgan edim.

Bugun Melike bilan turmush haqidagi suhbatlarimiz o'y-xayolimni band qilgandi. Undan turmushga chiqmasdan oldin erini sevgan-sevmaganligini qiziqib so'ragandim, u tanishganlaridan so'ng biroz vaqt o'tgach bir-birlariga munosib inson ekanliklarini tushunib turmush qurishganini aytgandi. U turmushning ba'zan qiyin bo'lislidini e'tirof etdi, lekin Melike, aslida, turmush qurgandan keyin erini sevib qolgan ekan. Onam doim shunday derdi: avval turmushga chiqar emishman, keyin esa erimni sevib qolar emishman. Dadam bilan sovchilar orqali tanishib, turmush qurishgan ekan, o'sha paytda onamning

qalbida sevgi yoki ishq kabi his-tuyg‘ular bo‘lmanan ekan, shuning otamni ham turmush qurbanidan keyin sevib qolgan ekan. Ochig‘ini aytadigan bo‘lsam, bu holat menga juda g‘alati tuyuladi. Inson qanaqasiga sevib qolish umidi bilan turmush qurishi mumkin? Mening dunyom ularnidan farq qiladi. O‘qigan shuncha kitoblarim va tomosha qilgan filmlarim menga his qildirgan tuyg‘ularini haqiqiy hayotda boshimdan o‘tkazishni istardim. Universitet talabasi bo‘lgan paytalarim mana shu tuyg‘uga yaqin hayajonni his qilgandim. Bu hayajon faqat bir necha oy davom etdi, xolos... O‘sha yigitning hayotida bo‘lgan bir necha qizlardan biri ekanligimni bilganimdayoq hammasi tugagan edi. O‘sha kundan keyin hayotimda hech kim yo‘q edi. O‘ylaymanki, sevgi va muhabbat borasidagi birinchi va yagona hayajonim ko‘ngilsizlik bilan tugashi meni mana shunday munosabatlardan uzoqroq yurishga majbur qilgan. Buni, aslida, o‘zim ham bilmas edim. O‘sha kundan beri hech kimga nisbatan hayajonli his-tuyg‘ularga ega bo‘lmadim. Albatta, ishq-muhabbatga bo‘lgan bunday munosabatim: “Bundan buyon hech kimni hayotimda kiritmayman”, — degani emas, bunday tuyg‘ularga boshqa duch kelmaganman, xolos... Shunday bo‘lsa-da, chin sevgi bir kun kelib meni topishiga va qanchalik oyoq tirasam ham, unga qarshi tura olmasligimga ishonardim. Har bir qizning xayolida oq ot mingan shahzodasi bor, shuning uchun xayolimdagি shahzodani ko‘rganimda oyog‘im yerdan uzilishga ishonardim va uni kutardim.

Bularning barchasini xayolimdan o‘tkazar ekanman, uyim joylashgan ko‘chaning boshiga kelib qolgandim. Shu mahallada tug‘ilib o‘sghanim uchun deyarli hammani tanishimni hech bir mubolag‘a qilmay, bermalol ayta olaman. Faqatgina talabalik yillarimda mahallamdan uzoqlashgan edim, xolos. Bir kun yana bu yerga qaytish hattoki hayolimning bir chekkasidan ham o‘tma-

gan edi. *Ammo inson ba'zida o'zining orzulari bilan emas, balki taqdir rejalashtirganlari bilan yashashga majbur bo'ladi. Yoki mas'uliyati-yu javobgarligi tufayli yo'lini o'zgartirib, bir qancha qurbanliklarni qilishga, orzularidan voz kechishga majbur bo'ladi.* Men ham shu tarzda oltmis uch yoshli onam tufayli tanlagan yo'limni o'zgartirib, bu yerlarga qaytib kelganim. Bor gap — shu...

Uyga kelib, ishimni tugatib, uplash uchun xonamga kirganimda ancha kech bo'lib qolgan edi. Karavotimda cho'zilib olib, shiftga tikilgancha o'ylanib uxbab qoldim. Uyqumni yana erta tongda jiringlagan telefon ovozi buzdi. Ketma-ket ikki marta jiringladi, lekin shu onda telefonga qarashni ham, qo'ng'iroq qilayotgan odamga javob berishni ham istamadim: "Kim qo'n-g'iroq qilayotgan bo'lsa ham, uyg'onganimda qayta qo'ng'iroq qilaman", — deya o'yladim, lekin telefonim yana uzundan uzun jiringlay boshladi. Uning ovoziga chiday olmadim va qo'n-g'iroqqa javob berdim. Onam qo'ng'iroq qilayotgan ekan.

— Eshitaman, oyijon...

— Necha marta telefon qildim, Elif, soat to'qqiz bo'ldi, hali ham uxbab yotibsanmi?

— Tabiiyki, uxbab yotibman, oyijon! Axir, butun bir hafta davomida, ishladim. Izn bering, dam olish kunlari ko'proq uxbab, biroz hordiq chiqaray.

— Sen uxlayver, qizim, bemalol uxlayver... Bugun Nurdan xolaning qizini fotiha qilishayotgan emish. Ustiga-ustak, sendan bir necha yosh kichik. Qara, boshqa odamlarning qizlari hatto farzandlarini ham katta qilishyapti. Sen esa hali ham uplashda davom etaver.

— Uf, oyijon, yana boshladingizmi?.. Nurdan xolaning o'zi kim?

— Kim bo'lardi, Melek xolangning ovsini.

— Eh, oyijon... Iltimos, ertalabdan boshlamang... U qana-qasiga xolamga aylandi? Uni hatto tanimayman. Qolaversa, boshqa odamlarning qizining fotihasining, to'yining bizga nima daxli bor, Xudo haqqi, aytinq-chi?.. Juda bo'lmasa, bu gapni aytish uchun uyga kelguningizcha sabr qilsangiz bo'lmasmidi? Shuni aytish uchun tong-saharlab odamni uyg'otish yaxshimi? Baribir, ertaga kelasiz-ku, keliboq butun dardingizni dasturxon qilasiz-ku. Mayli, endi telefonni o'chiryapman. Sizni yaxshi ko'raman, oyijonim, — dedim va telefonni o'chirdim.

Onam bularning barchasini mening manfaatim uchun, men-ga yaxshi bo'lishi uchun qilayotganini bilardim, lekin ba'zida, haqiqatan ham, haddan oshirib yuboryaptilar. Uyqum yana ham ochilib ketmasidan oldin yana yotdim va darhol uxbab qoldim. Men uyg'onganimda tush vaqtি bo'lgan edi. Mart oyiga endigina kirgan edik, havo unchalik issiq emas edi. Kecha ertalab shoshib uydan chiqqanligim tufayli qalin kiyinmagan ekanman. O'sha kuni buni sezmagan edim, lekin uyg'onganimdan keyin og'riq bera boshladi. Tomog'im shishib, burnim tiqilib qolgan, quloqlarim portlab ketadigandek g'uvullab turardi. O'zimga bag'ish-lamoqchi bo'lgan butun bir shanba kunini karavotda o'tkazdim. Ertasi kuni po'lat eshikning gumbur-gumbur taqillashi tufayli o'rnimdan sakrab turib ketdim. Eshikni ochish uchun darrov yugurdim. Onam uyga qaytgan edi.

— Oyijon, qo'ng'iroqni bossangiz ham, darrov eshikni ochgan bo'lardim. Qasam ichib ayta olamanki, ko'rinishingizdan go'yoki urushga ketayotganga o'xshaysiz. Meni juda ham qo'r-qitib yubordingiz, — deya biroz ming'irladim.

— Ikki soatdan beri qo'ng'iroq chalyapman, sen eshit-maysan-ku. Yana uxbayotgan eding, shunday emasmi? Tog'ang

meni olib keldi, eshikni ochiq qoldir, mashinada bir qancha narsalar qolgandi, o'shalarni olib kelyapti. Hozir keladi.

Onamni ko'rар ekanman, uni juda sog'inganimni angladim, quchoqlab o'pdim. Aslini olganda, onam bilan juda yaxshi keli-sha olamiz, har doim ikkita yaxshi dugonadek edik. Shu oxirgi kunlarni hisobga olmasak, shuni bemalol aytishim mumkinki, biz aslo o'zaro tortishmaganmiz. Tog'am qo'lidagi narsalarni dahlizza qoldirib, o'zi ichkariga kirgandi. U mening qo'limdan bir fin-jon qahva ichmoqchi ekanligini aytди. Ikkalasiga ham yo'l char-chog'ini chiqarish uchun qahva tayyorladim...

Tog'am onamga o'xshamaydi. Suhbatlashishni yoqtirmay-digan, majbur bo'lmasa, uyidan chiqmaslikka harakat qiladigan odam. Ba'zan agar tog'am onamdan kichik bo'lmanida edi, bizni ko'rishga ham kelmasligi mumkinligini haqida o'ylab qoldim. Aytmoqchimanki, tog'am qarindoshlik rishtalaridan shu darajada uzilgan odam edi... Baribir, qahvasini ichar-ichmas darrrov o'midan turib, jo'nab qoldi.

Onam bilan yolg'iz qolar ekanmiz, hazillashib, biroz bosh-qalarni g'iybat qilib o'tirdik. Qishloq haqida menga aytib berdi, u yerlar qanaqa ekanligini hikoya qilib berdi. Keyin esa biroz vaqt sassiz-sadosiz, jim bo'lib qoldi. Oyoqlarini yig'ib, chordana qurib o'tirib oldi. Chap qo'li bilan asta-sekin boshidan ro'molini yechib oldi. Oqarib ketganini yashirish uchun qoraga bo'yagan sochlarini kaftlari bilan ensasiga silliq qilib tekisladi. Boshini yana biroz boshini egib, qoramag'iz yuzidagi ma'sumlik va achinish hissi bilan jigarrang ko'zlarini menga qaratdi. Onam qachonki shunday qiyofaga kirsa, demakki, gaplashadigan juda muhim masalalar bor. U menga yana biroz tikilib turdi-da, dardini dasturxon qila boshladi:

— Elif, seni qanchalik yaxshi ko'rishimni bilasan, qizim,

shunday emasmi?

— Tabiiyki, bilaman, oyijon. Men ham sizni juda yaxshi ko'raman. Lekin he yo'q, be yo'q nega bunday deyapsiz, shunga tushunmayapman?

— Endi hozir aytadiganlarimni diqqat bilan tingla va mening gapim tugagandan keyin sen gapirasani, maylimi? Bilaman, sen: “Onam bir yo'lini qilib mendan qutulmoqchi. Shuning uchun turmushga chiqib ketishimni istayapti”, — deya o'layapsan. Lekin, aslini olganda, unday emas, qizim. Rahmatli otang bilan men shu yoshingga qadar seni hech narsaga majburlamadi. Chunki sen o'zing har doim eng yaxshi qarorni qabul qilding, biz har doim hamma narsada senga ishonganmiz. Rostini aytadigan bo'lsam, rahmatli otang bilan oxirgi bir-ikki yil davomida bir yigitning qo'lidan ushlab oldimizga kelishingni va: “Men shu yigit bilan turmush quraman”, — deyishingni kutib, shunga hozirliklar ko'rib yashadik. Kimga turmushga chiqish masalasini hal qilishni o'zingga qoldirgandik. Rahmatli otang har kecha faqat sen haqingda, sening kelajaging haqida o'yldardi. Ammo keyin esa meni yolg'iz qoldirdi, o'zi Yaratganning huzuriga ketdi. Hozir u yoqda bularning barchasini o'layaptimi yoki o'ylamayaptimi — buni bilmayman, lekin men hali-hamon sendan, kelajagingda xavotirdaman... Ahvolimni ko'ryapsan, qara, qanday ahvoldaman, kasalxonalardan chiqolmayapman. Tinimsiz, uzlusiz kasal bo'lyapman. Na aka-ukang, na opa-singling bor. Men ham o'lsam, bu hayotda yolg'iz o'zing nima ham qila olasan? Seni kimga ishonib, omonat qilib topshiraman? Kimnidir sev, kimni xohlasang, o'sha bilan turmush qur. Lekin ko'zim orqada qolmasin, u dunyoga bexavotir ketay, ko'nglim xotirjam bo'lsin. Turmush qurbaningdan keyin meni tashlab ketasan, o'shanda sendan qutulganim uchun mening baxtli bo'lishimni

o'ylayapsanmi? Yo'q, unday o'ylayotgan bo'lsang, noto'g'ri o'ylayapsan... Sen mening eng bebaho boyligimsan. Mening bir-dan bir yagona tilagim — qizimning ishonchli qo'llarda baxtli ekanini bilish, ajoyib bir oila qurbanligini ko'rish... Rahmatli otang tirikligida senga bu gaplarni aytolmasdi, otalar qizlari bilan bunday gaplarni bermalol gaplasha olmaydilar. Lekin sen ham qalbingning ich-ichidan bilasanki, rahmatli otang sen haqingda mendan ham ko'proq qayg'urardi. Qara, endi nimalar bo'ldi? U hamma yukni yelkamga tashlab, o'zi boqiy dunyo ketdi. Mana shunaqa gaplar, qizim... Xo'sh, biror-bir yigit bilan uchrashdingmi?

— Yo'q, onajon, siz nazarda tutayotgan masalada hech kim bilan ko'rishganim ham yo'q, gaplashganim ham yo'q...

— Xo'sh, endi nima qilmoqchisan, qizim? Xuddiki sen bilan turmush qurishni hech kim xohlamayapti-yu, biz esa seni kimgadir majburlab turmushga berishga urinayotgandaymiz. Agar shunday bo'lganida, aslo xavotirlanmagan bo'lar edim. Lekin shu paytgacha sen bilan turmush qurish uchun bir qancha talabgorlaring bo'ldi. Hali-hamon sendan umidvor bo'lganlar ham bor, biz bilmaydigan xaridorlaring ham bor, albatta. Sen ularning hech biriga, hech kimga imkoniyat berishni xohlama-yapsan. Iltimos, qizim, hech bo'limganda, qalbingni isitadigan biriga imkon ber... Endi men ham baxtli oilaviy hayotingni ko'ray...

— Mayli, oyijon, siz aytganday bo'ladi, endi bunday buyon xafa bo'lmanq, iltimos, — dedim va o'rnimdan turib, onamni mahkam quchoqladim.

— Ona bo'lganingda meni tushungan bo'larding, lekin ke-lajakda sen ham bu tashvishlarim sababini tushunasan, — dedi onam va sochlarimni mehr bilan silab qo'ydi.

Aslida onamni juda yaxshi anglayotgan edim, hattoki haq ekanligini o'zim ham e'tirof etardim. Boshimni ko'tarib, onamning yuziga qaradim va:

— Hammasi yaxshi bo'ladi, xavotir olmang, oyijon, — dedim.

U menga go'yoki urushda g'alaba qozongan qo'mondonday jilmayib qo'ydi. Hech bo'limganda, ozgina vaqt bo'lsa ham, ko'ngli joyiga tushganday, tinchlanganday bo'ldi. O'sha kundan keyin turmushga chiqish masalasi bir muddat davomida chetga surildi — qayta qo'zg'almadidi.

Onamni juda yaxshi ko'rardim va u ham meni juda yaxshi ko'rishiqa ishonchim komil edi. Lekin, baribir, ba'zida o'zimga o'zim: "Yaxshiyam, uyda o'tirganim yo'q, ishlayapman", — derdim. Ko'pincha o'zimni uydagi mana shunday bir qancha muammolardan qochish uchun ishlayotganday his qilardim. O'quvchilarimga e'tibor qaratish, kitob o'qish, cholg'u asbollarida kuy chalish meni juda tinchlantrardi. *Inson nimani juda yaxshi ko'rsa, darhol o'shaning ichiga kirib olishga intiladi. Chunki inson faqat sevgan narsalarining yoki sevgan odamining ichigagina sig'ishi mumkin. Qolgan hamma narsa jonni azoblashdan, ruhiyatini tushirishdan boshqa hech narsaga yaramaydi.*

* * *

Va nihoyat o'quv yilining so'nggi kuni ham kelgan edi. O'quvchilarimizga tabel varaqasini berganimizdan so'ng Melike bilan o'tirib suhbatlashdik. U oilasi bilan yozgi ta'tilni Istanbuldan tashqarida o'tkazishar ekan, shuning uchun uzundan uzoq vaqt davomida suhbatlashib o'tirdik. Melike turmush qurish

borasida mening hadiklarimni yaxshi tushunardi, lekin, ikkinchi tomondan, onamning fikrlari, xavotirlari ham o'rinli edi. Zotan, men bilan bog'liq bu vaziyatda har bir kishi onam bilan hamfikr edi.

Biroz dardlashganimizdan so'ng o'mimizdan turib, bir muddat davomida ko'risha olmaydigan do'stlarimiz bilan xayr-lashib, uy-uyimizga ketdik. Uyga qaytayotib, o'tgan kuni tikuv-chi Reyhan opaga qoldirgan ko'ylagimni esladim. Reyhan opa yoshi ellikdan oshgan, qizg'ish jingalak sochli, doim bir joyda o'tirib ishlagani uchun biroz semiz, lekin har qanday mavzuda gaplashesangiz ham, o'z fikriga ega bo'lgan ayol edi. U onam bilan ham yaxshi dugona edi. Men uning oldiga tez-tez kelib turardim, uzundan uzun suhbatlar qurardik. Suhbati shu qadar go'zal ediki, tinglab to'yib bo'lmasdi. Ish joyiga kirganimda meni tabassum bilan kutib oldi.

— Oh! Kichkina xonim kelibdi-ku. Tashlab ketgan ko'ylalingni olishga kelgansan, to'g'rimi? Yo'qsa tikuvchi Reyhan-nинг oldiga nega kelarding?..

— Shu ham gapmi, Reyhan opa, gapingizni qarang-a, shuni ham gap deb gapirib o'tiribsiz... Siz har doim mening yodimdasiz, — dedim.

Bu gapini eshitgan Reyhan opa qahqaha otib kulib yubordi...

— Menga: "Sen har doim yodimdasan", — degan odam o'n uch yildan beri menga na qo'ng'iroq qildi, na hol-ahvolimni so'radi va na yonimga keldi. *Inson ishq-muhabbatini sevganini xotirasida olib yurish orqali emas, yonida olib yurish orqali ko'rsatadi. Sevgilisiga ko'rsatgan eng ajoyib muhabbat mana shunday bo'ladi.*

— Reyhan opa, meni uyaltiryapsiz, qarang-a, xafa bo'la-

man...

U men berib ketgan ko'ylagimni yig'ishtirib, paketga solar ekan, shu bilan birga, menga ham gapirardi:

— Azizim, gaplarimni ko'nglingga olma, menga e'tibor berma. Maktabda ham ta'til boshlandi, biror-bir joyga hordiq chiqarish uchun ketish rejang bormi yoki shu yerda qolasanmi? — deya so'radi u.

Reyhan opa shunday demagunicha, biror joyga dam olishga borish xayolimga ham kelmagan edi.

— Agar biror-bir joyga borsang, ham havo almashtirasan, ham yangi odamlar bilan tanishasan. Ham muammolardan biroz uzoqlashib, o'zingga vaqt ajratasan, — deya qo'shimcha qildi Reyhan opa.

Demakki, onam ham yaqinda bu yerga kelganligi aniq bo'l-di. Reyhan opa gap orasida onamning istaklariga imo-ishora qila-yotganini sezib turardim.

Reyhan opa bir necha yillardan beri yolg'iz o'zi yashab keldardi. Qiziqishlarimga chiday olmay buning sababini so'radim:

— Reyhan opa. Sizni taniganimdan beri doimo yolg'izsiz. Yolg'iz yashamoq qanday? Menga shuni anglating. Siz onam bilan yaxshi dugonasiz, men haqimda ham suhbatlashishlaringiz aniq. Menimcha, shunchaki oilali bo'lish uchun turmushga chiqish to'g'ri emas. Lekin bu gapim hech qachon turmushga chiqishni istamasligimni anglatmaydi. Aslini olganda, men sevishni xohlayman, oshiq bo'lishni istayman... Bilmayman, lekin biror-birini qidirayotganim ham yo'q. Baribir, kimdir bir kun kelib meni topishiga ishonaman. Agar turmush men o'ylagandek bo'l-masa, hayotda hech kimsiz, yolg'iz yashash juda qiyinmi? Mayli, quradigan turmushim yaxshi bo'lmasa bo'lmasin, axir, hech kim biri-biri bilan baxtsiz yashashga majbur emas-ku. Men xato qil-

yapmanmi — buni ham bilmayman. Ammo xayolimdan o'tayotganlari, his qilayotganlarim mana shular.

Reyhan opa meni diqqat bilan tinglaganidan so'ng o'midan turib yonimga keldi va qo'limdan ushlab tikuv mashinasi yondagi kursiga o'tqizdi.

— Albatta, sen haqsan, Elif. Hammaning maqsadi baxtli bo'lish... Tabiiyki, yoqtirmagan insoning bilan baxtli bo'lolmay-san, ustiga-ustak, o'zing sevmagan insonni ham baxtli qila ol-maysan. Ba'zan o'zingga yoqmaydigan odam bilan, balki, do'st bo'lising mumkin, lekin turmush qurish do'st bo'lism deganimi? Tabiiyki, unday emas... Sevmagan insoning bilan bir uyda ya-shash, bir to'shakda yotish, u bilan butun shaxsiy hayotingni ba-ham ko'rish oson bo'larmidi? Bu turmushni hayot deb bo'la-dimi? Agar bunday turmush biror nom bilan ataladigan bo'lsa, uni iskanja deya nomlash kerak... Lekin sen bu borada juda omadlisan. Hech kim seni o'zing yoqtirmagan odamga turmush-ga chiqishga majburlamaydi. Sen, kim bo'lishidan qat'i nazar, birini sev, sevganing o'zingiz xohlagan inson bo'lsin, shuning o'zi kifoya. Onangning dardi, aslida, mana shu. Shu bilan birga, sen haqingda faqatgina onang tashvishlanmayapti. Bizning ma-daniyatimiz va urf-odatlarimiz ham shuni talab etadi. Har bir ona keksayar ekan, farzandlaridan mehr-muruvvat ko'rishni istaydi. Agar mening fikrimni bilmuoqchi bo'lsang, *sevgi zolim va shaf-qatsiz tuyg'udir. Sevgi nimalarnidir qurbon qilishni talab etadi, ustiga-ustak, kattadan katta qurbonliklar talab etadi...* *Ba'zan shunchalik ko'p narsa talab qiladiki, bu talablarini bajarishga kuching yetmay qoladi, ezilib ketasan...*

— Mening fikrimcha ham, sevgi yo'lida nimalardir qurbon bo'lishi kerak. Lekin sevgi bularning hammasini yengib o'ta ol-maydimi, Reyhan opa? Agar kimnidir qalbimda his qilganimdek

sevsam, hatto uning uchun jonimni ham bera olishim mumkindek tuyuladi menga.

Reyhan opa esa bu orada ko'ylagining yengini tirsagigacha shimarib olgan edi. Qo'llarining bilaklari ustaraning tig'i bilan tilingan jarohat izlari bilan to'lib ketgan edi. Jarohatlar tuzalgan, lekin o'rni yaqqol ko'rinish turardi. Holbuki Reyhan opani anchadan beri bilaman, lekin bunday holatga duch kelishimni xayolimga ham keltira olmasdim. Ko'rganlarimdan shu darajada aqlim shoshib qoldiki, hattoki ko'zlarimni uning jarohatlaridan uza olmadim.

— Qara, qizim, — dedi Reyhan opa. — Sevgi umuman boshqa narsa. Albatta, hamma narsani ko'zga olgan holda, har qanday oqibatga tayyor bo'lган holda, va hattoki nihoyasi o'lim bilan tugaydigan bo'lsa ham, qo'lingdan tutgan inson bilan birga yurish sevgidir. Lekin sevgan insoni tomonidan sevilmagani uchun va usiz yashay olmasligini o'ylab, o'z joniga qasd qilishga urinish ham kasallik. U, axir, seni sevmaydi, demakki, uning uchun o'lishingning nima ahamiyati bor? Bu ishing bilan kimni jazolaysan? Shu bilan birga, seni tark etib ketmoqchi bo'lган odamni juda yaxshi ko'rganing uchun qo'rqtish, unga tahdid qilish, hayotini dahshatli tushga aylantirish orqali o'zing bilan birga yashashga majburlash ham sevgi emas. Bu ham kasallikning bir turi... Agar sevgi qurbanlik bo'ladigan bo'lsa ham, seni xohlamagan odam uchun o'lish yoki uning hayotini do'zaxga aylantirish qurbanlik emas. Agar uni baxtli qila olmasang, o'zing ham baxtli bo'lolmaysan. Voz kechib ketish ba'zida sevgi hisoblanadi... Agar sening borliging uni qiyab qo'yayotgan bo'lsa, uning bir tabassumi uchun butun sevgingni qalbingga ko'mish ham bir qurbanlikdir. Seni hayotida istamagan odamga uni tark etishdan ko'ra kattaroq sovg'a bera olmaysan. Agar hozir shun-

day bo'lsa, kelajakda oyoqqa tura olishing osonroq bo'ladi. Lekin nima qilsang ham, natija doim bir xil bo'lsa, aslo o'zgar-mayotgan bo'lsa, ertami-kechmi, albatta, bunday munosabat tu-gaydi. Bunday munosabatlardan faqat afsus-pushaymonliklar, nadomatlar qoladi... Qara menga, mening o'zim ham buni juda kech angladim.

Bir paytlar Yilmaz bor edi... Eh, o'sha Yilmazni necha yillar davomida kutgandim... Qora ko'zli, mard jasur, daryo kabi jo'sh-qin yigit edi... Ha, ko'rib turganingdek, qo'llarimdag'i bu izlar menga undan esdalik bo'lib qolgan. "Qani, yur, men bilan ket", — dedi bir kuni va men uning ortidan ergashdim. O'sha paytlar yoshlik qildimmi yo hech narsani bilmaydigan johilmidim — bunisini bilmayman... Uning yoshi yigirmalarda edi, men esa endigina o'n sakkizga kirgan edim. Biz hamma narsani ortda qol-dirib, hamma-hammasidan voz kechib Adanadan Istanbulga qochdik. Oilam esa keyin meni aslo va hech qachon qabul qilma-di. Keyinchalik onamni ham, otamni ham faqat qabrriadagina ziyyorat qila oldim. "Bugun nikoh o'qitamiz, ertaga to'y bo'ladi", — degan gaplariga o'n yil bo'ldi. Istanbulga kelganimizdan ke-yin uning nima ish bilan shug'ullanayotganini ham bilmasdim. Ko'pincha uyga ham kelmasdi. Biror narsa desam: "Qora qozon qaynayapti-ku, pul topish osonmi?" — deya gapimni og'zimdan olib yoqamga yopishtirardi. "Iloji bo'lsa, ertaroq uyda bo'lishni xohlamasmidim?" — der edi. Men ham majburan sukut saqlardim. Vaqt ham mana shunday tarzda o'tib boraverdi... Bir kuni uning boshqa ayoli borligini bilib qoldim, u bilan ham birgalikda yashayotgan ekan. Shu bois juda ko'p janjallahsdik, urishib qoldik. Keyin esa uyga tobora kamroq kela boshladi. Oxirgi jan-jallarimizning birida meni avvalgidek sevmasligini, xohlasam, ketaverishim mumkinligini aytdi. Endi qayoqqa ham boraman?..

“Demakki, janob, siz meni avvalgidek sevmaydigan odamga ay-landingizmi?” — deya bilaklarimni ustaraning tig‘i bilan tilib tashladim. “Agar meni tashlab ketadigan bo‘lsa, o‘zimni o‘ldi-rishim ham mumkinligini ko‘rib, meni yanada ko‘proq sevadi”, — deb o‘ylagandim, lekin unday bo‘lmadi. Meni kasalxonaga yotqizdilar, Yilmazda esa zarracha o‘zgarish ham bo‘lmadi. Ustiga-ustak, mendan yana ham uzoqlashdi.

O‘sha paytlarda sening onang bilan kasalxona bog‘ida ta-nishdik. Alloh oyingga doim madadkor bo‘lsin, menga ko‘p yor-dam berdi, ruhan-ma’nан qo‘llab quvvatladi. Kiyimlarimni al-mashtirardi, ovqat yedirardi, sarf-xarajatlarim uchun pul berardi... *Inson og‘ir, musibatli kunlarida boshini qo‘yadigan, dardiga hamdard bo‘ladigan birini izlaydi.* Lekin mening hech kimim yo‘q edi. Na bag‘riga o‘zimni otadigan oilam, na meni qa-bul qiladigan qarindoshlarim qolgan edi. Faqt Yilmaz bor edi, u tufayli hayotimdan hammani o‘chirib tashlagandim va mana shunday ahvolga tushishimga Yilmaz sababchi bo‘ldi. Keyin Yilmazning jazmanini topdim, janjallahib ketdik, biri-birimiz-ning sochimizni yuldkik. “Birovning erini yo‘ldan urishga uyal-maysizmi?” — dedim. U esa: “Yilmaz — besh yildan beri mening erim, turmush o‘rtog‘im”, — dedi Dastlab uning gapiga ishonmadim, lekin menga nikoh guvohnomasini ko‘rsatdi. Ular-ning bitta qizi ham bor ekan. Bu qizaloqni ko‘rdim-u, qalbim vayron bo‘lib, chorasiz holda ortga qaytdim. O‘shanda Yilmaz-ning jazmani, aslida, o‘zim ekanligimni angladim. Shuning uchun ham o‘tgan o‘n yil davomida men bilan nikohdan o‘tmagan, to‘y qilmagan, turmush qurmagan ekan. Lekin, baribir, un-dan voz kecha olmadim. Demoqchimanki, Yilmaz nafaqat mening sevgimni, balki g‘ururimni, or-nomusimni ham toptagan edi... Uyga oxirgi marta kelganida menga: “Sen doimo xayolim-

dasan”, — degandi. Keyin esa aslo kelmadi. Oradan oylar o’tdi, uni qidirib yana o’sha uyiga bordim, uni so‘radim. O’lganligini aytishdi...

To‘g‘ri, u meni avvalgidek sevmasdi, doimo janjallahib yurardik, boshqa ayolga uylangan edi... Lekin Yilmazni juda yaxshi ko‘rardim. O’lganligini aytishgan onda mening olamim, borlig‘im vayron bo‘ldi. U iflos, noqonuniy, ta’qiqlangan ishlar bilan shug‘ullanar ekan. Kazinoda boshqa bir qo‘sishqchi qiz bilan yaqinlik qilibdi. Tunlarning birida noma’lum odamlar uni otib tashlabdi. Men u uchun necha martalab o‘lishga tayyor edim, lekin u boshqasi uchun o‘lib ketdi. Ishq hech qachon adolatli bo‘lмаган... Shuni bilasanmi? Menda faqat uning “Sen har doim xayolimdasan”, — degan gapi qoldi. “Ajabo, mabodo ajali ya-qinlashganini bilganмикан, shuning uchun ham oxirgi ko‘rishganimizda, o‘limidan oldin xayoliga kelganмиканман?” — deb o‘ylab qolardim... Agar o’sha paytlar hozirgi aqlim bo‘lganida edi, uning yonida umrimni bunchalar behuda shamolga sovurmas edim. U vafot etganidan keyin onang Sulton xonimdan panoh topdim. Keyin shu mahallaga kelib joylashdim, qo‘limidan tikuv-chilik kelar edi. Onang menga yordam berdi, birgalikda mana shu tikuvchilik ishxonasini ochdik. O‘z yog‘imga o‘zim qovurilib, shu kunlargaча yetib keldim. Elif, bu o‘tmishimni senga nima uchun anglatdim — ochig‘i, bunisini o‘zim ham bilmayman... Demoqchimanki, sevgan insoni uchun o‘zini o‘ldirishga urinish sevgi degani emas, qizim. Yilmaz meni sevib qolgan paytlari u bilan qochib ketish, hamma narsani ortda qoldirib, hayotni yangidan boshlash sevgi edi. Lekin keyin sodir bo‘lganlarning hammasi mening ahmoqligim, g‘urursizligim, hech narsani tushunmasligim tufayli bo‘ldi... U: “Istasang, ketishing mumkin”, — degandi, ammo men uni tark etib keta olmadim. Aslida, men

ketishim kerak ekan... Yilmaz o'lar ekan, bir muddatdan keyin xotini ham qizini olib o'zining ota-onasining uyiga qaytib boribdi. Ota-onasi uni boshqasiga turmushga berishdi. Ayol kishining boshida erkak bo'lmasligi juda noxush holat... Yilmazning qizi katta bo'lgan, hozir universitetda o'qiydi. Kelasi yili u ham xuddi sen kabi o'qituvchi bo'ladi. Mening farzandim yo'q edi, Yilmaz bilan farzandli bo'lishni doimo ortga surib keldik. Yilmazga bo'lgan eng katta muhabbatim o'sha qizaloqqa o'tdi. Onasining moddiy ahvoli yaxshi bo'limgani uchun uni yillar davomida men o'qitib kelyapman. Yoshlikda ishqqa uchrash ham oson, sevmoq-sevilmoq ham oson... Aslini olganda, bu yoshta yoningda suyanadigan tog'ing bo'lishi kerak. Ishon: mening yoshimdag'i odamlar sevilishni juda-juda istashadi. Mayli, mening taqdirimga bitilgani, taqdirim, kelajagim, shunday ekan-da, nachora, Elifim.

— Haqiqatan ham, o'sha odamni shunchalik sevganiningiz uchun ham hayotingizda boshqa hech kim yo'q bo'lmadimi? Yoki hech kim sizning eshigingizni taqillatmadimi, siz bilan turmush qurishni hech kim istamadimi? — deya so'radim.

Reyhan opaning ko'zlar yoshta to'ldi. Yuzida esa achchiq tabassum paydo bo'lди. O'rmidan turib, eshik tomon to'g'ri yurdi. Qo'liga tokchadagi osma qulfnı oldi va qalbining to'ridan bir chuqur xo'rsinish chiqdi.

— Yilmaz eshigimdan aslo ketmadiki, qanaqasiga boshqa birov bu eshikni taqillata olsin? — dedi Reyhan opa. — To o'lgnimcha har doim shundayligicha qoladi. Uni tanigan paytlarim juda yosh edim. U bilan ulg'aydim, u tufayli sevishni o'rgandim. Shu bilan birga, u ham men bilan ulg'aydi. Biz bu yerga kelganimizda suv ichish uchun bir piyolamiz ham yo'q edi, lekin bir-birimizga nisbatan ishonch va muhabbat bor edi. Inson bolaligini, yosholigini, ishonchini unuta oladimi? Aslo unuta olmaydi. Yil-

maz mening butun borlig'im edi. U vafot etganda dastlab undan xafa bo'ldim, jahlim chiqdi, lekin uni allaqachon kechirgan edim. U juda ko'p azoblanishimga sabab bo'ldi, juda ko'p xafa qildi, lekin, baribir, oxir-oqibat, uni kechirgan edim. *Agar yuragingda sevgi bo'lsa, sevganingga qarshi tura olmaysan, undan nafrat-lana olmaysan. Barcha bergen azoblari-yu jafolarni o'chmay-digan olov kabi bag'ringga bosasan.* Men o'sha olovni ko'ksim ostiga qo'yanman. Endi kuydirmayapti, unga ko'nikib qoldim.... Qalbimda bu otash bor ekan, kim kelsa, uni yondiradi. Men bu otash bilan bir marta olovlandim, bu olovni boshqa birovlar uchun o'chira olmayman, sovita olmayman. Negaligini bilmadim-u, lekin *bir muncha vaqt o'tgach, ehtimol, inson o'zini avvalgidek his qilmay qo'yar ekan. Juda ham ko'p o'ylay-vermas ekan, aqldan ozib qolmas ekan, borini boricha qabul qilar ekan. Bu voz kechishga, taslim bo'lishga o'xshamaydi, lekin, baribir, inson voz kechar ekan...* Sevishdan va sevilish-dan shunchalik voz kechar ekanki, endi aslo boshqalariga qu-chog'ini ochmas ekan, boshqalarining quchog'iga kirmas ekan. Demoqchimanki, o'shandan keyin hech kimni sevmadim... Mana shu qadrdon sevgim bilan uning oldiga boradigan tunni kutyapman. Qalbimda faqat u bo'lsin, boshqa hech kim bo'lmasin...

Men Reyhan opani buyuk bir hurmat va achchiq bir ham-dardlik bilan tingladim. Yilmazni qanchalar ajoyib tarzda sevgan ekan... Bu g'amgin sevgi hikoyasiga shunchalik sho'ng'ib ketgan edimki, hattoki bu yerda bir soatdan beri turganimni payqamabman. So'ngra ko'ylagimni oldim-u, darhol to'g'ri uyga keldim. Reyhan opa o'zi haqida anglatgan bu o'tmish xotiralarini onam-dan ham yana bir bor tingladim. Reyhan opa haqida onam bilan uzundan uzun suhabatlashdik.

Keyin xonamga borib o'qishni chala qoldirgan kitobimni

kelgan joyimdan o'qiy boshladim, lekin shu bilan birga Reyhan opaning sevgi hikoyasi ko'z o'ngimda jonlanar edi. *Bir paytlar sizni sevgan va siz ham uning sevgisiga ishonganingiz uchun barcha orzu-umidlariningizni o'ziga bog'lagan inson endi sizning oldingizga kela olmasligi, sizni ko'ra olmasligi, naqadar katta ko'ngilsizlik, azob-uqubat edi...*

Oradan bir-ikki soat o'tdi, xonamda chiroqning yonib turganini ko'rib, onam yonimga keldi va:

— Hali ham uxlamadingmi? — so'radi.

Vaqt allaqachon kech bo'lgandi, lekin buni sezmadim. Uxlay olmayotganimni, shuning uchun kitob o'qiyotganimni aytdim. Onam yonimga sekingina yaqinlashib, karavot chetiga o'tirdi va ancha paytdan buyon uxbab yotgan ilonning dumini yana bosdi, ya'ni mavzvu yana turmush qurish haqida edi.

Ko'nglimda, o'y-xayolimda hech kim yo'qligiga ishonchi komil bo'lgach, menga o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'ida bo'lib bir suhbatni aytib berdi. Istanbulda tug'ilib o'sganim uchun qishloqni umuman bilmayman, qarindoshlarimning aksariyatini tanimayman. Xaticha opa ismli uzoq qarindoshimiz bor ekan... Onam uning men bilan tengdosh Serhat ismli o'g'li borligini, Istanbulda hisobchi bo'lib ishlayotgani, maoshi yaxshi ekanligi, fe'l-atvori ham yaxshi ekanligini aytdi. Xaticha opa bilan onam bu mavzuni faqat ikkalasi o'zaro gaplashibdi va bu haqida mening fikrimni bilmasdan turib Serhatga hech narsa demaslikka qaror qilishibdi. Onam bilan ertalabgacha shu haqda gaplashdik. Otam men bilan bog'liq masalalarda sukut saqlashni, bunday mavzularga kirmaslikni, fikrlarimga aralashmaslikni afzal ko'rardi. Lekin onam unday emas, o'zi xohlagan javobni olmagunicha, qalbimga vijdon azobiday og'ir yuklarning azobini solardi. O'zi ko'ngli joyiga tushmasa, qarshisidagi insonni ham tinch

qo‘ymasdi. Aslini olganda, o‘zim ham bu mavzuning doimo o‘rtaga chiqishidan, turmush qurish haqida gaplashishdan juda charchab ketgandim. Bir tomondan, onam bilan gaplashardim, boshqa tomondan, o‘zim uchun oqilona javoblar topishga harakat qillardim. Oxir-oqibat, hech bo‘limganda, onamning ko‘ngli joyiga tushishi uchun, ya’ni shu haqida gapirib, meni siqib ezishidan voz kechishi uchun Serhat bilan tanishishga qaror qildim. Baribir, tanishishning biror-bir zararli tomoni yo‘q-ku!.. Qolaversa, mening hayotimda bo‘lishni istagan boshqa hech kim yo‘q edi. Onamga Serhat bilan tanishishga roziligidim, lekin hech narsadan umid qilmasligini ham aytdim. O’sha lahzada onamning ko‘zlarida balqigan quvonch nuri hech qachon yodimdan chiqmaydi. Balki, uni hayotimda birinchi marta bu qadar xursand ko‘rgandirman...

Reyhan opa aytganidek, “Har kimning o‘z hikoyasi bor...” Hikoyam meni qayerlarga olib borishi mumkinligi haqida zarra-cha fikrim yo‘q edi...

*Qaniydi, har kimga o'ziga munosib tarzda
munosabatda bo'lsak, naqadar ajoyib bo'lardi..
Qaniydi, mag'lub bo'lmasak edi, qalbimizga va
o'zimizga kimlar nimalarни his ettirgan bo'lsa,
biz ham ularga aynan shularни his ettira olsak
edi..*

*Lekin bir kun bunga erishamiz va ba'zilarga
hech kim voz kechilmas inson emasligini
anglatamiz...*

— II —

Oradan ko'p vaqt o'tmagan edi va bu kun ham boshqa kunder kabi oddiy bir kun edi. Oqshom ham boshqa oqshomlardan aslo farq qilmas edi. Boshqa kunderdag'i kabi kechki taomning so'nggi onlari edi. Onam bugun Serhat bilan gaplashganini va hafta oxirida, ya'ni dam olish kunida uning meni ko'rish uchun bu yerga kelmoqchi ekanligini aytdi. Ichimda zarra qadar kichik bo'lsa ham hayajon sezmadim, lekin onamning xursandligi yuziko'zidan bilinib turardi. Men esa bu ishdan onam kutgan natijaning chiqmasligiga, hech qachon rozi bo'lmasligimga ahd qilib qo'ygandim. Onamga Serhatning bu yerga kelishiga qarshiligidim yo'qligini, bermalol kelaverishi mumkinligini aytdim va darrov mavzuni yopdim.

Dam olish kuni kelganida esa o'zimni g'alati his qila boshladim... Onam o'zi tug'ilib o'sgan qishloqqa tez-tez borib turgani uchun Serhatni biroz bo'lsa ham taniydi, lekin men bugun u bilan biringchi marta ko'rishaman. Xayollarim sarosimaga tushdi... Taraqqiyotdan uzoq joylarda yashaydigan, maktabga ham bormaydigan, ma'lum bir an'ana, urf-odat qoidalariga bo'ysundigan, ularga qaram bo'lib qolgan qizlarni xayolimdan o'tkazdim. Tuyg'ulari, hayotdan kutganlari, umidlari haqida aslo so'ramasdan, tanimagan-bilmagan odamlarga xuddiki biror bir buyum kabi beriladigan qizlarni xayolimda tasavvur qildim... Hattoki ularning o'y-fikrlari ham dahshatli tush kabi edi. Shunday qizlar

haqida o'ylar ekanman, fikrlarimni hurmat qiladigan bir oilamning bor ekanligi mening bebaaho bir omadim edi. Fikri-zikrim shu o'ylar bilan band bo'lganligi tufayli vaqtning o'tib ketganini ham bilmay qoldim. Serhat allaqachon kelgan ekan.

O'n daqiqa oldin qalbimda uning kelishi bilan aloqador zar-racha hayajon yo'q bo'lsa ham, onamning eshik oldida turib: "Serhat, xush kelibsan, o'g'lim", — deganini eshitgan zahoti qalbim hayajonga to'lib ketdi. Axir, men bu borada naqadar his-siz edim, o'zimning bunday ahvolga tushishimni aslo xayolimga ham keltira olmasdim. Kutilmaganda birdan qo'llarim, oyoqlarim shol bo'lib qolganday bo'ldi, nima qilishimni bilmay qolgandim. Ha, aynan, shu onda bu ishning qanchalar jiddiy ekanligi haqidagi fikr qalbimdan joy oldi...

Oshxonada nima qilarimni bilmay o'tirgan edim, onam yonimga kelib:

— Qahva tayyorlab olib kirmaysanmi? — dedi.

Qahva so'zini eshitishim bilanoq battar asabiylashib, bu sovchilik marosimi emasligini, shunchaki tanishish ekanligini onamga eslatdim. Ko'zlarim o'sha onda bir lahza davomida osh-xonaning ko'rinishi unchalik yaxshi bo'lмаган yog' och koshinli tor derazasidan tashqariga tikilib qoldi. O'sha onda xayolimdan nimalar kechganini soatlab gapirib bersam ham, tugamasdi... Qalbimga ta'riflab bo'lmas bir yoqimsizlik kirgandi... Aslini olganda, men bilan turmush quradigan yigit bilan tanishish lahzalarini xayolimda umuman boshqacha tasavvur qilardim... Bu holat men o'qigan kitoblardagi sevgi hikoyalariga umuman o'xshamasdi. Balki, kitoblarga juda berilib ketgandirman. Ammo, baribir, har bir inson o'z orzulari uchun yashamaydimi? Afsuslar bo'lsinki, bu mening orzuyim emas edi... Yuragimni g'alati bir g'amginlik qamrab olgan edi. Shu on darhol uning oldiga kirib:

“Siz mening hayotimni qayerlarga sudrab olib ketishga harakat qilyapsiz? Bu yerdan chiqib keting! Daf bo‘ling!” — deyish xayolimdan o‘tardi, lekin onam bilan o‘tirgan Serhatning yoniga kirib: “Xush kelibsiz...” — dedim.

Serhat baland bo‘yli, oq tanli yigit edi. Ko‘zlar yashil edi va atrofga biroz ma’sumlik, biroz xijolat bilan qarardi. Yoshi, menimcha, mening yoshim bilan bir xil bo‘lsa kerak. U ovozimni eshitar-eshitmas, tizzalari ustida birlashtirib o‘tirgan qo‘llarini stolning burchagiga tirab o‘rnidan turdi. Bo‘yi baland bo‘lishiga qaramay, kiygan kostyumini to‘ldira olmagan yelkalarini yuqoriga tortdi va qo‘lini uzatib men bilan ko‘rishdi. Ovozining ohangidan hayajonlanayotgani sezilib turardi, men esa uni shunchaki kuzatayotgan edim... Soqol-mo‘ylovini yaqinda oldirgani sip-silliq yuzidan bilinib turardi, balki ishi shuni talab qilsa kerak. Lekin, menimcha, soqol erkaklarga yarashadigan narsalarning eng yaxshisi edi. Men o‘z xayolimda uni soqolli holda tasavvur qilishga urinib ko‘rdim. Lekin nimalardir yetishmayapti, nima qilsam ham, uni orzumdagagi odamga o‘xshata olmadim. Balki, bir ko‘rishda oshiq bo‘lish degan narsa yo‘qdir, lekin sevib qolishningiz mumkin bo‘lgan insonni birinchi marta ko‘rganingizda qalbingizdagi qop qorong‘i zulmatda kichik bo‘lsa ham bir uchqun chaqnamaydimi? Inson shunday paytda qalbida juda kichkina bo‘lsa, ignaning uchidek bo‘lsa ham iliqlik his etmaydimi? Men hech unga nisbatan narsani his qilmadim... Oramizdagagi suhbat unchalik uzoq davom etmadi. Suhbatning aksariyat vaqtinun o‘zi haqida gapirishi bilan o‘tdi. Asosan ishi va turmush tarzi haqida gapirdi. Uning gaplari onamning xursand bo‘lib holda jilmayishi uchun yetarli edi, lekin men esa bu gaplarning hech biriga parvo qilmadim. Mening kutganim umuman boshqa edi.

Sevgi...

Ishq-muhabbatni kutardim, men sevgi izlardim...

Deyarli bir soatcha o'tirgandan so'ng ketish uchun ruxsat so'rab o'midan turdi. Endigina eshikdan chiqib ketayotgan paytida orqasiga o'girilib:

— Ertaga yakshanba, agar biror-bir ishing bo'lmasa, birgalikda biror-bir joyga bora olamizmi? — deya so'radi.

Shu onda nima deyishni bilmay qoldim. Bir necha soniya jim bo'lib qolgandimki, onam:

— Albatta, Elifning vaqtি bor. Shunday emasmi, qizim? Bu sen uchun ham yaxshi bo'ladi, biroz havo almashtirasan, hordiq chiqarasan. Zotan, ertaga men ham ayollar yig'iniga ketaman. Sen esa Serhat bilan aylanib kelasan, — dedi.

Onam Serhatning bu taklifi haqida o'ylab ko'rishimga ham izn bermay, mening o'mimiga qaror qabul qilib bo'lgan edi.

O'sha kuni onam mendan Serhatga nisbatan nimalarni his qilganimni har xil yo'llar bilan ming martalab so'radi. Rostini aytdim, ya'ni Serhatga nisbatan hech bir tuyg'uni his qilganimni aytdim. Onamning fikriga ko'ra, birinchi tanishuvda hech nimani his qilmagan bu holatim me'yoriy emish. Onamning bunday gaplaridan zada bo'lib, qonim qaynab, boshim shishib ketdi. O'zimni biroz sokinlashtirish uchun Melikega qo'ng'iroq qildim. U bilan gaplashsam, darrov sokinlashaman, o'zimni yaxshi his qilaman. Unga aytganlarimning hammasi oramizda qolar, boshqa hech kimga aytmasdi va uning shunday ekanligini bilish esa menga ishonch bag'ishlardi.

Kechki ovqatdan keyin xonamga kirdim, biroz vaqt davomida kitob o'qidim, keyin uxbab qoldim. Ertasi kuni Serhat tushki paytlarda keldi va birga sayrga chiqdik. Sayrning dastlabki bir necha soatida juda asabiyashib yurdim. "Nega o'zimni bunaqa tutyapman? Nega bunaqa asabiyashib yuribman?" — deya ich-

ichimdan o'ylardim. Bu juda ham g'alati tuyg'u edi. Go'yoki dunyo qulab tushgan-u, men esa uning ostida qolib ketgandek his qilardim. O'zimni hech kimi yo'q bir yetim yoki boshqa birovning uyidagi asrab olingen qiz kabi tutar edim... Oradan vaqt o'tgan sayin asta-sekin o'zimga kela boshladim. O'sha kuni Serhat bilan ko'p narsalar haqida gaplashdik. Talabalik yillari, shaxsiy hayoti, ishi, mashg'uloti, kasb-kori haqida... Ba'zida Serhatning ko'zlariga tikilib: "Ajabo, u bilan baxtli kelajak qura olarmikan-man?" — deb o'ylab qolardim, u menga ajoyib yigitdek tuyular-di, lekin unga nisbatan his-tuyg'usiz edim. Bu ahvolumning yana qancha davom etishini o'ylardim, uchrashuvimizni cho'zish tufayli Serhatga umid bermoqchi emasdim. Endi o'y-fikrlarimni ichimda saqlamaslikka ahd qildim va gapira boshladim:

— Serhat! Men hissiyotga beriluvchan bir inson sifatida senga nisbatan biror-bir his-tuyg'uni, iliqlikni his eta olmadim. Iltimos, meni noto'g'ri tushunma. Kecha seni birinchi marta ko'rGANIMDA ham hissiyotlarim shunday edi. "Ehtimol, ikkinchi kun o'zgarar", — deya o'ylagandim, lekin hech narsa o'zgar-madi...

— Men ham sendan bundan boshqa gap kutmagandim, Elif, — dedi Serhat. — Xavotir olma, men ham sen kabi o'ylayapman, axir, bu butun bir kelajak, butun bir hayot masalasi, buni bir-daniga hal qilib bo'lmaydi. Ustiga-ustak, ikkalamiz ham onalari-miz iltimosi tufayli bu yerdamiz, ularning xohish-istagi tufayli ko'rishiypmiz. Yana bir necha bor ko'rishaylik, keyin esa qulay bir paytni topib, biri-birimizga mos emasligimizni aytamiz, shun-ga nima deysan?

Serhat menga bunday javob qaytarishini aslo kutmagandim. Bir zumda ichimdag'i butun og'irlikdan va asabiylikdan qutul-dim, o'zimni yengil his qildim. Uning so'zları meni tinchlantirdi,

sokinlashtirdi. Biz oramizda qandaydir his-tuyg‘ular paydo bo‘lishi uchun, biri-birimizni sevib qolish uchun harakat qilmasdik, lekin shunga harakat qilgandek ko‘rinardik. Agar shunday qilsak, hech kim biri-biridan xafa bo‘lmasdi, hamma xursand bo‘lardi.

Lekin ishlar rejalashtirganimizdek ketmadi. Ketma-ket yana bir necha dam olish kunlari uchrashganimizdan so‘ng ish kunlarida ham ko‘risha boshladik. Men Serhatning yaxshi do‘sit bo‘lishi mumkinligiga endigina ishona boshlagan edimki, u meni yoqtirib qolganini aytib qoldi. Men esa bunday bo‘lishini hech qachon istarmayotgan edim. U bilan bu borada bir necha bor gaplashdik. “Bo‘ldi, yetar endi, biri-birimizni bunday behuda umidvor qilib yurishga chek qo‘yaman”, — deyishni, bunday bema‘ni vaziyatga nihoyasiga yetkazishni istagan edimki, negadir Serhatning his-tuyg‘ulari qisqa vaqt ichida o‘zi-o‘zidan susayib qoldi, sokinlashdi. Balki, o‘zi ham mendan uzoqlasha-yotganini tushunishimni xohlagandir — bunisini bilmayman.

Biz bir yil davomida uchrashishda davom etdik. Bu vaqt oralig‘ida hayotimdagи ba‘zi narsalar o‘zgardi. Atrofimdagilar ning hammasi turmushga chiqqan. Eng yaqin dugonam Melike ham bu yerdagi maktabdan bo‘shab, erining tug‘ilib o‘sgan joyiga ketgandi. Ikki oy oldin Reyhan opa ham vafot etdi, undan ayrilib qolganimga ham juda ezildim. Reyhan opaning kutilmaganda vafot etishi menga ruhan juda yomon jarohat yetkazdi. U menga doimo juda iliq munosabatda bo‘ladigan juda samimiyl, mehribon, sofdir ayol edi. Uning qalbida qanday jarohatlar-u azoblar borligini bilardim. Tili-yu dilidan Yilmaz aslo tushmas edi... Goho uning ish joyi joylashgan ko‘chadan o‘tar ekanman, ko‘k rangli yog‘och eshidagi osilgan qulfga ko‘zim tushardi.

Oxirgi marta gaplashganimizda: “Yilmaz mening eshidigan dan aslo ketmagan...” — deganida nimani nazarda tutganini dafn

kuni uning eshigiga o'sha osma qulf urilganida angladim. O'sha eski qulfnинг ustiga "Yilmaz" ismi yozilgan edi. Yilmaz haqida gapirar ekan, kaftida tutgan qulfi endi men uchun yanada chuqur mazmun kasb etardi. Qulfni har safar ushlaganida go'yoki Yilmazning qo'lidan ushlab turgandek bo'lar ekan-da... Kim bilsin, Reyhan opa o'sha eshik ortida pinhona qanchadan qancha yig'-lagandir, qachonki uning oldiga borsam, doimo kulimsirab turardi. Yilmazning xotiralarini yo'qotmaslik uchun bu shaharni tark etmagan edi, dardlarini tabassumining ichiga yashirgan edi. Reyhan opa sevgisini Yilmazdan boshqa hech kim bilan baham ko'ra olmadi va qalbiga ko'milgan barcha his tuyg'ulari bilan yolg'iz o'ldi. Yillar davomida Yilmazning yo'lini ko'zlagan bu eshikning oldidan Reyhan opaning tobuti olib o'tildi. Shuni bilamanki, Reyhan opa endi Yilmaz bilan qovushgan...

So'nggi bir yilda o'zgarmagan yagona narsa Serhatga bo'lgan his-tuyg'ularim edi. Men u bilan yanada yaqinroq tanishishga, undan o'zimga bir nimalar topishga harakat qildim. Aslini olganda, u o'z oilasi uchun jonini ham qurban qiladigan darajadagi, ajoyib qalbli inson edi. U odatiy, bexavotir, his-hayajonsiz, sokin hayot kechirishga juda ham moyil odam edi. *Vaqt o'tishi bilan shuni angladimki, bir insонning samimiш va sofdil ekanligi uni sevish uchun yetarli emas ekan.* Shuning uchun ham Serhatga ko'nglimni aslo ilita olmadim. Biroq shunchalar yolg'iz qolgan edimki, hayotimda onamdan va Serhatdan boshqa hech kim qolmadi. Oxirgi paytlarda shunchalik odamovi bo'lib qolgandim. Endi na o'qigan kitoblarim ham, na o'quvchilarimga bo'lgan e'tiborim, na tushunish uchun qilgan boshqa ishlarim ham o'zimni chalg'itishga yetmay qolgandi. Uzoq vaqt davomida orzularim va hayotdan kutganlarimni mulohaza qildim, birma-bir qayta elakdan o'tkazdim. O'zim orzu qilgan muhabbat

kechinmalarini hech qachon boshimdan o'tkaza olmasligimni va hamma ham o'z orzusidagi odamni uchratishi mumkin emasligiga ko'nikkanimdan keyin taqdirimga oyoq tirashni bas qildim. Chunki bu men aslo g'alaba qozona olmaydigan jang edi. Oldimda ikkita yo'l bor edi. Yoki Reyhan opadek har qancha kutishga va azoblanishga arziyidigan, ammo oxiri nima bo'lishini aslo bilib bo'lmaydigan sevgini kutishim kerak edi yoki ajoyib, juda munosib bo'lganligi uchun Serhatning taklifini qabul qilib, hayotimning qolgan qismini baxtli o'tkazish uchun harakat qilishim kerak edi. Endi nimaning to'g'ri ekanligini, nimaning noto'g'ri ekanligini hisob-kitob qilish uchun na vaqtim bor edi, na kayfiyatim. Otamning yo'qligi, tevarak-atrofdagi ayriliqlar, onamning g'am-tashvishlari, Serhatning meni ko'ndirishga qilgan harakatlari meni juda charchatib yuborgan edi. *Insonning hayotdagi yagona maqsadi baxtli bo'lish emasmi? Shunday ekan, ham-mamiz ham bir hovuch huzur-halovat, bir chimdim baxt uchun harakat qilmayapmizmi, intilmayapmizmi?* Nimalar qilsam ham, nimalarni o'ylasam ham, baribir, hech qachon baxtli bo'lollmaydiganday his qilardim o'zimni. Shuning uchun ham hech narsa qilmaslikni ich-ichimdan xohlardim. Hayotimning ichida har safar adashib qolganimda kitoblarning bag'riga otishni, juda ham yoqtiradigan mashg'ulotim — fleyta¹ chalishni ham bas qildim... Har kecha bir xil duoni qayta-qayta aytardim: “*Allahim, menga bir yo'l ko 'rsatgin...*”

Kunlarning biridan, oqibati nima bo'lishidan qat'i nazar, bir qarorga kelishim shartligi haqida bir qarorga keldim. Qalbim chirib borayotgan edi, ishonchim, his-tuyg'ularim o'lib ketayotgan edi, lekin, afsuski, buni hech kim ko'rmayotgan edi, tushun-

¹ **Fleyta** (*italyancha: flauto yoki nemischa: Flöte*) — yog'ochdan yasalgan, naysimon, puflab chalinadigan musiqa asbobi.

mas edi, his qilmas edi...

Men nimadir qilishim kerakligini bilardim, lekin shunday ahvolga tushib qoldimki, o'zimni go'yoki chiqqa olmaydigan bir jarlikning tubida ko'rardim. Maktabning birinchi choragining oxiri kuni kelganida hisobotlarni topshirib, Serhat bilan uchrash-dik. O'sha kuni hayotimda eng qiyin qarorni qabul qildim. Suhbat boshlaganimizga besh daqiqa ham bo'limgandiki, biz yana o'sha mavzuga qaytgandik.

— Bilaman, meni sevmaysan, — dedi Serhat. — Bunga ko'nikib qoldim. Qanchalik to'g'rilingini bilmayman, lekin meni sevmasligingni bilgan holda hayotimda bo'lishingni istayman. Ishonchim komilki, bu dunyoda faqat men shunday emasman, men bilan bir xil vaziyatda bo'lgan millionlab odamlar borligi aniq. Bilasanmi, bir kun kelib meni sevib qolishingga ham umid qilmayman. Biroq, shunday bo'lsa ham, sen bilan turmush qurishni istayman. Bu gaplarim naqadar ahmoqona, naqadar bema'ni shunday emasmi? O'zimni hech qachon sevmaydigan odam bilan bir umr yashashni istash oqilona fikr hisoblanmaydi. Ishon: seni sevib qolganmanmi yoki telba bo'lib qolganmanmi — buni aniq ayta olmayman. Birdan bir, yagona istagim — sen bilan birga bo'lish. Agar kutayotgan bir odaming borligini bilsam, bir soniya ham o'ylab o'tirmasdan sendan voz kechgan bo'lardim. Sen bilan turmush qurishni istayman...

— Sendan baxt topa olmagan ayolning seni baxtli qilishini qanday kutishing mumkin — tushunmadim. Bu o'zingga ham g'alati tuyilmayaptimi? Agar senga nisbatan hech qachon sevgi hissini tuya olmasam yoki bir kun kelib, hech narsa sen kut-ganingegek bo'lib chiqmasa-chi?.. Bunga qanday chiday olasan? Aql-hushi joyida bo'lgan odam buni qabul qila olmaydi. Xudo haqqi, ayt-chi, sen buni qanday qabul qilasan? Oxir-oqibat, ikka-

lamiz uchun ham bu holat yaxshilik bilan tugamasligi mumkin. Bularning barchasini qabul qila olasanmi, shunday vaziyatlarga ham tayyormisan? — deya so'radim.

Shunda u o'zi o'tirgan stulni beli bilan biroz ortga surib, qo'llarini ko'ksining ustida chirmashtirib, bir muddat jum qoldi. Keyin esa qo'llarini yana stolga qo'ydi va ko'zlarimga tikilib gapirdi:

— Gaping mutlaqo to'g'ri, sen haqsan. Aql-hushi joyida bo'lgan har qanday odam sen tasvirlagandek bo'lishni xohlamaydi. Sen bilan uchrashishimdan oldin, seni tanimasimdan oldin bunday narsalar haqida aslo o'ylab ko'rmaganman. Lekin endi hamma narsani, hatto qayta-qayta o'ylab ko'rdim. Bir kun kelib hammasining barbod bo'lishi mumkinligini ham hisobga oldim, shuning uchun menga bir imkoniyat berishingni istayman, — dedi.

— Agar shunday bo'lsa... Mayli, sening taklifingni qabul qilaman... — dedim.

Ba'zan hayotiy qarorlarni o'z ixtiyorингиз, xohishingиз bilan qabul qilgандай ко'rinasиз, lekin, aslida, buni majburlikdan, chorasizlikдан qilgan bo'ласиз. Lekin o'z ixtiyorингиз, xohishingиз bilan qabul qilish boshqa gap, majburlik, chorasizlik tufayli qabul qilish umuman boshqa masala — bu ikkalasi bir xil emas. Men bu qarorni chorasizlikdan qabul qilgandim. Urushda g'alaba qozona olmaganligim tufayli oq bayroqni ko'tarishga majbur bo'lgandim.

“Bo'ldi-bo'ldi, sen yutding, men yutqazdim!” — baqirib yig'lashni istayotgan bo'lsam ham, lekin uning taklifiga rozi bo'lganimni aytdim, xolos... “Shu bilan o'y-xayolimni, aqlimni kemirayotgan mavhumliklar tugaydi”, — deb o'ylagandim. Biroq hammasi endigina boshlangan ekan...

*Har doim ham faqat qilgan xatolarimiz uchun
badal to 'lamaymiz, ba 'zida yaxshi niyatli, rahm-
shafqatli, marhamatli bo 'lganligimiz uchun ham
badal to 'laymiz. Keyin esa ko 'ramizki, sevgan
insonlarimizni xafa qila olmaganligimiz tufayli,
ularning xohish-istiklarini rad eta
olmaganligimiz sababli, o 'zimizni azoblagan, o 'z
qalbimizni parchalab tashlagan bo 'lamiz...
Bunday holatning eng yomon tomoni nima
ekanligi bilasizmi?*

*Bir kuni, vaqtii kelib, boshqalarga yaxshi
bo 'lishini o 'ylab qilgan xatolarimiz tufayli faqat
o 'zimiz azoblanamiz, faqat o 'zimiz
jarohailanamiz va faqat o 'zimiz bu azob-uqubat,
yara-yu jarohatlar bilan yashashga majbur
bo 'lamiz.
Bizga yaxshi bo 'lishini istaganlar biz uchun
achinishdan boshqa hech narsa qilmaydi...*

— III —

Shuncha ikkilanishlar-u, shubha-gumonlar natijasida olin-gan turmush qurish qarorimizdan eng xursand bo'lgan odam, shubhasiz, mening onam edi. Ba'zida onamning hayotdagি bir-dan bir istagi mening oila qurib, baxtli bo'lishimni ko'rish ekan-ligiga ham shubha qilardim. Chunki onam mening ichimni, qalbimni ko'ra olmasdi, ko'rishni ham istamasdi. Onamning bu tabiatи go'yoki mendan tezroq qutulmoqchi bo'layotgандек tuyulardi. Aslida bunday emasligini butun qalbim bilan bilardim. Har bir qizning eng ajoyib, eng zavqli, eng baxtli onlardan biri — o'zining kelin bo'lganini ko'rgan lahzasidir. Barcha qizlar shuni orzu qiladi. Men ham shunday orzularni ko'p xayol surgan-man, lekin men orzu qilgan turmush bunday emas edi...

Oradan ko'p o'tmay ikki oila o'rtasida nikoh marosimi bo'ldi. Serhatning oilasi ko'p cho'zib o'tirmay to'y kunini belgilashni, to'yni ham tezda o'tkazishni xohlardi. To'y kuni 2008-yil sentabr oyining ikkinchi haftasiga belgilandi. Men ham endi o't-tiz yoshga kirmasimdan salgina oldin turmushga chiqqan aylarga aylanardim.

To'yga tayyorgarlik ko'rayotgan paytimizda dugonam Melike menga qo'ng'iroq qildi. O'ziga aslo qo'ng'iroq qilmaganim uchun, hol-ahvolini so'ramaganim uchun mendan biroz o'pkalandi:

— Nima, doimo men senga qo'ng'iroq qilishim kerakmi,

shu ham insofdanmi?! — dedi.

Bo'lib o'tgan ishlarni unga hali aytmagan edim, u boshimdan o'tgan kechinmalarni eshitib, juda ham hayron bo'lib, aqli boshidan uchdi. Mening boshqalar kabi omi savodsiz qiz emasligimni, madaniyatli bir o'qituvchi ekanligimni, o'zim haqimda o'zim qaror qabul qilishim kerakligi haqida uzoq gapirdi. Bularning hammasini, uning aytganiday qilishim kerakligini o'zim ham juda yaxshi bilar edim, lekin onamga bo'lgan mehrmuhabbatim tufayli shunday qilishga majbur bo'layotgan edim.

Nima bo'lishidan qat'i nazar, Serhatning yaxshi inson ekanligi birdan bir yupanchim, tasallim edi, uni sevgiga munosib bir inson sifatida ko'rgandim. Anchadan beri ushbu tasalli bilan o'zimni chalg'itib kelardim. To'yga tayyorgarlik allaqachon boshlangan va to'y kuniga ham sanoqli kunlar qolgandi. Bir kuni ertalab qarasam, onam juda sahar bilan uyg'onib, hamma yoqni tozalashni boshlabdi. Mening ham tezroq o'rnimdan turib o'ziga yordam berishimni istardi va shu xatti-harakatlari bilan meni uyg'otishga harakat qilardi. Baribir, ancha paytdan buyon yaxshi uxmlay olmasdim, tunlari ko'pincha nafas qisilib qolar va shuning uchun uyg'onib ketardim. Biror-bir ish qilishni xohlamasdim, uzlusiz davom etayotgan bir yoqimsiz bir holat va holsizlik butun tanamni qamrab olgan edi. Menimcha, *norozilik bilan, xohish-istikka qarshi qilingan har bir ish mana shunday bo'larbo'lmas charchoqni keltirib chiqardi*.

Ko'zlarimni ochganimda, soat ertalabki yetti edi, to'ng'il-lab-to'ng'illab karavotimdan turdim. Onam gilamlarni yig'ib olibdi, barcha pardalarni tushiribdi, hamma yoq nimqorong'i tozalab yurar edi. Tushgacha onamga ozgina yordam berganimdan keyin yana zerikdim, siqilib ketdim, biroz toza havoda nafas olish uchun tashqariga chiqdim.

Havo shunchalik issiq ediki, bundan ko'nglim battar aynidi. Shu onda kutilmaganda dunyoning butun yorug'ligi ko'zlarimning ichida so'nib ketdi. Hamma yer zulmatga aylandi. Nima qilarimni bilmay, aql-u hushimni yo'qotib, gandiraklab, tentirab yuraverdim. Ko'zlarimni ochganimda eshik oldida kim bilandir gaplashib turgan Serhatga ko'zim tushdi. Onam karavotimning boshida o'tirib, sochlarimni silardi. Vujudim charchoqqa, jazirma issiqa dosh berolmagan bo'lsa kerakki, hushimdan ketgan ekanman... Keyin esa kasalxona palatasida uyg'onganidandan o'zim ham hayratda qoldim. Dorining tanimga kirishi uchun qo'limga sanchib qo'yilgan igna jonimni og'ritardi. Onamni chaqirdim: u boshini men tomonga o'girib, yuzimga qaradi. Peshonamdan o'mdi va ko'z yoshlari bilan sochlarimni hidladi. Demakki, onam juda qo'rqqan, mendan xavotirlangan ekan. Yuzi qizarib ketgan edi... Tomirimga igna orqali kirayotgan dorining tugashiga oz qolganda shifokor yonimga keldi. Menden darhol bir necha xil tahlillar olish zarurligini aytди. Hamshiralarga barcha kerakli tahlillarni topshirganidandan so'ng natijalarini olish uchun ertaga qaytib kelishimiz shartligini aytishdi. Biz ham ularning aytganini qildik. Ertasi kuni tahlil natijalarini olish uchun kasalxonaga bordik, shifokor yana bir qancha tahlillar topshirishimiz shartligini aytди va bizni boshqa bir shifokor oldiga yubordi.

O'sha boshqa bir shifokor mening tahlillarim natijalarini, hisobotlarini o'rganib, tekshirib chiqqanidan so'ng nega shuncha vaqt davomida shifokor ko'riganidan o'tmaganimni so'radi. Bu gaplari bilan nima demoqchi ekanligini hech birimiz tushunmadik. Shifokor shundan so'ng yana biz tushunmaydigan ko'p narsalarni gapirdi. Va gapining nihoyasida, hammamiz tushunadigan tarzda menda yurak yetishmovchiligi kasalligi borligini,

shu kasallik tufayli aziyat chekayotganimni aytdi. Demakki, aslida, nafasim siqilib qolishining ham, kechalari hansirab nafas ola olmay uyg'onib ketishimning ham sababi aslida shu kasalligim ekan, men esa bularning sababini sifatida halovatsizligimni, bezovtaligimni, ko'p o'yashimni ko'rар edim.

Bu xabardan so'ng hayotim xayolimga ham keltira olmaydigan, tasavvur ham qila olmaydigan, taxmin ham qila olmaydigan bir yo'lga kira boshladi. Onamning yashirinchcha, sassiz yig'laganiga guvoh bo'ldim. Axir, hamma ertami-kechmi o'ladi-ku. *Ba'zida onalar farzandlaridan uzoqroq yashashga majbur bo'lib qolishadi.* Kasalligim tufayli juda ham ezilib, hayotdan voz kechar darajada xafa bo'lganim yo'q, lekin hayotning, ilohiy qonuniyatning oqimini onamga tushuntirishga qiynalardim... Dastlab uzoq davom etgan tibbiy ko'riklarim tufayli to'yimiz orqaga surildi, keyin esa 14-noyabr kuni tug'ilgan kunimga kelgan Serhat va uning onasi to'y sanasining uzlusiz orqaga surilayotgani qoldirilgani uchun to'y qilishdan, ya'ni meni kelin qilishdan voz kechganliklarini aytishdi. Biroq men kutilmagan o'rtaga chiqqan bu noxush holat sababli, ya'ni mening kasalligim tufayli ortga qadam tashlayotganlarini bilardim. Shunday bo'lsada, tug'ilgan kunim uchun bundan yaxshiroq "sovg'a" bo'lmasligini tushundim. Shunchaki bir arzimas sabab tufayli turmush qurish arafasida tark etilganim, ehtimol, meni juda ham g'amalamga botirgandir, ehtimol, qalbim o'zim tasavvur qilgandan ham ko'ra ko'proq jarohat olgandir, lekin o'zimni juda katta xotirjamlik va halovatga erishganday his qilardim.

Boshdan o'tgan bu noxushliklar, aslida, o'zim qilgan "duolarimning ijobati" edi. Tubiga tushib qolgan katta bir jarlikdan chiqishni istardim va istagimga yetdim, nihoyat, ozod bo'l-dim. Onam ham boshidan o'tkazgan bu qayg'u-tashvishlar, to'y

arafasida tark etilishim va mening kasalligim tufayli turmushga chiqish haqida og'iz ochmay qo'ydi. Maktabda o'qishlar boshlangani zahoti o'zimni butunlay o'quvchilarimga bag'ishladim.

Yana kitob o'qiy boshladim, yana sevimli mashg'ulotim — fleyta chalishga sidqidildan kirishdim. Go'yoki mo'jizakor bir nafas bilan hayotim o'z maromiga qaytgandek bo'ldi. Hammasi joyida edi... Faqat o'sha noxush kasallikning charchagan, ezilgan qalbimda qoldirgan va ayni paytlarda og'rig'i-yu azobi bilan birgalikda tag-tugi yo'qolib ketgan "sovg'a"sidan tashqari...

Bu "sovg'a" vaqt o'tgan sayin yanada yomonlashib borardi. Kanda qilmay, hech qoldirmay doimo shifokorning ko'rigiga borardik va kasalligimning qay darajada ekanligini, rivojlanayotgan yoki pasayayotganini diqqat bilan kuzatib, tekshirib borardik. Ammo vaqt o'tgan sayin ahvolim yaxshilashib borayotganligi haqida biror-bir gap-so'z yo'q edi. Haftada ikki marta maktabdan chiqishim bilan to'g'ridan to'g'ri kasalxonaga borish men uchun odatiy holga aylangan edi. Seshanba va juma kunlari doimo kasalxonaga borardim.

O'sha kun ham tibbiy ko'rikka boradigan kunlarimning biri edi. Ertalab har doimgidan kechroq uyg'ongandim, darsga kech qolmaslik uchun javondan qo'limga ilingan oq ko'ylakni kiyib, shoshilib uydan chiqdim. Dars boshlanish vaqtiga arang yetib keldim. Darsdan keyin yana to'g'ri shifoxonaga bordim. Kun bo'yi hech narsa yemaganim uchun o'zimni holsiz his qillardim.

Shifokor bilan ishim tugagach, kasalxona oshxonasiiga bordim va bir nimalar olish uchun oshpazlar peshtaxtasi oldiga o'tdim. "Nima yesam ekan?" — deya taomlarni bir-bir kuzatib turar ekanman, mendan oldinda turgan qora charm kurtkali odam biridan ortiga o'girilib, men bilan to'qnashib ketdi. Qo'lidagi patnis ustidagi hamma narsa ustimga to'kilib ketdi. Oppoq ko'ylagim-

ning iflos bo'lganligiga afsuslanaymi yoki issiq sho'rvaning tanamni kuydirib og'riq bergeniga ranjiymi — bunisini bilmadim. Birdan asabiylashib ketdim. U odam esa o'zini xuddi arzimas narsa bo'lgandek, e'tibor berishga, parvo qilishga arzimaydigan kichik bir ko'ngilsizlik bo'lganidek tutdi va zaif bir ovoz bilan shunchaki: "Kechirasiz!" — deyar-demas, asabiyligimga chiday olmay portladim:

— Bu qanaqa kechirim so'rash?.. — deya baqirdim. — Hamma yog'imni iflos qildingiz-ku, ustiga-ustak issiq sho'r-vangiz tanamni ham kuydirdi. Siz esa shunchaki kechirim so'rayapsizmi?..

— Kechirasiz, xonim, ortimda siz borligingizni bilmay qolibman... Non olishni unutibman, ortimga o'girilayotganimda kutilmaganda shunday bo'lib qoldi.

— Nima noningiz qochib ketayotganmidi? Biroz e'tiborli bo'lsangiz bo'lmasmidi? Endi nima qilaman? Ko'ylagimning iflos bo'lman joyi qolmadidi-ku!..

— Istanqiz, buning badalini to'lashga tayyorman, zararingizni o'rmini to'ldiraman, lekin iltimos, endi baqirmang, hamma bizga qarab turibdi. Haqiqatan ham, juda afsusdaman...

Ko'zimning uchi bilan atrofga qarar ekanman, haqiqatan ham, hamma qilayotgan ishini butunlay to'xtatib, ovqat yeyishni bas qilib bizga qarab turgandek tuyildi. Shunday joyda baqir-chaqir qilganimni o'ylab, xijolatdan yer ostiga kirib ketay dedim. Axir, bu shunchaki bir noxush holat edi. Pashshadan fil yasaganday holatga tushdim. Oddiy bir ko'ngilsizlikni shunchalar bo'rttirishning nima keragi bor edi? Qilgan ishimga o'zim ham hayron qoldim.

— Menga biror-bir narsaning badalini to'lashningizni yoki zarar-paranimni qoplastingizni xohlamayman va boshqa gapi-

rishni istamayman. Shunaqasi ham yetarlicha baqir-chaqir qilib, uyatdan yer ostiga kiradigan ahvolga tushdim, — dedim va tezda oshxonadan chiqib ketdim.

Tashqarida yomg'ir yog'ishni boshlagan edi. Maktab va uyim orasidagi masofani piyoda bosib o'tishim mumkin edi, lekin shifoxonaga ikkita avtobus bilan kelardim. Kiyimlarim alla-qachon jiqqa ho'l bo'lgandi, yomg'ir ostida avtobus kutib o'tirmay taksiga o'tirib, uyga qaytdim.

Onam ust-boshimni bir ahvolda, o'zimni esa parishon holda ko'rар-ko'rmas men bilan qandaydir noxush voqeani sodir bo'l-ganligini o'ylab qo'rqib ketdi, bo'lgan voqeani aytib berganim-dan keyingina tinchlandi. Kasalxonada bo'lgan voqeani eslasam, qilgan ishlarimdan kulgim qistaydi. Lekin o'sha odam bexosdan qilgan ishidan juda xijolat bo'lib, uyalganidan kechirim so'ragan edi. Odatda hech kimga qo'rs va qo'pol muomala qilmashdim, lekin kasalxona oshxonasida negadir o'zimni boshqara olmay o'sha odamga juda ham qo'pol muomala qilgandim. Ehtimol, o'sha paytda meni ko'rganlar meni naqadar tarbiyasiz bir ayol sifatida tasavvur qilishgan bo'lsa kerak. O'sha voqeani qachon eslasam, qilgan ishimdan ham uyalardim, ham pushaymon bo'lardim, ham o'z ustimdan kula boshlardim.

Men bir necha hafta davomida kasalxonaning oshxonasiga kirmaslikka qaror qildim. O'sha voqeani unutishni istardim. Bir oy davomida har gal kasalxonaga borganimda imkonim boricha oshxonadan uzoq turardim. "Meni va o'sha kuni bo'lgan voqeani endi hech kim eslamaydi", — deb o'zimni o'zim yupatardim. Seshanba kuni eng yuqori sinf o'quvchilariga cholg'u asboblari haqida mashg'ulot o'tkazildi. Fleytamni ham o'zim bilan olib bordim, chunki o'quvchilarimni o'zim juda yaxshi ko'radigan va yaxshi chala oladigan cholg'u asbobim — fleyta bilan tanish-

tirmoqchi edim.

O'quvchilarim ham fleytani juda yaxshi ko'rib qolishdi...

Darsdan keyin yana kasalxonaga bordim. Tibbiy ko'rikdan so'ng kasalxona oshxonasiiga kirib bir piyola choy oldim. Deraza yonidagi bo'sh stolga o'tirdim. Kitoblarim va fleytamni ham stol ustiga qo'ydim. Ko'p o'tmay, kimningdir menga: "Salom..." — deganini eshitdim.

Ortimga o'girilib qarasam, o'tgan oy shu yerda mening ustimga sho'rvasini to'kib yuborgan odam qarshimda turardi... O'sha kungi g'azabda bo'lganligim tufayli bu odamning ko'rinishiga e'tibor bermagan ekanman. Endi e'tibor berib qarasam, uning ovozi go'zal, soqollari qalin, qo'ng'ir sochlari ostidan ko'rinaldigan ko'zлari jigarrang tusda edi.

— Salom, — dedim men ham.

— Meni esladingiz, shunday emasmi? — dedi shirin tabassum bilan. — O'sha kuni men tufayli yuz bergen noxush hodisa uchun, darhaqiqat, juda afsusdaman, yana bir bor chin dildan uzr so'rayman.

— Hechqisi yo'q. Aslini olganda o'sha kungi holat baqir-chaqir qiladigan darajadagi ahamiyatga arzirli noxush vaziyat emas edi, lekin o'sha kuni o'zimni negadir juda ham yomon his qilayotgandim. Sizga ortiqcha gapirib yuborganimdan keyin o'zim ham qilgan ishimdan uyaldim. Buning uchun men ham uzr so'rayman.

— Demoqchimanki... Nahotki, bu fleytani o'zingiz chalsangiz?..

— Ha. Men musiqa o'qituvchisiman, bugun bu fleytani darsga olib borgandim. Buning qanday ajablanarli tomoni bor? Bir nima bo'ldimi?

— Yo'q, hech narsa bo'lgani yo'q. Men ham fleytaning

navosini juda yaxshi ko'raman, qiziqqanim uchun, e'tiborimni tortgani uchun so'radim, xolos. Qiziquvchanligim uchun yana bir bor uzr so'rayman, noto'g'ri tushunmang, iltimos. Meni tushunganingiz uchun ham katta rahmat. Yaxshi qoling.

— Sizga ham rahmat, kuningiz xayrli o'tsin...

Bu qisqa suhbatdan so'ng o'girilib, eshik tomon to'g'ri keta boshladi. Bema'ni xayollarga borayotganimni bilsam-da, bu odamni xayolimda beixtiyor Serhat bilan solishtirdim. Nima uchun uni Serhat bilan solishtirayotganimni o'zim ham bilmasad, beixtiyor qilardim. Bu odamning nigohlari Serhatning yashil ko'zlariga qaraganda ancha iliqroq edi... O'tirgan joyimdan odamni kuzatishda davom etar ekanman, u og'ir qadamlari bilan kasalxona oshxonasidan chiqib ketdi.

Juma kuni yana kasalxonaga borganimda kirish eshigining chap tomoniga yaqindagina kimdandir tushib qolganligi ko'rinish turgan chiroyli elektron tasbehga ko'zim tushdi. Uni olmoqchi emasdime, lekin bog'ichiga tikilgan arabcha yozuvli naqshlarini ko'rib, yerda qoldirishga ko'zim qiymadni. Dastlab uni shifoxona-ning qabulxonasida qoldirishni o'yladim, lekin u yerda hech kim ko'rinnadi. Qaytishda yana qabulxonaga kirib o'tishni o'ylab beshinchi qavatga ko'tarilish uchun liftga chiqdim. "Balki, tas-behni egasi ko'rib tanib olar", — deya uni o'ng qo'limning kich-kina barmog'iga osib qo'ydim. Liftga endigina chiqqan edimki, yana boshqa birov shosha-pisha liftga kirib olishga muvaffaq bo'ldi. Eh, bu yana o'sha odam edi! Go'yoki meni ta'qib etayot-gandek edi, qachonki bu yerga kelsam, qarshimda paydo bo'laveradi. Meni ko'riboq salom berdi, men ham bunga javoban bosh irg'ab alik oldim. Lift yuqori qavatlarga ko'tarila boshlaganida, u jilmayib:

— Ishlamaydi, — dedi.

— Tushunmadim? — dedim.

— Liftda tasbeh ishlamaydi, — dedi biroz keyinroq.

Bu shunday qattiq hazil ediki, kulmaslik uchun o'zimni zo'rg'a ushlab turardim. *Ba'zan inson chin yurakdan istagani uchun o'zini to'xtatmay, hech bir taqiqlarga e'tibor bermay bemalol qahqaha otib kulishga ham ehtiyoj sezadi. Naqadar g'alati-ya, hattoki, ba'zida bema'ni, ahmoqona va aslo kulgili bo'limgan voqealar ham kulgingni qistatadi.* Men esa bu vaziyatda hattoki yuz ifodamni ham o'zgartirmay: "Juda kulgili", — dedim-u liftdan tushdim.

Shifokor xonasiga kirganimda, yuzimda o'zining izini qoldirgan tabassumimni ham sezmay qolibman.

— Elif xonim, menimcha, kayfiyattingiz juda yaxshi. Alloh mana shunday kulib yurishingizni yo'q qilmasin, — deya meni qarshiladi doktor Haluk.

— Aslida olganda, Halukbey, men uchun bu kun ham boshqa kunlar qatori oddiy bir kun? Yoki, haqiqatan ham, siz ta'riflaganday qiyofaga egamanmi?

— Men o'z bemorlarimni yaxshi bilaman. Siz shuncha paytdan beri bu eshikdan birinchi marta tabassum bilan kirib keldingiz. Har safar kelganingizda hayotdan to'ygan kayfiyat va g'amgin qiyofada bo'lardingiz. Menimcha, mana shu kayfiyattingiz va qiyofangiz juda ajoyib, buni aslo o'zgartirmang, — dedi jilmayib.

Uyga kelganimda esa onam shifokorning gaplariga o'xshash gaplarni aytdi. Maktabdagи kasbdoshlarim ham xuddi shu fikrda edi. Faqat o'zim so'nggi paytlarda menda qanday o'zgarishlar bo'lganini tushuna olmadim. Aslini olganda, hayotimda hech narsa boshqacha emas, o'zgargan emas edi. Lekin ba'zida shifoxonaga tibbiy ko'rik uchun boradigan kunlarimni sabrsizlik

bilan kutayotganim o'zimga ham g'alati tuyu-lardi.

Kasalxonaga navbatdagi tibbiy ko'rik uchun borganimda uni ko'ra olmadim. Keyingi safar borganimda uni ko'z qirim bilan yon-atrofdan qidirdim, lekin u yo'q edi. Atayin tibbiy ko'rik ishlarimni cho'zish va kasalxonada ko'proq vaqt o'tkazishga harakat qilardim. O'zim ham o'zim bilmagan, sezmagan holda o'zimga notanish insonni kuzatib, ta'qib qilib yurardim. Ba'zan: "Nimalar qilyapsan, Elif, ahmoqliq qilma, kulgili ahvolga tushma!" — derdim o'zimga o'zim. Bu holat kamdan kam bo'lса ham, o'y-xayolimni, aql-hushimni egallab olgandi.

Uni navbatdagi tibbiy ko'rik uchun kasalxonaga borganimda ko'rdim. Devorga suyanib turgan holda bir shifokor bilan gaplashardi. Uni ko'rgan zahoti o'zimda ta'riflab bo'lmas bir hayajonni his qildim. Yonoqlarimdagи iliqlik asta-sekin tomon-g'imga, so'ng bo'ynimga, undan keyin esa butun badanimga yoyila boshladi.

Qalbimda shunday bir ajoyib, go'zal hayajonlar nish ura boshladiki, bunday hayajonlarga oldinlar aslo duch kelmagan-dim. Bu hayajonlar, bu hissiyotlar olti yoshlik paytlarimda, ya'ni ishdan uyga qaytgan otamni xursandchilig-u sevinch bilan qu-choqlab olganimda his qiladigan tuyg'ularimga o'xshardi, aslida. Bu tuyg'ular musiqa o'qituvchiligi kasbim bo'yicha birinchi topshiriqni olganimda his qilgan baxtiyorligimga o'xshardi. Ehtimol, bu his-tuyg'ular qalbim shu paytgacha his qilgan barcha hissiyotlardan ham yuqoridir. U tomonga qarab to'g'ri yura boshladim, zinapoyadan sekin chiqdim va unga tabassum bilan salom berdim. U ham tabassum bilan alik oldi. Shu tarzda yel-kanlarimni keng yoygan holda va hech bir hadik-qo'rquvsiz o'zimga notanish bo'lgan bepoyon dengizlar bag'riga yo'l ol-gandim.

*Qalblarni o'zaro bog'laydigan kuchli sevgi
rishtasi insonlarning kamchiliklarini,
kutilmaganda, bilmasdan qilgan xatolarini
berkitadi va, nima bo'lishidan, nima qilishdan
qat'i nazar, barcha kamchiligi-yu xatolarni
kechiradi. Chunki mehr, marhamat va
kechirimlik sevgining tabiatida bor.
Chin qalbdan, samimi sevmagan va sevilish
qanday tuyg'u ekanligini bilmaganlar bu
tuyg'uni his eta olmaydi, anglay olmaydi...*

— IV —

Kasalxonada u bilan bo‘lgan “tasodifiy uchrashuvlarimiz” vaqt o‘tishi bilan doimiy salom-alik qilib yurishga, keyin esa bir-birimizga tabassum qilishga, oxir-oqibat esa, butunlay boshqa-chacha tuyg‘uga aylandi. U har doim kasalxonaga yolg‘iz kelardi. Ilk uchrashgan kuniimizdan buyon uni doimo bitta shifokor bilan suhbatlashayotganini ko‘rdim. Aslini olganda, uni aslo tanimasdim. U bilan bir-ikki jumalilik suhbatlardan u yog‘iga o‘tmaganman, hattoki o‘zimni yaxshi his qilishimga sabab bo‘lgan bu yigitning ismini ham shu paytgacha bilmasdim. Oxirgi paytlarda u bilan yaqinroq tanishishni juda xohlardim, lekin, tushuning, birinchi qadamni men qo‘ya olmas edim va u ham men bilan kulimsirab salomlashishdan u yog‘iga o‘tmas edi...

Seshanba kuni tibbiy ko‘rikdan so‘ng shifokorim:

— Sizni juma kuni yana bir bor tibbiy ko‘rikdan o‘tkazaman va o‘sha kungi tahlil natijalariga ko‘ra, bundan buyon har oyda bir marta tekshiruvdan o‘tishingiz yetarli bo‘lishi mumkin.

Uning bu gapi sog‘ligim haqida juda yaxshi yangilik edi. Demakki, hech bo‘limganda, hozircha qo‘rqadigan biror-bir xavotirli kasalligim qolmagandek tuyuldi. Shunday bo‘lsa-da: “Bu yangilikdan xursand bo‘ldim”, — deya olmayman. Go‘yoki o‘zimning bir parchamni shu yerda qoldirib ketyapman-u, qaytib

kelganimda esa uni boshqa hech qachon topa olmaydigandek his qillardim o'zimni.

Juma kuni kasalxonaga borganimda uni ko'ra olmadim. Doktorim aytgan tahlillarni topshirgach, bir nima yeb olish uchun kasalxonaning oshxonasida o'tirib vaqt o'tkazardim. Bir necha daqiqadan so'ng uning eshikdan kirib, to'g'ri men tomon kelayotganini payqadim, lekin uni ko'rmaganga olib, oldimdag'i darslikka diqqatimni qaratishda davom etdim. U esa to'g'ri yonimga keldi va mayin ovozi bilan:

— Salom... — dedi.

Men sekin boshimni ko'tarib:

— Salom... — dedim.

U esa bir zum gangib qoldi, so'ng sochlari orasidan peshonasi tomon yo'l olayotgan bir necha tomchi terni kaftining orti bilan artdi va:

— Bugun uchrashmadik, — dedi u chuqur nafas olib. — Xafa bo'lmang, iltimos. Qalaysiz, sog'lig'ingiz yaxshimi?

Bir zum nima deyishni bilmay qoldim. Nega mendan uchrasha olmaganimiz uchun uzr so'ranganini tushunolmadim.

— Rahmat, yaxshiman! Demoqchimanki, aslida, uchrashishimiz kerakmidi — sizni tushuna olmadim. Nega sizdan xafa bo'lishim kerak? — dedim hayron bo'lib, to'g'rirog'i, o'zimni hayron bo'lganday ko'rsatib.

— Odatda shifoxonaga har kelganimizda uchrashardik, salomlashardik-ku, shuning uchun shunchaki aytdim-qo'ydim. Aytgancha, mening ismim — Yusuf, — dedi u chap qo'lini cho'zgancha jilmayib.

“Chap qo'li bilan salomlashish orqali meni masxara qilyapti”, — deb o'ylaganimdan beixtiyor qoshlarim chimirilib, o'zimni ushlab tuta olmay to'nimni teskari kiyib oldim.

— Shunaqami? Naqadar ajoyib! Xo'sh, siz tomonlarda odamlar bilan ko'rishish uchun chap qo'l uzatiladimi? Siz tomonlarda odat shunaqami? — dedim jahl bilan.

Bir zumda uning yuzi-ko'zi o'zgarib, kayfiyati tushib ketganini ko'rdim. Shundan keyin boshini yerga egib o'ng qo'lini uzatdi. Go'yoki beayov, qattiq bir jangdan so'ng g'olib bo'lgan qo'mondonning g'ururi bilan men unga qo'limni cho'zar ekanman, uning o'ng qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari o'rni-da protez barmoqlar borligini ko'rib qoldim. Boshimdan to oyog'imgacha qaynoq suv quyilganday bo'ldi. Aytgan gapimdan va qilgan ishimdan uyalganimdan yer ostiga kirib ketay dedim. O'zim ham sezmagan holda, istamagan holda beixtiyor uning zaif joyiga bolta urgandim. Oxir-oqibat, bu aybimni biroz yuvish maqsadida go'yoki barmoqlarining protez ekanligini ko'rmagan-day, bilmaganday, samiriy bir tarzda qo'lini qisib:

— Mening ismmim esa Elif. Tanishganimdan xursandman,
— dedim.

Agar istasa, shu yerga biror bir stul keltirib o'tirishi mumkinligini aytganimda quvonchdan charaqlab turardi.

U tinmay mening kasalligim haqida surishtirardi, uzlusiz savollar berardi. Tabiiyki, men ham u haqida ko'proq bilib olishga qiziqayotgandim, menda savollar bor edi.

— Qani menga, o'zing haqingnda ham, gapir-chi, Yusuf? Mening ahvolimni-ku bilib olding, men shunaqa kasalman. Lenkin sen nega doimo kasalxonadasan? Qani, shuni ayt-chi menga?

— Aslini olganda, shifoxonaga doimo qatnamayman. Vaqtı-vaqtı bilan qo'limni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish uchun kelardim. O'ng qo'limdan protez barmoqlarimga hali-hanuz to'la-to'kis ko'nika olmadim. Shifokor Bulentga katta rahmat, u menga har tomonlama madadkor bo'ldi, keyin esa u bilan do'st

bo'ldik. Ba'zan-ba'zan uni ko'rishga, u bilan suhbatlashishga kelib turaman.

— Noto'g'ri tushunma, iltimos, aslida, qo'lingga nima bo'lgan?

— Men muhandis-mexanik edim... Yaqinda baxtsiz hodisa yuz berdi, keyin esa kasbimdan ko'nglim sovib ketdi. Ishimni tashladim. Rostini aytadigan bo'lsam, hayotda omadli bir inson ekanligimni ayta olmayman.

— Xo'sh, hozir nimalar qilyapsan?

— Bizning Rifat ismli bir og'amiz bor, uning ajoyib bir ko'ngilochar maskani bor. Biz u yerda har hafta jonli musiqa chalamiz. Sen jonli musiqani yoqtirasanmi?

— Nima deganing bu?.. Kim ham jonli musiqani yoqtirmaydi? Tabiiyki, yoqtiraman... — dedim.

Shu haqida gaplashar ekanmiz, u meni keyingi yakshanba oqshomida jonli musiqa chalinadigan joyga taklif qildi. Bu taklif men uchun aslo qo'ldan boy bermasligim kerak bo'lган bir imkoniyat edi. Yakshanba kuni sabrsizlik bilan, to'rt ko'z bilan kuta boshladim.

O'sha kuni eng chiroqli, eng go'zal ko'ylagimni kiydim, eng xushbo'y atirimni sepdim. Men Yusufni yoqtirardim, lekin u ham meni yoqtirish yoki yoqtirmasligiga ishonchim komil emas edi. Shuning uchun men yanada chiroqli ko'rinish uchun qo'lim-dan kelganicha qildim. Hozirlik ko'rib bo'lib, u aytgan joyga bordim. Bu maskan har bir devori turli xil haqiqiy, asil san'at asarlari bilan bezatilgan nimqorong'i joy ekan. Odamlar bilan gavjum edi. Kirish eshidigiga ro'parama-ro'para joylashtirilgan kichik sahnasi ham bor edi. Ichkariga kirar ekanman, sahnada jonli qo'shiq kuylayotgan Yusuf bilan ko'zim-ko'zimizga tushdi. U qo'shig'ini kuylashda davom etgan holda menga sahna yonidagi

bir kishilik kichkina stolga ishora qildi. Bu yerga kelishimga ishonchi komil ekanligi men uchun alohida stol olib qo'yanidan ma'lum edi.

Hurkak qadamlar bilan oyoq uchida yurib u ko'rsatgan stolning yoniga bordim va u yerda turgan bir stulga o'tirdim. U shunchalar ajoyib tarzda kuylardiki, hamma uning qo'shiqlariga qoshilib, jo'r bo'lib kuylardi. To'g'ri, uning ovozi yoqimli ekanligini suhbatlarimiz orqali allaqachon bilgandim, lekin bunchalik yaxshi qo'shiq aytishini aslo xayolimga ham keltira olmagandim, tasavvur ham, taxmin ham qila olmagandim. Uning aytayotgan qo'shig'ini tinglar ekanman, ovozining bunchalar ajoyibligidan hayratda qoldim. U ko'z o'ngimda sahnada yulduzdek porlab turardi. Ustiga-ustak, bu qiyofasi, bu ovozi bilan meni juda hayajonga solardi. Konsert nihoyasida u meni eski rusumdag'i mashinasida uyimga olib bordi. Yo'l davomida undan-bundan gaplashib ketdik.

— Qo'shiq kuylash senga muhandislik kasbidan ham ko'ra ko'proq foyda keltirayotgan bo'lsa kerak, — dedim.

— *Har kim nasibasida bor rizqini yeydi, — dedi o'ziga bo'lgan ishonchga amin bo'lgan holda. — Lekin rizq hech kimning oldiga tayyor holda kelmaydi. Agar hayotdan nimadir olishni xohlasang, uning uchun harakat qilishing kerak, mehnat qilishing kerak... Albatta, bu yo'lda qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga duch kelasan. Lekin menga ishon, to'siqlarni yengib o'tganiningdan keyin qalbingizni to'ldiradigan huzurhalovat, quvonchni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi, bebab-hodir, tengsizdir.* Masalan, odamlar sendan ishingni yaxshi ko'rish-ko'rmasligingni so'ramaydi, aksincha, bu ishdan qancha foyda olayotganiningni, qancha maosh olayotganini, nimalarga erishganing yoki ishingda sug'urtalangan yoki sug'urtalanma-

ganligingni so'rashadi. Soddarоq qilib aytganda, qanday shart-sharoitlar asosida yashayotganing, baxtli yoki baxtsiz ekanliging, nimalarni boshingdan o'tkazganing, nimalarga chidashga majbur bo'lганing odamlarning parvoyiga ham kelmaydi, bularni xayoliga ham keltirmaydi. Men bu odamlar kabi o'ylamayman. Agar qilayotgan ishingni sevsang, albatta, muvaffaqiyatga erishasan. Muvaffaqiyat esa o'zining ortida baxtiyorlikni keltiradi. Axir, hamma ham baxtli bo'lish uchun yashamaydimi? Men ham o'zimni xursand qiladigan, huzur-halovat beradigan ish bilan qiziqaman, shu ish bilan shug'ullanaman. Ishon menga: *o'zing yoqtirgan ish bilan shug'ullanish tufayli kam daromad topish o'zingga yoqmaydigan ish bilan shug'ullanib baxtsiz hayot kechirishdan ko'ra qadrliroq, qiymatliroq va afzalroq. Odamlar boqiy yashay olmasliklarini anglab yetsalar edi, kelajakni o'ylab emas, bugungi kuni bilan baxtli hayot kechirish uchun yashashga urinardilar...* Men boqiy yashamasligimni bilaman. Shuning uchun ham nafas olgan har bir lahzalarimni quvonch-u surur, xursandchilig-u xushkayfiyat bilan o'tkazishga harakat qilaman...

Yusufning bu fikr-mulohazasiga nisbatan hurmat hissini tuydim, darhaqiqat, uning gapi to'g'ri edi, u haq edi. Misol uchun, men o'qituvchi bo'lмаганимда edi, qilishga majbur bo'ладиган boshqa biror bir kasb bilan baxtli bo'ла olmas edim. Uyimga yaqinlashar ekanmiz, u yana uchrashishimiz uchun telefon raqamimni oldi. Shunda angladimki, unga nisbatan his qilgan, lekin hozircha nomini o'zim ham bilmaydigan tuyg'ularim javobsiz emas ekan, ya'ni u ham menga nisbatan shunday tuyg'ularga sohib ekan...

Biz har kuni vaqtimiz bo'lishi bilan telefonda suhbatlashardik. Imkoniyat bo'lган zahoti uchrashib, bir-birimizni yanada

yaqinroq tanib, bilib olishga harakat qilardik.

Hafta oxirida birgalikda ovqatlanish uchun bir restoranga bordik. U ovqatdan keyin ofitsiantdan koloniya¹ so'radi. Kasalligim aniqlanishidan oldin hushimdan ketgan paytimdan buyon yonimda kichkina shisha har doim koloniya olib yurardim. Darrov sumkamni qo'lga olib ochdim-da, o'sha koloniya shishasini chiqardim va hazil tariqasida:

— Buni sen uchun bag'rimga bosib samodan olib keldim, hidla, yengil tortasan... — dedim va koloniyanı uzatdim. U tabassum bilan kaftini oshib, she'r o'qiy boshladi:

Kunlar go 'yoki tarang tortilgan bir kamon kabidir:

Buni unutma!

Bahor onamiz ro 'molidagi gul — rangi somon kabidir:

Buni unutma!

Men esa sening har joyingdan bo 'sa oladurmen:

Buni unutma!

— Zekai O'zger she'ridan, — dedi keyin...

Qalbimni titratgan holida yoddan aytgan bu she'rini maftun bo'lib qolar darajada tingladim. Mening eng sevimli she'rimni yoddan bilishiga juda ham hayron bo'lgandim. Ha, o'zimga yoqqan bu odamni shu ondayoq, haqiqatan ham, sevib qolgandim... *Ishq-muhabbat juda ham g'alati tuyg'u...* *Hatto shunchalar g'alatiki, hattoki mayda-chuyda narsaning ichiga ya-shirinib yotadi, kelib o'zini topishingizni kutadi. Ba'zan bir nigoh tufayli uni topasiz, ba'zan esa kutilmaganda kimdir qo'lingizdan ushlashi orqali topasiz...* *Gohida she'r misralari*

¹ **Koloniya** — tarkibida limon, lavanta, tamaki kislotasi bo'lgan spirtli antiseptik maqsadlarda ishlatalidigan modda.

orasiga yashirinadi. O'ylaymanki, ishq ko'pincha ikki tomon ham birgalikda go'zal lahzalar ni o'tkazishida va ikki tomon ham bir narsani seva olishida yashiringan... Men Yusufni hayronlik va hayratlar ichida kuzatar ekanman, u she'rini tugatib, gapida davom etdi...

— Sen bu she'rni bilarmiding? — deya so'radi.

— Hamma go'zal narsalar bilishga arziydi... Qolganlarini esa inson o'zi bilmagan, sezmagan holda unutadi. Men juda ko'p kitoblarni o'qiganman, hattoki hech mubolag'a biblioterapist ekanligimni aytta olaman. Zekai O'zgerni ham yaxshi bilaman. Uning she'rlarini juda yoqtiraman.

— Bilimsizligimni kechirasan-u, lekin biblioterapist so'zini nimani anglatadi, qanday kasb, kimlar bu ish bilan shug'ullanadi? — deya ham qiziqib, ham hayajon bilan so'radi.

Uning hayajoniga sherik bo'lish orqali biblioterapist kasbi ni bilganimcha tushuntirishga harakat qildim.

— Qisqacha qilib aytganda, to'g'ri tanlangan kitob o'qish orqali davolanish usuli... Demoqchimanki, *kitob o'qish orqali ba'zi muammolarni yengib o'tishing mumkin, xuddi davanish orqali kasallikni yengganingdek. Masalan, chiqa olmaydigan bir ruhiy muammoga duch kelganimda, o'zimni o'zim boshqara olmay, nazorat qila olmay qolganimni bilsam yoki muammodan chiqish yo'lini topolmasam, kitoblardan panoh topaman, ular orqali sokinlashaman, tinchlanaman. Chunki kitoblar insonni xafa qilmaydi, ezmaydi, azoblamaydi, tush-kunlikka tushirmaydi... Kitob qanchalik yomon bo'lsa ham, o'sha kitobning yozilish maqsadini topsang, hech bo'lma-ganida, ichidan o'zingni yaxshi his qilishingga sabab bo'ladi-gan bir jumlani topasan.*

— Bu haqda birinchi marta eshitishim. Rostini aytadigan

bo'lsam, kitoblarning bunchalik katta ahamiyatli, foydali ekanligi haqida biror-bir fikr-mulohazam yo'q edi. Sen kitoblar juda foydali va ahamiyatli ekanligini aytyapsan, demakki, shunday ekan.

— *Ba'zida inson bitta jumлага bo'lsa ham ehtiyoj sezadi va o'ziga zarur bo'lgan o'sha bir jumlanı topganida, hayoti o'zgara boshlaydi. Har bir kishi ba'zida o'zini nochor, chorasiz his qilishini bilasan. Shunday paytlarda suyanadigan bir tog' izlaymiz, bir imkoniyat, umid qidiramiz. Ko'pincha tashqi olamdan izlab topa olmagan, tashqi dunyo bera olmagan mo'ji-zakor so'zlarni senga kitob bera oladi.* Masalan, otamdan ayrilgan paytlarim go'yoki qalbimning bir parchasi pichoq bilan kesib olinganday bo'lgandi. O'sha paytlarda faqat kitoblardan tasalli, yupanch topishga harakat qilardim...

Otasiz qolgan, otasi tomonidan qabul qilinmagan, yoki otasi tomonidan tark etilgan qizlarning his-tuyg'ulari juda ham murakkab, alg'ov-dalg'ovdir, ularni tushunish juda ham mushkul. Shunday paytlarda o'zingni galangdan ajralgan qushdek his etasan. Ustingda ko'm-ko'k osmon bor, lekin qanotlarining yo'q... Qanotlarining bo'lishi mumkin, lekin uchishga jur'ating, jasorating yo'q... Uchishga jur'ating, jasorating bo'lishi mumkin, lekin ortingda seni suyab turuvchi hech narsang yo'q... Ha, aynan mana shunday qizlar sevgan insonlarning qalbidan nafaqat sevgini, otaning mehr-muhabbatini ham izlaydi. Bu tushuntirish bilan to'ldirib bo'lmaydigan bo'shliq, ulkan bir yetishmovchilikdir... Bilasanmi, sen bilan tanishgunimcha doimo qanotlarimni berkitib yurganman. Kimdir qanotlarimni sindirib qo'yishidan qo'rqardim. Ammo bundan keyin oyoqlarim yerdan uzilib qolsa ham, meni qo'rqitmaydi. Chunki endi mening ham bir ishonadigan odamim bor. Sen bor-

san... — dedim.

Bu so'zlarim, aslini olganda: "Men seni sevaman..." — degan ma'noni anglatardi. Undan kutayotgan so'zlarimni aytishi uchun yo'l ochishga harakat qilardim. *Ba'zan his qilgan tuyg'ularingizni aytalmasiz, lekin bu tuyg'ularingizni boshqa bir yo'l bilan anglatishga harakat qilasiz*, men shunday qilayotgandim... Lekin Yusuf yoki mening nima demoqchi ekanligimni anglamayotgandi, yoki o'zini anglamagandy tutardi.

Kunlar shu tarzda o'tib ketaverdi. Men esa har kecha uyqua ga ketish oldidan: "Ertaga ichimdagi his-tuyg'ularimni Yusufga aytaman", — deya o'zimni hozirlardim. Ko'zguga qarab tinimsiz shu gaplarni aytishni mashq qilardim. "Men qanday qilib yanada sevimli yoki sevgi bilan to'lib toshgan, yoqimli yoki jozibali qiz bo'lismim mumkin?" — deya ko'zgudagi aksim bilan suhbatlashardim. Sochlarmi qanday bo'lishi, ko'zlarim qanday bo'lishi kerak?.. Har oqshom o'sha mashqni bolalarcha hayajon bilan qayta-qayta takrorlardim. Lekin shu paytgacha na men shuncha tayyorgarliklar bilan qalbimdagи tuyg'ularni aytalma oldim, na Yusuf mening imoli, nozik so'zlarimning ma'no-maqsadini angray oldi...

Vaqti-vaqt bilan jur'at-u jasoratlarimni yig'ib, o'zim nimalarni his qilayotganim haqida unga kalavaning uchini tutqazar dim, imo-ishoralar qilardim. Baribir, meni tushunmayotganini ko'rib: "Shunchalar ham ahmoqmisan, qani, angla, senga bir nimalarni aytmoqchiman!" — demoqchi bo'lganimday qizishib ketardim.

Shanba kunlarining birida kechqurun soatlab telefonda gaplashdik. Sevgi mavzusidan boshqa har narsa haqida aytadigan gapimiz bor edi, sevgidan boshqa hamma narsa haqida gaplashdik. Go'yoki yillar davomida suhbatlashishga chanqoq ikki ki-

shidek sokin, tinch o'tgan yillarimizning har bir lahzasi to'g'risida suhbatlashardik. Yusuf suhbat yakunida ertaga kechqurun sahnaga chiqishini aytди. Mening ham borishimni iltimos qildi. Rozi bo'ldim. Ertasi kuni kechqurun pardoz-andoz qilib, hozirliklar ko'rib, qo'shiq aytadigan joyga bordim. Lekin bu safar biroz barvaqt bordim. Yusufni sahnaga chiqishidan oldin ko'r-dim. Meni eshik oldida kutib oldi, baxtiyorligi ko'zlaridan sezilib turardi. Qo'lidagi yarmi qolgan sigaretani yerga tashladi-da, hayajonlanib: "Qani, ichkariga marhamat..." — dedi va oldimda yo'l boshladi. Meni yana sahna yonidagi o'sha kichkina stol yoniga o'tqizdi. Keyin esa menga musiqa notalari yozilgan bir qog'ozni uzatdi va:

— Axir, sen musiqa o'qituvchisisan. Bu notalarni fleyta bilan chala olasanmi? — deya so'radi.

— Chala olaman... — dedim.

"Lekin nega shunday qilishimni xohlayapsan?" — deyishimga ham imkon qoldirmay:

— U holda, juda yaxshi... — dedi-yu, yonimdan turib ketdi. Ochig'i, bu notalarni fleytada chala olish-olmasligimga nega qiziqqanligini anglamagan edim.

Taxminan yarim soatdan keyin sahnaga chiqdi... Tanaffus paytida oldimga kelib:

— Tayyormisan, Elif? — deya so'radi.

— Nimaga tayyor bo'lishim kerak?..

Lablarini tishlab, chap qo'lini musht qilib:

— Diqqat qil, e'tiborli bo'l, bu ishing afsonaga aylanadi...

— dedi kulimsirab.

Demakki, boyaga bergen qog'ozda yozilgan notalarni sahnada fleyta orqali chalishimni istayotganini angladim. "Men buni qilmayman", — deyishimga ham imkon qoldirmay, sahnaga qaytdi.

Axir buni qanday qila olaman?.. Bu yerdagi odamlar bilan maktab o'quvchilari aslo bir xil emas-ku!.. Kap-katta odamlar orasida endi nima qila olaman?.. Bir lahza juda hayajonlandim. "Nima bo'lsa bo'lsin-u, lekin o'ylaganimdek bo'lmasin, meni sahnaga chaqirmsasin!" — deya ichimdan duolar o'qiy boshladim. Shu payt Yusuf dirijyorning yoniga borib biroz egilgan holda uning qulog'iga bir nimalar dedi va musiqa to'xtadi. O'zi esa mikrofonga biroz yaqinlashdi va har doimgidek o'ziga ishongan holda va xotirjam ovoz bilan gapira boshladи...

— Do'stlarim, birodarlarim, barchangiz xush kelibsiz. Sizlarning orangizda doimo bizni tomosha qiladiganlarni ham ko'rmoqdaman, sizlarga tashakkur bildiraman, do'stlarim! Umid qilamanki, kayfiyatningiz a'lo darajada... Rostini aytadigan bo'l-sam, bu kecha mening kayfiyatim boshqa kунлardaғы qara-ganda ancha yuqori... Yuragim gupullab uryapti... Eng sevimli qo'shiqlarimni kuylagim keladi. Men sizlar bilan eng go'zal qo'shiqlarimizni baham ko'rmoqchiman... Qisqasi, bugun kech-qurun hamma narsaning eng yaxshisini qilishni istayman. Chunki men sevib qoldim, do'stlarim! Bu kecha oramizda shunday odam borki, u mening yuragimning urish tartibini o'zgartirib yubordi. Meni tinimsiz hayajonlantiradi, hayratlantiradi... Masa-lan, bu inson erta tongda ishga ketadi, men esa unga xayrli kun tilagan birinchi inson bo'lishim uchun soat qo'ng'irog'ini tuzib qo'yib uyg'onaman. Lekin o'sha kunlar faqat u uchun saharlab uyg'onishimni shu paytgacha o'zi ham bilmasdi, buni endi e'tirof etyapman.

Yusuf gapirar ekan, tomoshabinlar xursand bo'lib, zavq bilan kulib o'tirishar edi. Mening yuzimda esa qip-qizil gullar ochilardi. Ham juda hayajonlanardim, ham baxtli edim, ham juda uyalar edim... Yusuf men ilgari aslo eshitmagan bir she'rni ayta

boshladi:

*Sochingning bir tolasiga agar kelsa zararlar,
Bu, eng avvalo, mening qalb-u dilimni yaralar.
Bir lahza yig 'la, ko 'zim qon bo 'ladi.
Yuragimni qo 'sh-qo 'llab qo 'llariga tutdim.
— Ketmagin, to 'xta, — desam ham,
Kesilar nafasim,
To 'xtar qalbim...
Tingla...
To 'xta.
Iltimos, to 'xta, tingla!
To 'xta, ketma...*

— Men bu she'rni unga atab yozdim... — dedi u. — Shu vaqtga qadar ichida juda ko'p qo'shiq kuyladim, lekin hayotimda birinchi marta kimgadir atab qo'shiq kuylamoqchiman. Shuning uchun ham hayajondaman. Endi esa bu qo'shiqnini sizlarga kuylab bermoqchiman. Lekin kimdir cholg'u asbobini chalib turishi kerak, shunday emasmi? Sahnaga qalbimni to'lqinlantirgan, sahar bilan uyg'onishimga sababchi bo'lgan, qalbimni she'r yozishga majbur qilgan, zulmat ichidan qo'limdan ushlab yorug'likka olib chiqqan, hayotni va yashashni sevishga o'rgatgan o'sha qizni menga sherik bo'lish uchun sahnaga taklif etaman. Uning nafaqat sahnaga chiqishini, balki yuragimning ichiga kirishini istayman. Agar men bilan sahnada qo'shiq kuylashga rozi bo'lsang, kel yonimga, Elif. Men sen bilan bekam-u ko'st bo'lishni, qalblarimizni birlashtirishni istayman...

"Men sen bilan bekam-u ko'st bo'lishni, qalblarimizni birlashtirishni istayman..." — degandi menga. Bu jumlesi

qalbimni shunchalar yoritdiki, ta'rifiga so'z ojiz. Ha, birinchi marta qo'l berib ko'rishganimizda ko'rsatishga uyalgan qo'lini menga uzatdi va boyagi jumlesi bilan meni juda ham hayajonlantirdi.

Yusuf nutqini tugatgach, zalda kuchli qarsaklar yangradi. Hamma bir ovozzan: "Eli! Eli!" — deya baqirardi. Juda hayajonlanganim tufayli yuragim og'zimdan otilib chiqmoqchidek bo'lardi, tizzalarim qaltirab ketardi. Ohista o'mimdan ilk qadamimni tashlagan edimki, qarsaklar ovozi yanada kuchayib ketdi. Og'ir qadamlar bilan sahnaga chiqdim. Yusuf sahnada turgan baland oyoqli yagona kursiga suyanib fleyta cholg'u asbobini menga uzatdi va qulog'imga: "Men seni sevaman", — deya pichirladi. Shu payt uning ko'zлari ichi jilmayib turardi. Bu ko'zлarining ichida baxtiyorlik, hayrat, hayajon ko'rinaridi... Men esa bir vaqtning o'zida ming xil tuyg'ular bilan tebranib turardim. Oldimdag'i stolga endiga qo'yilgan notalar yozilgan qog'ozga qarab chuqur nafas oldim va fleytani chala boshladim... Bu qo'shiq hayotim bo'yicha eshitgan qo'shiqlarning eng ajoyibi edi, to'g'risini bilmayman-u, balki, ehtimol, bu men uchun yozilgan qo'shiq bo'lgani uchun shunday tuyilgandir. Ha albatta, men uchun yozilgandi, men uchun kuylanayotgandi... Ha ayni lahza larda Nozim Hikmatning Pireyasini esladim... Jemal Sureyaning Turgut Uyarni, Edip Janseverning Tomrisini xayolimda jonlantirdim... Ha, Umit Yashar O'g'uzjanning Ayteni, Abdurrahim Karakochning Mihribanini, O'zdemir Asafning Laviniasini ko'z oldimga keltirdim...

Bir tomondan, oldimdag'i notalarga ergashgan holda fleyta chalardim, ikkinchi tomondan, esa o'qigan kitoblarimdagi muhabbat hidiga burkangan ayollarni xayolimda jonlantirardim. Ajabo, ular ham men kabi hayajonlanganmikan? Ko'ksining

ostidagi urib turgan yuraklari mening yuragim kabi o'z qinidan chiqib ketar darajada talpinganmikan? Bunday bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun men kabi bor kuchini sarflashganmikan? O'sha oqshom biz birinchi marta bir-birimizni shunchalik ochiq-oydin va samimiyl tanib oldik. Ikkalamiz ham his-tuyg'ularimizni tan oldik, e'tirof etdik, hissiyotlarimizga bosh egdik. Tadbir tugagandan so'ng meni uyimga olib borib qo'ydi. Onam hali-hanuz uqlamagan edi. Hayajon va sevinchlarim hali-hanuz yuzim ko'zimni bezab turgan bo'lsa kerakki, onam ham mendagi o'z-garishlarni darrrov payqadi va savollari bilan meni ko'mib tashladi.

Bo'lган hamma voqeani, uchrashganimizdan to shu kungacha bo'lган barcha ishlarni kamaytirmay-ko'paytirmay, bori-cha hikoya qilib berdim. Endi mening hayotimda ham chin sevgim, haqiqiy sevgilim bor edi. Buni bilgan onamning ko'zları quvonch yoshlari bilan to'ldi.

Yusuf bilan yuz bergen bu ishlarning hammasi xayollarimda tasavvur qilganlarimidan ham ajoyib edi. *Biror-bir munosabat daslab qanchalar ajoyib va go'zal boshlangan bo'lsa, qanchalar hayajonlantirgan bo'lsa va baxtli qilgan bo'lsa, niho-yasida beradigan ko'ngilsizliklari, umidsizliklari qayg'u-alamlari esa inson qalbida shunchalar chuqur izlar qoldirardi.* Lekin, nachora, men hali bularni bilmas edim...

***Men shunday bo 'lishiga shak-shubhasiz
ishonaman...***

***Birovning hayotga bo 'lgan ishonchini
o 'g 'irlaganlar, ertangi kunga umidini
sindirganlar hech qachon baxtli bo 'lmaydilar.
Zotan, aslo baxtli bo 'lmasinlar...***

— V —

Vaqt o'tgan sayin menda Yusufga nisbatan juda ham kuchli his-tuyg'ular paydo bo'ldi. Unga butun borlig'im bilan bog'lanib qoldim. O'zaro munosabatlarni sog'lom tarzda davom ettirish uchun beparvolik bilan taslim bo'lmaslik, darrov bo'yin egmaslik, osonlik bilan erishiladigan bo'lmaslik, ko'p ko'rishmaslik kerakligini bilaman. Biroq uning qarshisida bu qoidalar birin-ketin buzilib, o'zimni himoya qilish uchun qurban devorlarim yer bilan bitta bo'lardi. Chunki hech bir qoidani yuragimga tinglata olmadim. Shu bilan birga, Yusuf ham menga yopishib olgani yo'q, tez-tez ko'rishib turishimni talab qilgani ham yo'q. Nega o'zini shunday tutayotganligining, buning nima bilan aloqador ekanligini sababini ozmi-ko'pmi taxmin qillardim. Yusuf qo'shiq aytayotgan joyga kelgan qizlar unga xushomad qilayotganliklarini, bir yo'lini qilib Yusufning telefon raqamini bilib olganliklarini, unga qo'ng'iroq qilishayotgani, xabar yozishayotganini bilardim. To'g'risini aytadigan bo'lsam, ba'zida bilganlarimdan ham, eshitganlarimdan ham ko'proq ham ko'prog'i yuz bergen bo'lishi mumkinligi haqidagi hayollar butun qalbimni qamrab olardi, shular haqida o'ylashning o'zi ham meni aqldan ozdirardi.

Shu hafta oxirida, ya'ni dam olish kunlari Yusuf bilan kino-ga tushishga kelishib olgandik. Butun bir kunni birgalikda o'tkazish uchun erta sahar bilan uyg'onib, nonushta qilayotgan edik.

O'sha kuni ko'pdan beri xayolimni egallab olgan, qalbimni tinimsiz tirnagan savolni chaynalmasdan, imo-ishoralar qilmashdan to'g'ridan to'g'ri so'radim:

— Yusuf, nega meni aslo rashk qilmaysan? — dedim.

Uch marta urinsa ham sanchqi bilan ola olmagan zaytunni qo'li bilan olib og'ziga soldi va kulib:

— Nega bunaqa bema'ni, ahmoqona savol beryapsan? — dedi.

— Bu savolimning biror-bir kulgili tomoni bormi — tushunmadim. Shu bilan birga, bu savolim nega bema'ni, ahmoqona savol bo'lar ekan? Qolaversa, meni umuman rashk qilmashliging yaqqol ko'rini turibdi.

— Seni rashk qilishim uchun biror-bir sabab ayta olasanmi. Tabiiyki, ayta olmaysan! Chunki sen odamlar bilan o'zaro mulo-qotingga katta ahamiyat berasan, kiyimiga, tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratasan, Kim bilandir, bo'lar-bo'lmas, keraksiz munosabatlar qurmaysan... Agar qalbingda men bilgan Elifdan boshqa yana bir Elif bo'lsa, u holda bilmayman, yanglishayotgan bo'lishim mumkin. O'zim bilmagan bir narsa uchun meni nimadir ayblashing yoqimli ish emas.

— “Qalbingda men bilgan Elifdan boshqa yana bir bir Elif bo'lsa”, — deganing nimasi? Bu gaping bilan nima demoqchisan, Yusuf? Demak, men sening yoningda boshqa insonman, boshqa paytlari esa yo'limdan chiqqan har qanday odam bilan gaplashib, ularga ergashib ketaveradigan insonmanmi? Bu gaping bilan shunday demoqchimisan?

— Meni ayblashingning hojati yo'q va men bu ma'noda ham gapiргanим yo'q. E'tibor ber, Elif, hayotingga aralashib, seni o'zgartirish niyatim yo'q, bunga harakat ham qilmayman. Qilayotgan har bir ishingga aralashib, seni taqiqlar bilan, qoidalar

bilan bo'g'ishni esa aslo xohlamayman. Men aytsam-aytmasam ham, sen o'zingga juda ehtiyyotkor, hushyor qizsan. Bu tabiatingning ham men bilan aslo aloqasi yo'q. Men bo'lsam ham, bo'lmasam ham, baribir, sen shundaysan! Rostini aytsam, bu keraksiz mashmashani nega qo'zg'aganingni tushunmadim.

Gapirishimga ham ruxsat bermay, ofitsantdan hisobni sorab o'midan turdi. Qo'li bilan eshik tomon ishora qilgan holda meni yetaklab restorandan olib chiqdi. Biz indamay avtoturargohga borib, mashinaga o'tirdik. "Kechqurunni kutmasdan kingga boramiz", — deb o'ylagandim. Uning mashinasida boyagina oramizda bo'lgan noxush suhbat tufayli bugun birgalikda o'tkazadigan vaqtimiz ancha oldin tugaganidan xafa bo'lib ketar ekanman, oradan o'n daqiqa o'tar-o'tmas mashina uyimiz oldida to'xtadi. Yusuf bugun yanada ko'proq birga vaqt o'tkazishimizning yaxshi bo'lmasligini, bo'lar-bo'lmas masalalar tufayli meni xafa qilishni xohlamasligini aytdi. Uning munosabatlarimizni saqlab qolish uchun ehtiyyot chorasi sifatida ko'rgan bu xattiharakatlari men uchun ulkan bir umidsizlig-u ko'ngilsizlikdan boshqa narsa emas edi. Men lom-mim demay, jimgina mashidan tushdim va orqamga qaramay uyimga kirib ketdim. Natijada oramizdagi birinchi g'avg'onning yuz berishiga mana shunday tarzda yo'l qo'ydik.

Bo'lib o'tgamlarni onamga aytib, uning ham kayfiyatini tushirishni, qalbini noxush hissiyotlar bilan to'ldirishni istamadim. Biroz undan-bundan suhbatlashgandan so'ng xonamga kirib kitob o'qiy boshladim. Mening nuqtayi nazarimdan qaralganda, Yusufdag'i bu loqaydlig-u beparvolik tabiatining yoqimli bir tomoni yo'q edi, men chiday oladigan holat emas edi, biroq biroz o'ylab ko'rGANIMdan keyin oz bo'lsa ham uning haq ekanligini e'tirof etdim. Chunki qachon xohlasam, o'shanda ko'risha olar-

dik, suhbatlasha olardik va o'ziga xabar bermay, aytmay ish joyiga, yoniga borishim mumkin edi. Qolaversa, telefonini ham xohlagan paytimda tekshirishim mumkin edi, hech qachon men-dan nimanidir yashirmoqchi bo'lgandek harakat qilmasdi. Shuningdek, aytgan gaplarida haqiqat bor edi, to'g'ri gapirgandi...

O'sha kuni Yusufga biror marta ham qo'ng'iroq qilmadim. Kechqurun uqlashga hozirlanayotgan edim, telefonimga Yusuf-dan xabar keldi.

"Bugungi kun uchun sendan uzr so 'rayman, ertaga ertalab soat to 'qqizda seni olib ketishga boraman va bugungi aybimni yuvaman. Seni sevaman. Xayrli tun!" — deb yozgan edi.

Tabiiyki, bu uzri menga yoqdi. Shunday bo'lsa ham, o'z qadrimni pastga urmaslik, o'zimni oyoqosti qilinganday ko'rsat-maslik uchun uning xabariga javob bermadim. Ertalab aytgan vaqtida kelib meni olib ketdi, hattoki qayerga ketayotganimizni ham so'ramadim.

— Sen bilan ham bo'lmayapti, sensiz ham bo'lmayapti, — deb gap boshladi u.

Ushbu gapining "Sensiz bo'lmayapti" qismini eshitish, darhaqiqat, baxtiyorlik beradigan darajada yoqimli eshitildi...

Yarim soatdan keyin mashinadan tushdik va Uskudarga borish uchun Beshiktoshdan kemaga mindik. Men esa yo'l bo'yи qovog'imni solib yurdim. Uzoqlarga qarab, chayqalarga non ushog'ini otayotgan odamlarni kuzatardim, qulog'im tagidan ohista kirib, sochlariimni o'ynatayotgan shamol hamrohligida dengiz hidini ichimga tortardim. Aslini olganda, istagim Yusuf-ning yonimga kelib, erkalashidan va biroz e'tibor berishidan

boshqa narsa emas edi. Chiqqan kemamiz prichal¹ oldiga yetguncha kutdim, lekin u ham meni kuzatib turishdan boshqa ish qilmadi.

Biz sohilda sayr qilib yurar ekanmiz, “Qiz minorasi”ning yonidan o’tdik.

Shu onda Yusuf mendan:

— “Qiz minorasi” va “Galata minorasi” haqidagi rivoyatlarni bilasanmi? — deya so’radi va qo’lini belimdan o’tkazib, yengilgina quchoqladi.

Ha, bu minoralarning haqidagi rivoyatlarni bilardim, lekin inson bir narsani sevgilisidan ming marta eshitsa ham, aslo zerikmasdi. Ba’zida aytيلوتجان rivoyatlar nima haqidaligi emas, balki bu rivoyatlarni kim aytib berayotgani muhim bo’ladi. **Ba’zan aytيلوتجان gaplar emas, bu gaplarni kim aytayotgani ahamiyatli.**

Yusuf juda murakkab odam edi, uni to’liq tushuna olmayotgan edim, munosabatlarimizning ilk kunlaridagidek xushkayfiyat emas edi. Avvalgidek ko’p kulmaydi, ko’pincha g’azablangandek tuyiladi. O’zini nega bunday tutayotganining, bo’layotgan ishlarga yoki kimgadir qanday munosabatda bo’lishini oldindan tasavvur qilish, bilish oson emas edi. Masalan, u o’zini go’yoki kechagi asabbuzarlik hech qachon bo’limgandek tutardi. U faqat bugungi kun bilan yashar edi, hatto kechagina bo’lib tortishuv haqida og’iz ochmasdi. Tushdan keyin sohil bo’yining kichik shaharchasi “Anadolu ko’rfazi”ga yetib keldik. Baliqxonalarning birida o’tirib, ham ovqatlandik, ham zavq bilan suhbatlashdik. Keyin meni “Beylerbeyi”ga, undan keyin “Yusha tepaligi”ga olib bordi. Istanbulda yashagan bo’lsam ham, bu

¹ **Prichal** (inglizcha) — daryo va boshqa suv havzalari sohilida qayiqlar, kemalar to’xtaydigan, maxsus jihozlangan joy, kichik port.

joylarning qanchalik go'zal ekanligini bilmasdim. *Ehtimol, biror joyning go'zalligi o'sha joyda qanchalik baxtli ekanligingizga bog'liqdir, tag'in bilmadim...*

Yoz faslining so'nggi kunlarida olovdek qizdirayotgan bu jaziramada bizga yordamga kelgandek yo'limizda uchragan bir daraxtning salqin soyasi ostidagi maysalar ustiga o'zimizni ot-dik. Chalqancha yotgacha biri-birimizga qarab kularidik. Biroz suktandan so'ng:

- Bir nima desang-chi, Yusuf... — dedim.
- Nima deyishimni xohlaysan? — deya so'radi.
- Nimani aytishni istasang, shuni ayt, chunki ovozingni eshitish menga yonimda ekanligingni his qildiradi. Masalan, bolaliging haqida biroz gapirib ber. Ishonchim komilki, bolalik davring juda ham shirin, ajoyib o'tgan, — dedim kulimsirab.

U shu onda kutilmaganda yotgan joyidan turdi-da, qayta o'tirib oldi. Uning biroz oldingi beg'uborligi qayerlargadir g'o-yib bo'ldi, nigohlarida xomush va ma'yus ifoda paydo bo'ldi. U cho'ntagidan sigaret chiqarib tutatdi. Bu sigaretasini chekib tuga-maguncha bir og'iz so'z ham aytmadidi. Keyin yana ko'kka qarab yotgan holda ko'zlarini yumdi va bolalik davrini menga anglata boshladi...

— Mening bolalik davrimni o'z xayolingda qanday tasavvur qilayotganiningni bilmayman, lekin, sen o'ylagandek, baxtli, shodon bolaligim bo'limgan, — hikoya qila boshladi. — Onam ham, otam musofir bir oilaning farzandlari sifatida Germaniyada tug'ilgan. Men ham o'sha yerda tug'ilganman. To'rt yoshga to'l-gunimcha meni yoqtirishganmi yoki ajoyib bir bolalik davrini boshimdan o'tkazganmanmi-o'tkazmaganmanmi — bunisini bilmayman. Chunki to'rt yoshimgacha bo'lgan biror-bir davrimni eslay olmayman. Ammo to'rt yoshimdan keyin aslo yoqtiril-

maganligimni va bolalik davrim yoqimli o'tmaganligini aytalaman... Ota-onamning urush-janjallarini sal-pal eslayman... Zotan, xotiramda onam, otam va men — uchovimiz birga bo'l-gan o'sha paytlar haqida bundan boshqa biror-bir taassurot yo'q edi... Tumanli va loyqa tasvirlar ko'zlarim o'ngida, xayolimda xuddi muzlagan oynadan qaragandek jonlanar edi. Lekin otamning uyimizning eshididan chiqayotgandagi ko'rinishi xotiramga abadiy muhrlanib qolgandi, shuning uchun o'sha paytdagi tasvirni aslo unutolmayman. Qachonki ota so'zini eshitsam, o'sha xayolimda o'sha paytdagi tasvir jonlanadi. Ko'zgu kabi porloq, chapga taralgan sochlar, kulrang shim bilan kiyilgan oppoq ko'y-lak... Shimni ushlab turish uchun ko'ylakning ikki yelkasi osha tortilgan bog'ichlar, chap qo'liga osib olgan kostyumi... Shu bilan birga, go'yoki ochilmaydigan qilib yopilgan o'sha yog'och eshik... Sen gapingda ota so'zini qo'llar ekansan, mening ko'z o'ngimda esa xuddi mana shu tasvirlar jonlanadi. Bu tasvirlarning meni xafa qiladigan, ezadigan tomoni nima ekanligini aytaymi? Xayolimning mana shu tasvirlaridagi bu odamning yuzi yo'q edi... Men otamning yuzini hech qachon va aslo eslay olmaganman. Bu gaplarim bilan shuni aytmoqchimanki, o'zim tanimagan odamdan — otamdan nafratlanaman... Chunki u onam va meni yolg'iz tashlab ketgan. Doimo uyqusiz yuradigan, tinimsiz spirtli ichimliklar ichib, baqirib, eshik-derazalarni urib sindiradigan bir telba ona bilan meni yolg'iz tashlab ketdi... Ikkalasining orasidagi janjallarning nimadan kelib chiqqani bilmayman-u, lekin bu janjallarning eng katta badalini men to'ladim, azobini men tortdim va hali-hamon azoblanyapman, badal to'layapman. Bolaligimning har oni otasiz o'tgandek ko'rinsa ham, aslida, o'sha paytlar otasizlikdan ko'ra ko'proq onasiz hayot kechirdim. Aslini olganda, onam har doim yonimda edi, lekin unga kulib

qaray olmasdim, yonoqlariga tegina olmasdim, bag'riga o'zimni ota olmasdim. Onam meni bir xonaga qamab, ustimdan qulflab qo'yishi uqlashim kerakligini anglatadi. Ko'pincha butun bir kun bo'yi, ba'zan ikki kunlab o'sha xonada qamalib qolardim, hatto onamning ovozini ham eshitmasdim. Onam ruxsat bergenidagina hojatxonaga bora olardim, onam ovqat beradigan paytdagina och qolgan hisoblanardim, ya'ni qachon och qolishimni ham onam hal qilardi... Uyimizning ro'parasida bolalar maydonchasi bor edi, men esa u yerga borib o'ynay olmasdim. Bir kuni bog'da o'ynayotgan bolalarni ko'rib xo'rligim kelib, ko'zlarim to'ldi va derazadan ularga xomushlik va ma'yuslik bilan qarab turardim. Ordan bir necha kun o'tgacha, kunlarning birida tushdan keyin xona qulflanmaganini sezib qoldim, onam divanda g'ujanak bo'-lib uxlab yotardi. Men esa xuddi sehrlangandek rang-barang o'yinchoqlar bilan to'la bog' tomon yugurdim. Sirpanmachoqqa endigina chiqmoqchi bo'lqanimda, belimni mahkam qisib olgan bir qo'lni his qildim va o'zim bilmagan holda bu qo'l tomondan tepaga otib yuborildim, keyin esa yerga yuzturban urildim. Nimalar bo'layotganini tushuna olmadim, go'yoki ichim portlab ketgandek bo'ldi. Shu on kimdir qo'limdan ushlab yuqoriga ko'targanini sezdim. Ko'rdimki, onam bor kuchi bilan ushlab olib yerga tinimsiz urardi. Axir, o'sha payt endigina besh yoshga kргan edim. Juda ham kichkina edim. "Oyijon, urmang, iltimos, urmang", — deya baqirib yig'lashni istagan edim, lekin yig'lamadim. Chunki yig'laganim uchun beriladigan jazosi to yig'idan to'xtagunimcha kaltak yeish eddi. Onam meni xuddi bozorlik qiladigan xalta kabi sudrab uyimizga qadar olib bordi va keyin esa eshik oldida qoldirdi. Uyimizning eshigigacha qolgan yo'lni esa sudralib, emaklab bosib o'tdim va uyg'a kirdim. Yelkam juda qattiq og'rirdi, qo'lim bilan tegingan zahotim qovurg'amning

singanini his qilardim, lekin onamga aytishga qo'rqardim. Chunki bizning uyimizda, sababi nima bo'lsa bo'lsin, kasal bo'lib qolish, jarohat olish taqiqlangandi... Uydan bir necha oy davomida aslo chiqmadim. O'sha singan qovurg'am negadir o'zi-o'zidan tuzaldi. Ammo qalbimning singan joylari tuzalmadi... Ha, o'shandan buyon o'yin maydonchalaridan ham nafratlanadigan bo'lib qolganman...

Yusuf bir lahma gapirishdan to'xtab qoldi va chuqur xo'rsindi. U gapira boshlaganidan beri ikkalamiz ham maysaga ustida osmonga qarab ko'zlarimizni yumgancha yotardik. Unga quloq solar ekanman, yuragim og'ridi, jonioq siqilib ketdi. Uni tinglar ekanman, aytib bergenlari tufayli qalbim azoblanardi, bo'g'zimga nimadir tiqilib, ko'zim yoshga to'lardi. Uni tinglar ekanman, bir marta ham ko'zimni ochishga jur'at eta olmadim. Ko'zimni ochib, yuzini ko'rgan zahotim uni quchoqlab: "Mana, qara, men sen bilanman, seni hech qachon tark etmayman!" — baqirib yuborishga ham tayyor edim. Bir kalima ham gapirmasdan, yonoqlarimdan qulog'imga oqayotgan iliq ko'z yoshlarimni his qilgan holda uni tinglardim. Yusuf yutinar ekan, gapirishda davom etdi...

— Ota-onam bir paytlar o'zlarining ota-onasini, qarindoshurug'larini ham o'zlaridan bezdirgan ekan. Na bizni izlab kelganlar bo'ldi, na hol-ahvolimizni so'raganlar bo'ldi... Ba'zi kechalari qo'rqib, onamning bag'riga kirib ketgim kelardi, lekin bunga jur'at-u jasoratim yetmasdi. Azoblarim kabi qo'rquvlarimni ham qalbimga ko'mishni o'rgandim. Otam meni olib ketishini so'rab, har kecha duo qilardim. Lekin u hech qachon kelmadi... Onam uydan chiqib ketgan paytlarida men yashirinchcha tashqariга ba'zi bir bolalar bilan do'stlashgandim. Ularning o'yinchoqlarini o'ynardim. Ular nima deyishsa, har doim shunday qilar-

dim. Chunki o'yinchoqlar ularni ki edi, mening esa yangi do'stlar orttirish imkoniyatim bo'limgan... Olti yoshimga to'lgunimcha har kuni qiyndigani onaga chidab, aslo kelmaydigan otani kutib yashadim. Keyin bir kuni eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Har safar eshik qo'ng'irog'i chalinganda: "Otam keldi", — deb o'ylardim va har safar yanglishgan bo'lardim. Bu safar ham yanglishgan edim... Ikki nafar politsiyachi bilan kostyum-shim kiygan ikki ayol keldi. Ular meni Germaniyadagi bolalar uyining biriga olib ketishdi.

Elif, senga bir narsa aytaymi? *Agar insonning taqdiriga baxtsizlik kunlari yozilgan bo'lsa, undan qochib qutulishning iloji yo'q. "Yomon kunlarim ortda qoldi", — deya, chuqur xo'rsinar ekansan, yo'lingda yana bir noxush hodisaga duch kelasan. Bu baxtsizlik seni osongina tark etmaydi. Lekin shunday bir nuqtaga yetib kelasanki, bu nuqtadan keyin hech narsaga e'tibor bermay qo'yasan, parvo qilmay qo'yasan. Chunki hayotning sendan oladigan boshqa narsasi qolmagan bo'ladi.* Men yetim emas edim, otam ham, onam ham tirik edi, lekin yetimlardan ko'ra yolg'izroq edim. Bolalar uyiga topshirilgunimcha o'zimni dunyodagi eng baxtsiz bola sifatida ko'rardim. Demakki, men yolg'iz emas ekanman... Yangi tanishgan do'stlarimning hikoyalari menikidan unchalik farq qilmasdi. Men u yerda to'rt yillik umrimni behuda o'tkazdim. U yerdagi bolalar tezroq o'n sakkiz yoshga to'lib, bu maskandan tezroq qutulishga harakat qilishardi. Bu bolalar uyida shunday yomon tarbiyachilar bor ediki, so'z bilan ta'riflab bera olmayman... Bolalarni tasavvur qilib bo'lmaydigan qiyonoqlar bilan azoblashar o'zları esa bundan huzurlanishar, zavqlanishar edi. Tarbiyachilar biz haqimizda o'zaro garov o'ynashardi. Ularning har biri o'ziga bir bolani tanlab, belidan yuqorisining kiyimini yechtirib, qo'l-

larini ko'tartirib, qo'ltig'ining ostiga uchi tepaga qaratilgan ignani qo'yardi. Agar charchab qo'llaringni pastga tushirsang, igna sanchiladi. Qo'llarimizni ko'tara olmaydigan darajaga yetgumizcha shunday turaverardik. Boshqa bolalardan ko'proq payt qo'llaringni ko'tarib tursang, g'alaba qozonasan, ignadan qutulasan. Yutqazsang, igna azobiga kaltak ham qo'shiladi. Ba'zan bundan ham battar yomon ishlar bo'lardi... Tarbiyachilar bolalarни kaltaklashar ekan, tananing ko'rindigan joyida kaltakning izini imkoni boricha qoldirmaslikka harakat qilishar edi. Ba'zan tunlari vijdonsiz tarbiyachilarining kulgisiga bolalar yig'isi qo'shilardi. *Oollohim hech bir bolani, ota-onasiz, qarovsiz qoldirmasin...* *Vaqt o'tib ketaveradi, lekin o'tgan shu lahzalarning qalbingga bergen jarohatlari esa hech qachon o'tib ketmaydi, yo'qolmaydi.* *Jarohatlarining yashirarsan, lekin yashirish og'riqni yengillashtirish uchun yetarli emas.* U yerdagi bolalar nimalarni boshdan kechirayotganidan va qalblarida qanchalar noxush his-tuyg'ular borligidan hech kimning xabari bo'lmaydi...

Oradan to'rt yil o'tdi. Bir kuni meni mehribonlik uyining mehmonxonasi olib kirishdi. Men yana nimadir sodir bo'lishidan qo'rqardim. Meni nima uchun bu yerga olib kelishganini tu-shunishga harakat qilardim...

Shunda bolalar uyining direktori bilan ellik yoshlardagi ayol kirdi. Ko'zlarimga qaradi, ismimni so'radi, sochlarmi siladi va u yerda ko'p qolmasdan g'oyib bo'ldi. Ertasi kuni yana keldi va meni bolalar uyidan olib ketdi. Uning ismi Perihan edi, u ham Germaniyada yashagan muhojirlardan edi. U umrini yakka o'zi, yolg'iz o'tkazgan ekan, keksaya boshlagach farzand asrab olishni istabdi. U shunchalik mehribon, shafqatli, yoqimli oqila ayol ediki, buni so'z bilan tasvirlab bera olmayman. U mening

Perihan onam edi... Dunyoga kelganimga o'n yil bo'lgandi, lekin o'n yil davomida bir kunni ham bola kabi o'tkazmaganlardan biri edim. Kelajakka nisbatan umidsiz edim... Bir kuni hammomda cho'milayotganimda tanamdag'i jarohat izlarni ko'rib qoldi va nima bo'lganini so'radi, men ham nimalar bo'lganini boricha aytib berdim. Perihan onam ham hammomda meni yuvintirar, boshimdan o'tkazganlarimga achinib yig'lardi. O'sha kunning o'zidayoq politsiyaga bolalar uyidan shikoyat qildi. Bolalarni qiynoqlarga soladigan tarbiyachilarning hammasi hibsga olindi. Perihan onam men bilan birlgilikda u yerdagi ko'plab yetimlarni qiynoqlardan xalos qildi. Ba'zan oilam haqida so'rardi, ota-onamga bo'lgan nafratimni anglagan zahoti bu mavzuni yopardi. Perihan onam bilan yashayotganimga ikki yil bo'ldi. Shu yoshga qadar faqat uning yonida kula oldim, shu yoshimga qadar birinchi marta muzqaymoq yedim, boshqa bolalar bilan ko'nglim to'lgancha o'ynadim. Lekin o'sha la'nati o'yin maydonchasiga hech qachon borishni xohlamaganman, shuni bilasanmi?

"Nihoyat menga ham taqdir tabassum qila boshladni", — deya o'ylay boshladim. Bilasanmi, endigina baxtli yashay boshlagan bechora bir insonning baxtini shayton ko'ra olmas emish, uni yana baxtsizlikka duchor qiladigan kunni kutib yashar ekan. Menda ham xuddi shunday bo'ldi: Perihan onam baxtsiz hodisaga uchradi va belidan pastki qismi shol bo'lib qoldi. Endi uning o'zi ham parvarishga muhtoj bo'lib qolgandi, o'zining roziligi bilan qariyalar uyiga joylashtirildi. Perihan onam musofirlilikda yanada ko'p baxtsizlikka uchramasligim uchun qo'limga tutqazgan bir enlik xati bilan meni Turkiyada yashovchi ukasi Rifatning oldiga yubordi. Bu xatni o'sha ondayoq yodlab olgandim va bu maktubni hali-hamon asrab kelyapman. Unda shunday jumlar yo'zilgandi:

"Mehribon ukam... Men sendan bir mas 'uliyatni o'z zim-mangga olishingni so 'rayman. Bu bolani o'z himoyangga ol va opangning omonati sifatida asra..."

Undan juda minnatdorman, meni hech qachon o'z farzand-laridan ajratmadi. Agar bolalariga bitta narsa sotib olsa, menga ikkitasini olardi. Ularning menga qilgan g'amxo'rliklarining, yaxshiliklarining haqini hech qachon qaytara olmayman. Ular meni tarbiyaladi, ulg'aytirdi, o'qitdi... Hech qachon ulardan uzoqlashmadim, o'zimni begonaday his qilmadim, lekin o'zim-ning ortiqcha ekanligimni hech qachon unutmaganman. *Inson yuragiga sig'dira olmaganini vujudiga ham sig'dira olmaydi.* Demoqchimanki, qalban va ruhan o'zingga tegishli bo'limgan joyda tura olmaysan. Men ham ularning uyida tura olmagandim... Bu gapim ulardan tamoman ajralib ketganligimni anglatmaydi. *Ba'zan o'z yo'lingni yaratishing, o'sha yo'ldan yurishing kerak bo'ladi*, men ham shunday qildim. *Yo'lning to'g'ri yoki noto'g'riliqi muhim emas, muhimi o'zingning yo'ling bo'lishi kerak.* Men o'shanday bir yo'lga chiqdim va shu kungacha halihamon shu buguncha shu yo'ldaman. Bu yo'lning eng go'zal, eng ajoyib sovg'asi sensan, Elif...

Yusufning qalbining naqadar singanligini, vayron bo'lgan-ligini his qilardim. Undan o'tmishini aytib berishini so'raganim-dan juda ham afsuslanayotgandim. Tomog'imni to'ldirib, tirmab turgan so'zlarni bir joyga jamlab, bitta bo'lsa ham ma'noli jumla tuza olmadim. U ham mening bir nima deb tasalli bera olmayot-ganimni tushungan bo'lsa kerak, yonimga yaqinlashdi-yu, qo'-limni o'z qo'llarining ichiga oldi-da va:

— *Bularning hammasini senga aytib bergen ekanman,*

demakki, seni sevib qolganman, shekilli. Aks holda, inson o'zining ojiz tomonlarining boshqa birovning vijdoniga, mehr-shafqatiga, samimiyatiga ishonib aytarmidi? Bu aytib berganlarim men bilan birga qabrga kirishi kerak bo'lgan va bir-ikki kishidan boshqa hech kim bilmaydigan o'tmishimdir. *Agar eng yomon kechinmalarni ortda qoldirsang, kelajakda seni hech narsa yiqa olmaydi.* Men endi o'tmish kunlarimdagidek g'amgin emasman, shuning uchun, demoqchimanki, sen ham meni g'amga botirma, — dedi jilmayib.

Ha, mana shunaqa gaplar, *ba'zida ulkan azoblarni bir tabassumning ortiga yashirib yashashga majbur bo'lib qolar-dik...*

Lekin, afsuski, ba'zi bir azoblar biror-bir tabassumning ortiga yashirinib bo'lmaydigan darajada ulkan va dahshatli ekanligini bilmas edik. Afsuski, hayotda shunday azoblar borligini bildiradigan kunlar bizdan uzoqda emas ekan...

*O'ylaydilarki, juda ham ko 'p qadrlaganimiz
uchun qalbimizda doimo gullar ochiladi, doimo
bahor hukm suradi...*

*O'ylaydilarki, qalbimiz haqida qanchalik ko 'p
qayg'ursak, shunchalar kuchli bo 'lamiz, hech
narsadan qo 'rqmaymiz...*

*Biroq hech qachon va aslo bunday bo 'lmanan...
Biz juda ham ko 'p, haddan tashqari ko 'p
sevdik...*

*Sevganimiz uchun qalbimiz bahor edi, lekin qalb
gullarimiz kurtak ochar-ochmas so 'lib qoldi...*

*Qo 'rquv-xavotirlarimiz ko 'payib ketdi.
Doimo ayriliqdan, sevilmaslikdan qo 'rqib
yashadik.*

*Na qo 'rquv-xavotirlarimizni angladilar, na
qalbimiz vayron bo 'lganini ko 'ra oldilar.*

*Oxir-oqibat, sodir bo 'lishi kerak bo 'lgan nima
bo 'lsa, hammasi yuzaga chiqdi. Ortimizda na
qo 'rquvlarimiz qoldi, na ochilmasdan so 'lgan
gullarimiz qoldi.*

*Mayli, ular bizni mag 'lub bo 'lgan, yutqazgan
deya hisoblayversinlar...*

demakki, seni sevib qolganman, shekilli. Aks holda, inson o'zining ojiz tomonlarining boshqa birovning vijdoniga, mehr-shafqatiga, samimiyatiga ishonib aytarmidi? Bu aytib berganlarim men bilan birga qabrga kirishi kerak bo'lgan va bir-ikki kishidan boshqa hech kim bilmaydigan o'tmishimdir. *Agar eng yomon kechinmalarni ortda qoldirsang, kelajakda seni hech narsa yiqa olmaydi.* Men endi o'tmish kunlarimdagidek g'amgin emasman, shuning uchun, demoqchimanki, sen ham meni g'amga botirma, — dedi jilmayib.

Ha, mana shunaqa gaplar, *ba'zida ulkan azoblarni bir tabassumning ortiga yashirib yashashga majbur bo'lib qolar-dik...*

Lekin, afsuski, ba'zi bir azoblar biror-bir tabassumning ortiga yashirinib bo'lmaydigan darajada ulkan va dahshatlid ekanligini bilmas edik. Afsuski, hayotda shunday azoblar borligini bildiradigan kunlar bizdan uzoqda emas ekan...

*O'ylaydilarki, juda ham ko'p qadrlaganimiz
uchun qalbimizda doimo gullar ochiladi, doimo
bahor hukm suradi...*

*O'ylaydilarki, qalbimiz haqida qanchalik ko'p
qayg'ursak, shunchalar kuchli bo'lamiz, hech
narsadan qo'rqlaymiz...*

*Biroq hech qachon va aslo bunday bo'lmanan...
Biz juda ham ko'p, haddan tashqari ko'p
sevdik...*

*Sevganimiz uchun qalbimiz bahor edi, lekin qalb
gullarimiz kurtak ochar-ochmas so'lib qoldi...
Qo'rquv-xavotirlarimiz ko'payib ketdi.
Doimo ayriliqdan, sevilmaslikdan qo'rqiib
yashadik.*

*Na qo'rquv-xavotirlarimizni angladilar, na
qalbimiz vayron bo'lganini ko'ra oldilar.*

*Oxir-oqibat, sodir bo'lishi kerak bo'lgan nima
bo'lsa, hammasi yuzaga chiqdi. Ortimizda na
qo'rquvlarimiz qoldi, na ochilmasdan so'lgan
gullarimiz qoldi.*

*Mayli, ular bizni mag'lub bo'lgan, yutqazgan
deya hisoblayversinlar...*

– VI –

Yusufni qanchalik ko'p taniganim, bilganim sayin hayotimning ko'p qismini behuda o'tkazganimni shunchalik yaxshi anglay boshlagandim. O'ttiz yillik umrimni maqsadsiz, mazmunsiz yashab, behuda isrof qilibman. Keyin esa hayotimga Yusuf kirdi, u bilan birga hayotim ham o'zgara boshladi, o'zim ham buni sezmay qoldim. Bu o'zgarishlar jamiki noto'g'ri dunyoqarashlarimni va tushkunliklarimni hayotimdan supurib chiqarib tashladi. ***Kimnidir sevish insonga bir maqsad berar ekan.*** Ertalab uyg'onishda, pul topishga intilishda, hattoki nafas olishda ham bir maqsad borligini u tufayli, u bilan birgalikda o'tkazgan lahzalarim tufayli tushunib yetgan edim. U menga hayot kutilmagan hodisalarga, tasodiflarga to'la ekanligini va yashayotgan vaqtimni qadrlashni o'rgatdi. Uning yuziga qarar ekanman, qo'llarini ushlar ekanman, bo'ynidan mahkam quchoqlar ekanman, bir nimalar qilishim kerakligini qalbimning tub-tubidan chuqr his qilardim.

Ba'zida o'tib ketgan lahzalar qaytib kelishini xohlaysiz va ba'zida ortda qolgan kichkina lahma ichidan panoh topishga harakat qilasiz. Chunki, o'sha kichkina lahzanining ichida ulkan bir hayot qoldirgansiz... Ha, o'shanday tengsiz bebaho lahma-

larning biri Yusuf bilan bir uxlagan ilk kecham edi. Uni quchoqlab o'tkazgan har bir soniyam shunchalar bebaho ediki, uning yonida ertalabgacha o'tkazgan bu tunimning ta'rifini so'z bilan tushuntirib bera olishimning aslo iloji yo'q edi. Karavotga suyangan holda yonma-yon o'tirardik. Bir-birimizga tikilgancha, daqiqalar davomida sukut saqladik. Keyin Yusuf boshini ohista chap yelkamga qo'ydi. Tizzalarimning ustida turgan qo'limni ikki kafti orasiga oldi. Qo'limning ushlab turgan bosh barmog'ini qimirlatib yuragimni silagandek bo'ldi. Shu onda ortimga o'girilib, yuzidan o'pmoqchi bo'ldim, lekin u boshimni burishimga izn bermadi. Bundan keyin aslo tilga olmaslik sharti bilan yana bir marta azoblarimizni, ortda qoldirganlarimizni, unutishga uringanlarimiz haqida gaplashdik... ***Kim bilandir bekam-u ko 'st bo'lish, yetishmayotgan tomoningizni u bilan to'ldirish, zaif tomoningizni u bilan mustahkamlash juda ham ajoyib va zavqli kechinmadir...*** Otamning vafoti tufayli yuragimda paydo bo'lган ulkan bo'shliqni Yusuf bilan to'ldirdim. Go'yoki qalbimda tilga chiqishni istagan-u, lekin sukut saqlashga majbur bo'lган kalimalar bordek edi. Yusufning gapirayotgan paytda ovozi, hajyon bilan ikkilanishlari, qo'llarimni mahkam ushlab olishi go'yoki: "Iltimos, meni bag'ringga bos..." — deyotgandek bo'lardi. Bu lahzalarning qiyosi yo'q edi, bebaho-yu tengsiz edi. Shu tuyg'ular bilan unga o'zimni bag'ishlamasam, uning bag'riga otilmasam, qolgan umrimni afsuslar-u pushaymonliklar ichida o'tkazishimni bilardim. Umrimning qolgan qismida ulkan afsuslar-u pushaymonliklarga o'rin qoldirmaslik uchun o'girilib, uni bag'rimga mahkam bosdim. Lablarini qulog'im bilan bo'yinim orasiga qo'yar ekan: "Men seni sevaman..." — deya pichirladi. Men ham uni hammadan ko'ra ko'proq sevishimni aytib, bag'rimga bosdim, sochlarini siladim.

Boshini qo'llarimning orasiga olib, bir muddat ko'zlarining ichiga qaradim. U menga yuragining tub-tubidan shu qadar churqur boqardiki, meni sevishini aytishga ham hojat qolmagandi. Menga nisbatan sevgisini ko'zlarining ichida ko'ra olgandim. Shu onda uni o'pib olgim keldi, lekin yutingan holda chekindim, o'pmadim. Go'yoki bu qilik'im bilan mana shu jozibali onlarning ohangrabosini buzib qo'yishdan qo'rqaqdim. O'mini aslo to'ldirib bo'lmaydigan bu jozibali onlarni vayron qilishdan qo'rqqanim uchun o'pmadim... U esa ko'zlarini yumgan holda lablarini burnimning uchiga bosdi va bir muddat shunday turdi. Ikki labi orasidagi bu jozibani buzmasdan ko'zlarimning tub-tubiga qarab, kipriklarimga tegindi. U meni o'pmoqchi bo'lqanga o'xshardi, men esa hayajondan o'ladigan darajada edim... Keyin esa lablarimni hidlab, iyagini yana yelkamning ustiga qo'ydi. Menimcha, kimningdir hidini o'pish shunday bo'lsa kerak. Men bu tuyg'uni oldinlar hech qachon va aslo boshimdan kechirmaganman, badanim oldinlari hech qachon bunday nozik quchoqqa duch kelmagan. Shu onda to'satdan ko'zim devorda osilgan soatga ko'zim tushdi. Soat tungi ikki yarimni ko'rsatdi. Vaqt shunchalar juda tez o'tayotgandi... Sokin bir xonada sevgan insonimning yuragi urib turayotganidan va tashqarida endigina boshlangan yomg'irning shovqinidan boshqa hech narsa eshitmasdim. Mana shunday holatda qimir etmay turish oyoqlarimni uvushtirsa-da, ammo og'rimasdi. Tizzalarimning titrashiga ham e'tibor bermay, soatlab emas, hattoki bir necha kunlar davomida shunday holatda tura olardim. Qaniydi, imkonni bo'lsaydi... Uni yanada ko'proq vaqt davomida bag'rimga bossaydim, sochlarni yana ko'proq vaqt davomida silasaydim, olayotgan nafasining ovozini yanada ko'proq eshita olsaydim... O'zimni go'yoki u ertaga ketayotgandek va endi boshqa ko'rishmaydiganimizdek

his qillardim. Go'yoki shuning uchun ham qalbimda u bilan bog'liq, u haqidagi his-tuyg'ularni yig'ishni, toplashni xohladim. U hali-hamon qimir etmay jim turardi, badanimni pianino-chi barmoqlaridek silashlarini chuqur his qillardim. Shu onda kutilmaganda uning bo'ynidan o'pdim. U esa qo'llarini yelkanga qo'ydi va o'zini yengillik bilan biroz orqaga tashladi, qaddini rostladi. Yana bir bor ko'zlarimga qaradi.

— Iltimos, bu lahzalarni aslo va hech qachon unutma, maylimi? Bir kun meni unutsang ham, bu lahzalarni doim esingda saqla. Shuni bilginki, nima qilgan bo'lsam ham, seni juda sevganim uchun qilgandim...

Shunday der ekan, yoqimli bir teginish bilan meni o'pdi. Demakki, ikkalamizning qo'rquv-u xavotirlarimiz biri-biriga juda o'xshash edi, ya'ni ayriliq xavotiri... Albatta, kimnidir qalbingda his qilish uchun u bilan sevishish shart emas edi, lekin agar qayta tug'ilish mumkin bo'lsa edi, bu faqat sevgan insoningizning tanasida namoyon bo'ladi... Yuragim go'yoki ko'krak qafasimni teshib chiqadigandek urardi... Bluzkamning kamarini endigina tushirib yechgan edimki: "Iltimos..." — dedi bunday qilmasligimga undab. Yelkamdan o'pdi va ko'ylagimning kamarini to'g'rilab, joyiga qaytarib qo'ydi. Bu harakatim meni qanchalik uyaltirgan bo'lsa ham, lekin bu lahzalarni umrim davomida aslo unutmayman. Ko'zlarini ko'ra olmasam-da, kipriklarini yonoqlarimda his qillardim... Agar shu onda nimadir bo'lsa, o'zini yomon odam sifatida eslab qolishimdan qo'rqardi, shekilli, buni ora-chora aytgan bitta-yarimta jumlalaridan bilib olardim. Men esa oramizda yana nimalar bo'lishini istardim-u, lekin birdan bir dardim, maqsadim shu ish ekanday ko'rinishdan qo'rqardim. Uning nazarida, hammasini osongina, qulaylik bilan hal qilish qo'rqinchli bir holat edi. Bu g'alati emasmi? Sevgan

insoningizga uni yo'qotish qo'rquvi bilan yaqinlashsangiz... Bundan xavotirlanish tuyg'usi uni yanada sevishingizga sabab bo'ladi. Chunki inson o'zining qalbini og'ritsa ham, sevganining vijdonini azoblay olmaydi, bunga yo'l qo'ya olmaydi... Ertasi kuni ketadigan paytimgacha ikkimiz ham imkon qadar uyquga qarshilik qildik. Bir-birimizni shu darajada suyib, qo'yib yubor-maslikka intilar edikki, birimiz-birimizga shunchalar qarab to'yemas edikki, biri-birimizni shunchalar his qillardikki, biri-birimizni shunchalar bag'rimizga bosar edikki, go'yoki bu lahzalar aslo qaytib kelmaydiganday, aslo takrorlanmaydiganday, endi boshqa uchrashmaydigandek tuyilardi... Tongga qadar betinim yomg'ir yog'di. O'sha oqshom yog'gan yomg'irni ham, uni ham juda boshqacha sevgandim...

Ha, bizning hikoyamiz mana shunday boshlandi. O'sha kechadan keyin ikki kun davomida ishlarimiz juda ko'pligidan, vaqtimiz ziqligidan hattoki telefonda ham bemalol, xotirjam gap-lasha olmadik. Uning vaqtি bo'lgan paytlar mening ishim chiqib qoldi, menga qulay bo'lgan paytlar u boshqa ishlar bilan band edi. Xullas, ko'risha olmadik. Ikki kundan keyin unga qattiq sog'inch bilan qo'ng'iroq qildim, qo'ng'iroq'imga javob bermadi. Oradan bir necha soat o'tsa ham qayta qo'ng'iroq qilmadi. Keyin yana qo'ng'iroq qildim, keyin yana... Yana... Oxir-oqibatda, mening raqamimga "taqiq" qo'ydi va: "Hozir sen bilan ko'rishni istamayman", — deya xabar yubordi. Aslo kutilmagan bu holatdan dovdirab qoldim. Jizzakilik, shallaqilik qilayotganday ko'rinmaslik uchun qo'ng'iroq qilishni to'xtatdim. Ikki kun oldingi tiyib tura olmagan jasoratim-u jur'atim, nojoiz harakatlarim tufayli mendan yuz o'girib ketayotgan bo'lishi mumkinligini o'yladim. Bu esa men uchun juda katta bir fofja edi. O'z o'y-xayolida meni har bir erkakka nisbatan xuddi shunday

harakat qiladigan ayol sifatida tasavvur qilishi yuragimni ezardi. Oradan ko'p vaqt o'tmay ko'rishishimiz kerakligi, menga ehtiyoji borligi haqida bir xabar yubordi. O'z uyida ekanligini bilganim zahoti vaqt ni boy bermay, darrov yo'lga chiqdim...

Uyiga kirib, unga ko'zim tushar ekan, qiyofasi, ko'rinishi bir ahvolda edi, juda ham gangib qolgan edi. Uni bunchalik nochor ahvolda birinchi marta ko'rishim edi. Lekin u hayotga har doim ijobjiy tomondan qarashning bir yo'lini topardi va yashagan har bir daqiqasidan unumli foydalanishga harakat qildi. Men ham shunday qilishim kerakligi haqida nasihat qilar, xafa bo'lgan, ezilgan paytlarimda tasallli berar, yupatar edi. Ammo hozir esa shunchalik charchagan, shu darajada ezilgan va gangib qolgan ediki, bir burchakda cho'kkalab o'tirib tinimsiz yig'lardi. Ko'z-lari qonli yoshlar bilan to'lgan edi. Qo'llari qaltirardi. Uni shunday ahvolda ko'rар ekanman, mening ham qalbim parchalandi. Sekin-asta uning yoniga yaqinlashib tizzalab o'tirib oldim va boshini yelkamga qo'ydim. Bir muddat davomida uning sochlarini mayin erkabalab, yelkalarini silab o'tirdim. U go'yoki mehrga muhtoj boladek edi, mehr-muhabbatim bilan uni bag'rimga bosdim.

Bolaligida tark etib ketgan otasining yetishmayotganini o'ziga yana eslatib, o'zini yanada shu dardning qozoniga tashlagani aniq edi. Tinimsiz: "Dadajon..." — deya ingrar, boshqa biror-bir so'zni ayta olmas edi. U o'zini yaxshi qilishi uchun bir necha so'z aytishni lozim topdim:

- Iltimos, Yusuf, bunchalar o'zingni ezaverma... — dedim.
- Men doim sen bilanman, azizim... Otasiz qolish nimaligini bilaman, seni tushunaman.
- Meni qanday qilib tushunishing mumkin, Elif? — dedi.
- *Qo'rqqan chog'ingda otangning quchoqlagansan, bag'riga*

kirib xotirjam uxlagansan, otang ishdan uyga har gal qaytib kelganida yugurib qo'llaridan ushlab olarding, qo'llariga osilib o'ynarding... Do'stlaringga otang haqida aytib berar- ding, uning yonida ulg'ayding. Men hech kimga otam haqida aytib bera olmaganman! Xudo haqqi, nimani ham ayta olardim? U meni tark etganida juda ham kichkina edim. Hattoki yuzingni ham unutib qo'yganman. Meni quchog'iga olganmi, o'g'li sifatida suyib erkalaganmi — buni ham bilmayman. Undan shunchalar nafratlanar edimki... Bolaligimni onam tomonidan kaltaklangan holda o'tkazganimni aytaymi yoki bolalar uyida onamdan ko'ra vijdonsizroq tarbiyachilar qo'liga tushib qolganimni aytaymi? Sen meni aslo tushuna olmaysan... Qalbimda qanday bir bo'shliq yashayotganimni ham tasavvur qila olmaysan!

Endi ma'lum bo'lyapti, men yigirma yil birga yashagan odam, menga g'amxo'rlik qilgan odam otam ekan... Men u odamni Rifat aka deb katta bo'lganman, bulardan sening xabarining bormi? U insonning uyining bir xonasida qanchadan qancha tunlar davomida Xudodan otam bilan qovushtirishni so'rab duolar qildim. Mening qalbimdag'i orzularning vayron bo'lganligini, tushkunliklarni sen qayerdan ham bilarding? Bolaligim azoblanyapti, Elif... Jonim shunchalar azoblanyaptiki...

Eshitganlarimdan hayratda qolganim tufayli tilim kalimaga kelmay qolgandi. Yusuf bularning hammasini yig'lab aytib berar ekan, o'zimni ushlab turolmasdim. Gapirar ekan o'pkasidan chiqqan har bir yig'i nafasi mushtga aylanib, mening tanamga urilardi. U yig'lar ekan, mening ham jonim azoblanayotgan edi. *Inson qaysi azobning ostida ezilsa, o'sha azobning asiriga aylanar ekan. Kimdir ota-onasidan ayrilib qolganligining azobini ko'radi, kimdir farzandidan ayrilib qolganining azobini tortadi,*

kimdir sevgilisidan ayrilib qolganining azobini chekadi... Oqibatda har kim o'z qayg'usining yukini o'zi ko'taradi. Kim qaysi g'am-tashvish ostida azoblansa, u uchun bu g'am-tashvish dunyoning eng katta azobiga aylanadi.

Qalbimning to'r-to'ridan: "Mana, qara, axir, otang tirik, ustiga-ustak hamisha sen bilan birga bo'lgan ekan", — deya unga tasalli berishni istardim, lekin bu uning jahlini yanada chiqarishini bilardim. Axir, u to'g'ri gapni aytgandi-da... Haq edi-da... Keyin qo'lini qo'llarimning ichiga oldim-da, yoniga o'tirdim va:

— Xo'sh, u sening kim ekanligingni bilmaydim? Nega bunday bo'ldi? — deya so'radim.

Yusuf yutingan holda tushuntira boshladi:

— Kecha uyga bormagandim, restoranda tong ottirdim. Qarasam, tushdan keyin uyg'ongan ekanman. Qornim juda och edi, nonushta (to'g'rirog'i, tushlik) uchun nimadir tayyorlayotgan edim. Pochtachi kelib Rifat akani so'radi, unga bir xat olib kelgan ekan. Pochtachiga Rifat aka ayni damda bu yerda emasligini, kerak bo'lsa, xatni o'zim olishim mumkinligini aytdim. Menga berdi... Qarasam, bu Perihan onamning nomidan uning advokati tomonidan yuborilgan bir xatjild.. Xatda nima yozilganga juda qiziqdim... Rifat akaning kelishini kutolmadim. "Perihan onamning mendan yashirishi mumkin bo'lgan nimasi bor ekan?" — deya hayajon bilan xatni ochdim va o'qiy boshladim. Maktubning boshini o'qir-o'qimas Perihan onamning vafot etganini tushundim, bundan juda ham xafa bo'ldim, qalbim vayron bo'ldi. Xatni o'qishni davom ettirar ekanman, uning men haqimda yozila boshlangan satrlariga keldim. O'qir ekanman, bo'g'zimga nimadir tiqilib, boshimdan qaynoq suv quyilgandek bo'ldi. G'azab-u nafratim tufayli yuragim ko'krak qafasimni yorib chiqar darajada urardi. O'lishni xohlardim... Xat oxirida:

“Men ham bu yolg ‘onga sherik bo ‘lib o ‘lyapman. Vijdonim meni tinch qo ‘ymayapti, Rifat. Yusufga otasi ekanligingni ayt, ukaginam”, — deya yozilgan edi. Bu satrlarni o‘qir ekanman, uning har bir so‘zida ming marta yiqildim, ming martalab ensamga o‘q uzildi... Ko‘zimni zulmat pardasi qoplab olgan edi, g‘azabdan ko‘r bo‘lar darajaga yetdim, birdan bir maqsadim o‘sha Rifat degan odamni o‘ldirish edi. Qalbimda borgan sari kuchayib, olovlanib borayotgan nafratni boshqa yo‘l bilan to‘xtatib bo‘lmaydigandek tuyulardi. Oradan ko‘p o‘tmay Rifat keldi, xatni yuziga otdim va undan hisob so‘ray boshladim. Avvaliga hech narsa deya olmadi, u sukut saqlagani sari mening nafratim yanada olovlanardi.

Qo‘limga pichoqni olib, ustiga bostirib borardim. U esa qo‘llarini keng yoyib: “Nima qilsang ham haqqing bor, hech narsa demayman. Yuragimga suq pichoqni”, — dedi. Qo‘limdan kelmadi... Yana qayta-qayta so‘radim. “Xudo haqqi, menga aytинг, nimalar bo‘lgandi? Menga bunday hayotni nima uchun ravo ko‘rdingiz?” — dedim. Shunda u nimalar bo‘lganini birmabir anglatdi. “Onang ichkilikboz, giyohvand ayol edi. Bu illatlardan qutulishi uchun, tashlashi uchun hamma narsani qildim, lekin, baribir, bular qutulishini istamadi. Natijada kelisha olmay qoldik. O‘shanday hayotga ortiqcha chiday olmadim, onangni tashlab ketdim. O‘sha payt ishlarim ham yomon ketayotgandi, onang meni umuman qo‘llab-quvvatlamasdi, menga aslo yordam bermasdi. Turkiyada hozirgi rafiqam Mehtap bilan do‘sit edim, vaqtı-vaqtı bilan biri-birimizga xat yozardik. Mehtap o‘sha paytlar oilali ekanligimni bilmasdi, men haqimda: “Tanishishimizdan oldin xotini bilan ajrashgan”, — deya o‘ylardi. O‘sha paytlar fagaqt Mehtapgina uzoqdan bo‘lsa qo‘llab-quvvatlardi, menga yordam berardi. O‘sha paytlar men uchun juda chorasisiz davr edi.

Keyin esa Turkiyaga keldim va birozdan keyin Mehtap bilan tur-mush qurdik. Sening hol-ahvoling haqida Germaniyadagi do'st-larimdan so'rab turardim, qyinoqlarga duchor bo'lganingni bil-ganimdan so'ng politsiyaga shikoyat qildim. Politsiya esa seni onangning azoblaridan qutqardi", — dedi. "Qarang-a! — deya qichqirdim uning yuziga qarab. — Siz meni qutqarib, qahramon ota bo'libsiz-da, shundaymi? Qahramon ota! Qarang-a! Meni qayerga olib ketishganini bilasizmi? Politsiya meni zulmkor onaning qo'lidan olib, vahshiy insonlarga to'la joyga yubordi! Siz mening hayotimni barbod qildingiz! Siz mening bolaligimni o'g'irladingiz!" — deya hayqirdim. "Bunday bo'lishini bilma-gandim", — dedi u ko'zлari yoshta to'lib. Meni qayerga olib ketishganidan xabari ham bo'lмагan emish. Otam mening qayerdaligimni topish uchun juda ko'p harakat qilibdi. "Nima qilsang ham, nima desang ham sen haqlisan. Oradan bir necha yil o'tgach, opamdan seni topishni iltimos qildim. O'sha paytgacha opam bilan mening munosabatlarim yaxshi emas edi, lekin vaziyatni tushuntirganimdan so'ng xafagarchilikni bir chetga surib, darrov seni qidira boshladi. Seni bir yil davomida qidirdi, topgach esa o'zining kimligini yashirib, seni o'zi bilan olib ketdi. O'shanda bo'lган voqealarning hammasini senga aytib berishni istar edi, lekin bizga nisbatan bo'lganing nafrating tufayli qochib ketishingdan xavotirda edi. Opamning o'zi ham falaj bo'lib qolgach, seni Turkiyaga yuborishga majbur bo'ldi. Germaniyada qoldirgan farzandim borligini xotinim Mehtapga ayta olmagan-dim. Opam buni bilardi, shuning uchun seni o'zining farzandi, omonati sifatida menga yubordi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, o'shanda bor barcha haqiqatlarni senga aytishim haqida opamga va'da bergandim. Ollohim meni balo-qazolarga giriftor qilsin. Opamga bergen va'damni bajara olmadim! Menga la'natlar bo'l-

sinki, senga hech narsani ayta olmadim, lekin seni judayam yaxshi ko'rardim", — deya yig'lab yubordi. "Siz menga mehrmuhabbat haqida gapiradigan bu dunyodagi eng oxirgi odamsiz! Men Perihan onamdan minnatdorman. Rafiqangiz Mehtap opadan ham minnatdorman... Ular sizning gunohlaringizni yuvmoqchi bo'ldilar... Lekin siz shunchalik qabih odamsizki, qo'llarimdan bolaligimni o'g'irlab ketdingiz. Siz mening hayotimni barbod qildingiz! Siz meni butunlay xarob qildingiz... Tizzalaringizni quchoqlab yig'lagan paytlarimda bunga qanday chidadingiz? Men bola edim, axir, hech narsani anglamaydigan yoshdag'i bir bola edim! Bularni menga qanday ravo ko'rdingiz, qalbingiz bularga qanday chidadi? Sizni ota deyish o'rniga aka deganimda vijdoningiz og'rimadimi?" — deya undan qilgan ishlaringin hisobini so'ray boshladim. O'zimni ushlab turolmadim. "Men sizni hozir o'ldirishni shunchalar istaymanki, so'z bilan tushuntirib berolmayman! Badanizingizni ilma-teshik qilganimdan so'ng ro'parangizda o'tirib, oqayotgan iliq qoningizni chuqur zavq bilan tomosha qilishni istayman va buni zarracha afsuslanmasdan qila olaman. Lekin bu siz bunday qilishimga ham arzimaysiz. Kimga nimalarni tushuntirishga urinyapsiz? To'g'ri, meni parvarish qildingiz, boqdingiz, o'qitdingiz. Agar shu ishlaringiz yordam beradigan bo'lsa, bular bilan vijdoningizni tinchlantirishingiz mumkin. Sizdan nafratlanaman! O'ttiz yillik umrimning har bir kuni uchun sizdan nafratlanaman!" — deya hayqirib yig'ladim. "G'azab-u nafratimni Rifatga sochsam, yengil tortaman, sokinlashaman, tinchlana manan", — deb o'ylagandim. Lekin bunday bo'lmadi: na g'azab-u nafratim ham so'ndi, na sokinlashib tinchlana oldim, Elif! Yillar davomida qalbimda ko'tarib yurgan toshning og'irligi yengillashmayapti...

O'zining otasi ekanligini bilgan odam bilan oralarida bo'lib

o'tgan suhbatlari haqida gapirar ekan, Yusufning yonoqlaridan ko'z yoshlar oqib tushardi. Qalbi g'azab-u nafratga to'la, lekin qiyofasi mehr-muhabbatga muhtoj bo'lган kichkina bolaga o'xshardi.

— Aytadigan gaplarimning hammasini aytganimdan keyin ichimdagи g'azab-u nafrat bilan ortimga ham qaramay bu yerga keldim. Bundan keyin u odamning yuzini ham ko'rishni aslo xohlamayman. Shu kungacha otamning meni tark etib ketganiga ko'nikishga harakat qillardim, lekin endi hammasi tugadi. Bundan keyin otamni o'lган hisoblayman...

Yusuf yig'lashdan charchab, holdan toygan edi. O'ziga kelishiga esa bir necha soat vaqt ketdi... Men unga hamdard bo'lishini, mana shunday tushkun vaziyatlarda madadkor bo'lishni istar edim, lekin qo'limdan hech narsa kelmasdi. Butun borlig'im bilan, butun bir sevgim, mehrim bilan qo'limdan kelganini qildim, ya'ni uni bag'rimga bosdim, xolos...

Ertasi kuni quyosh chiqayotganda uyg'a qaytar ekanman, umrimning oxirigacha uni hech qachon tushkunlikka tushirmslik haqida o'zimga va'da berdim. Boshimdan o'tkazgan kechin-malarimning doim bir sababi borligiga doimo ishonaman... Men har bir insonning bu dunyoda yashagan vaqt davomida o'z oldiga qo'ygan, erishishi shart bo'lган maqsadi borligiga ishonaman... Mening dunyoga kelishimdan maqsadim faqat o'qituvchi bo'lish emas, balki, shu bilan birga, butun hayoti katta notinchilikda o'tgan bu odam uchun suyanadigan bir tog', ishonadigan bir bog' bo'lishdir. Men shuning uchun yaratilganimning tananning har a'zosida, sochimning uchidan oyog'imning uchigacha his qilaman. Chunki unga oshiq edim va bu oshiqligim uning uchun qila olmaydigan hech narsa yo'qligini anglatardi.

Hamma narsa inson uchun... Ko'kka ko'tarilayotgan

quyosh, yuz bergan falokatlar, baxtli o'tgan soniyalar, kutilmagan yo'qotishlar, qayg'ular — bularning hammasi inson uchun... Har birimiz umrimiz davomida to'plagan tajribalari-miz bilan pishib yetiladigan bir parcha xamirmiz. Zamon esa o'zining bahaybat kapgiri bilan bizni barcha his-tuyg'ulari-mizni aralashtirishda, qorishtirishda davom etmoqda. Har bir kun o'tgan sayin ortda qoldirgan yaxshi yoki yomon narsalarni o'zlashtirib boramiz va oradan bir muncha vaqt o'tgach esa ko'zimizga aslo hal qilib bo'lmaydiganday, yechimini topib bo'lmaydiganday ko'ringan barcha kechinmalarni bemalol ortga tashlay olamiz. Bu bir qoida emas, chunki qoidalari buzilishi mumkin. Bu hayot deb nomlangan mexanizmning ishlash tamoyilidir... Agar shunday bo'lmasa edi, hech birimiz og'ir kunlarimizdan qutula olmasdik, balki ko'pchiligidan bir muncha vaqt o'tgach, hattoki hayotimizga ham nuqta qo'yishimiz mumkin edi. Shuning uchun ba'zi hollarda o'zimizni vaqtning ajoyib davosiga topshirishimiz kerak. Chunki insonga hech bir narsa har qanday noxushlikning o'tmishda qolganini ko'rish-dan ko'ra ko'proq huzur-halovat bermaydi. Bu bebaho, tengi yo'q tuyg'udir...

* * *

Yog'ayotgan qor Yer yuzidagi yovuzlikning ustini o'zining ulkan choyshabi bilan yopib olganday ko'rinar, devordagi taqvim dekabr oyining so'nggi haftasini ko'rsatar edi. Yusufning yuzma-yuz kelishiga majbur bo'lgan, kutilmagan haqiqati yuz bergenidan beri oradan oylar o'tdi va vaqt o'zining malhamlari bilan uning butun azoblarini yengillashtirdi, o'zini qo'lga olishga yordam berdi. Yusuf garchi ilk tanishgan paytlarimdagidek ha-

yotga doimo ijobjiy tomondan qaramasa-da, oxirgi noxush paytlaridagidek tushkun ham emas edi. Men har qanday vaziyatda, har qanday muammolarida va har doim uning yonida bo'lishga, biror-bir g'am-tashvishlar og'irligini yolg'iz o'zi ko'tarib yurishiga yo'l qo'ymasligimni his qildirishga va qo'limdan keladiganidan ham ko'prog'ini qilishga tayyor ekanligimni ko'rsatishga harakat qilardim. Axir, bu kimningdir yolg'izligiga sherik bo'lish mas'uliyati emasmi? Uning uchun qilganlarimning birortasini ham majburiyat tufayli yoki noilojlikdan qilmaganman, sevgi, muhabbatim yo'lida duch kelgan mashaqqatlarim meni azoblamagan.

Oshiq bo'lishning ilhombaxsh sadoqati bilan uning yonida bo'lish baxtiyorligidan rohatlanardim. Bir bolakayga g'amxo'rlik qilayotganimday Yusufga g'amxo'rlik qilish meni quvontirardi, ba'zan esa ba'zi bir qiliqlari asabimga tegardi, g'azab-lantirardi. Masalan, qish mavsumining qahraton sovuq ekanligiga e'tibor bermay, charm kurtkasi ostidan yupqa ko'ylak yoki futbolka bilan ko'chalarni aylanib yurardi. Ba'zi paytlar uchra-shuvga chiqqanimizda sochlarini yuvib, quritmay oldimga kelardi. O'ziga nisbatan bu beparvolik, o'ziga nisbatan bu shafqatsizlik meni aqldan ozdirish uchun yetarli edi. Ehtiyotsizlik tufayli ko'p marta shamollab, necha kunlar davomida isitma bilan kasal bo'lib yurgan bo'lsa-da, bularning hech biridan saboq chiqarmasdi, sog'lig'iga e'tiborsizlik qilaverdi. Balki, Yusuf mening hislarimni tushunmagandir, lekin uning joniga azob beradigan zarracha narsa ham meni juda chuqur qayg'uga solardi.

Ba'zida hazillashib, munosabatlarimizni tanishuv bosqichidan keyingi bosqichga olib chiqishimiz kerakligini aytardim. Turmush qurish yoshiga allaqachon yetgan qiz sevgan yigitidan boshqa yana nimani kutishi mumkin? Qachonki shu mavzuda

og‘zimni ochsam, g‘alati va murakkab jumlalar bilan har kim o‘ziga munosib odam bilan turmush qurishi kerakligini aytardi. Turmush qurish o‘zini qo‘rqtishini aytishdan chekinmasdi. Shunga hayronman: inson qanday qilib sevgan insonidan ham uzoq turishga harakat qiladi, ham yonida bo‘lishni eplaydi?.. Bunga aqlim bovar qilmas edi, lekin, shu bilan birga, kelajagi-mizga ishonar edim.

Agar kimnidir chin dildan sevsangiz, keladigan noxush hodisalar sevgilingizning boshiga emas, o‘zingizning boshingizga kelishini istaydigan darajada o‘zingizni kuchli his qilasiz. Ammo uning yo‘q ekanligi haqida o‘y-fikr ham sizning hayotizingizni barbod qilish uchun yetarli bo‘ladi...

Nihoyat, qish asta-sekin to‘rva-xaltasini ko‘tarib bizdan uzoqlasha boshladi. Bog‘imizdagи olxo‘ri daraxtining gullay boshlaganini ko‘rib, sovuq kunlar ortda qolganidan butun qalbim bilan xursand bo‘ldim. Afsuski, bu kunlar bizning hayotimizning eng quyoshli kunlari edi. Afsuski, hech bir fasl insonning yuragi-ga kelgan qora qish kabi qahraton sovuq bo‘lmasligini hali-hanuz bilmasdim...

*Yaxshi odamlarni, sizni chin dildan sevadigan
odamlarni yaxshilab, tanib bilib oling...*

*Chunki shamol har doim ham bir tomonga
esmaydi. Bir kuni pulingiz tugasa ham,
go'zallilingiz ketsa ham, shon-shuhratingiz
so'nsa ham, atrofingizda siz bilan qoladigan
insonlar bo'lsin.*

*Shunday kun kelarki, har bir kishi qalbini
ochishi uchun, dardlarini aytishi uchun
suyanchiq bo'ladigan yelkaga muhtoj bo'ldi...*

– VII –

Hammasi shu qadar ajoyib, shu qadar yaxshi, shu qadar chiroyli ketayotgandiki, qanchalar ta'riflasam, baribir, to'liq anglata olmayman... Bu munosabatlarda sevganini qo'llab-quvvatlagan, unga madadkor bo'layotgan inson faqat men ekanligimdan ko'rinishayotgan bo'lsa ham, Yusuf ham beixtiyor, o'zi ham bilmasdan yashirin yaralarimni topib, ularni davolayotgandi. Hayotga, ishonchga, sevgiga bo'lgan ishonchim yo'qolayotgan bir paytda Alloh uni mening qarshimga chiqargan edi. Lekin hamma narsa o'z yo'lida a'lo darajada keta boshlasa, avvalgilardan ham fojiali kechinmalar boshimizga tusha boshlaydi... Oqibatda bizda ham shunday bo'ldi...

O'sha kuni baxtli bir tongni qarshilagan holda uyg'ongan-dim. Maktabdag'i darslar tugaganidan keyin Yusuf bilan uchrashmoqchi edim. O'sha kuni ertalab ulkan bir quvonch va hayajonga to'lgan edim. Tashqariga chiqar ekanman, aprening mushkanbar kabi yoqimli havosidan nafas olardim. Bahor go'yoki tabiatga emas, mening qalbimga kelgandek edi. Yusuf bilan kechqurun ko'rishiшимиз haqidagi shirin xayollar bilan yosh bolakaydek xursand bo'ldim. *Agar siz kimnidir sevsangiz va u tomonidan ham sevilganingizni his qilsangiz, demakki, kichik,*

arzimas narsalar bilan ham baxtli bo'lishingiz mumkin. Chunki insonning ruhiyati, kayfiyati qanday bo'lsa, boshqalar ham unga shunday ruhiyat va kayfiyat bilan munosabatda bo'ladi.

Yana ikkita darsdan keyin maktab mashg'ulotim tugardi. Hozir esa tanaffusni maktab bog'ida o'tkazish uchun chiqqan-dim. Basketbol maydoni atrofidagi skameykalarda bir qancha o'quvchilar va o'qituvchilarning o'zaro gaplashib, kulishayot-ganlarini ko'rdirdim. Men ham ularga qo'shilmoqchi bo'lib yon-lariga ketayotgan edim, lekin keyin nima bo'lganini eslolmay-man... Turgan joyimga yiqilib tushibman va umrimda ikkinchi marta shifoxona palatasida ko'zlarimni ochayotgan edim.

O'zimni juda charchaganday his qillardim. Dunyolari se-vishga yetgan yuragim endi meni hayotda ushlab turishga yetma-yotgan edi... Shifokorlar hech nima bo'limganligini aytdilar. Yuragim borgan sayin yemirilib borayotgan ekan, ikki yil ichida yurak transplantatsiyasini amalga oshirishim kerak edi. Shifo-korim yurak transplantatsiyasi juda muhimligini aytdi. Biroq mos yurakni topish oson emas edi. Shu bilan birga, tana a'zolari transplantatsiyasi uchun ham navbat bor ekan. Ba'zan o'z nav-batining kelishini hattoki yillar davomida kutish kerak bo'lishi ham mumkin ekan.

Sog'ligim vaqt o'tgan sayin tobora yomonlashdi. Men ishdan navbatdan tashqari ta'til oldim va shu haftaning o'zidayoq meni kasalxonaga yotqizishdi va nazorat ostiga olishdi. Onam bir lahma bo'lsa ham yonimdan keta olmadi, hattoki uyimizga bora-digan yo'lni ham unutib qo'ygandek edi. Ayrim kechalarda Yusuf ham mening yonimda tong ottirardi. Meni ko'rishga kel-magan biror-bir kuni yo'q edi. Bir kuni kechasi Yusufning sochimni silayotganini his qildim va uyg'onib ketdim. Uning o'zi

esa meni uyg‘otganini ham sezmagan edi. Mening ahvolimdan shunchalar ezilgan ediki, hech kimga ko‘rsatmay, yashirincha ko‘z yosh to‘kardi. U ora-sira burnini tortib, yuzini artib turardi. Ovoz chiqarolmadim, og‘zimdan chiqmagan har bir so‘zni ichimga to‘kib, men ham ich-ichimdan yig‘lardim. Qalbim ko‘zlari esa qonli ko‘z yoshlari bilan yig‘lardi... Xonada yolg‘iz qolar ekanman, o‘zimni boshqa ushlab turolmadim, baqirib yig‘lab yubordim. Butun hayotim davomida bunchalik yig‘laganimni eslolmayman. Ilgarilari na kasallikka, na o‘limnga ahamiyat qaratardim. “Taqdir shunday ekan”, — deya beparvo ohangda gapira olishim mumkin edi, lekin hozir unday emasman... “Allohim, hozir vaqt emas! Iltimos, yordam ber... Axir, sevgimni endigina topdim, iltimos, menga yana biroz vaqt ber...” — deya duo qilar-dim, yolvordim...

Meni ko‘rishga kelganlarga hech narsani sezdirmasdim, ammo ichimda pichoq yashirinib turardi. Ruhimning butun insoniy a’zolarini kesib olayotgan edi... Birinchi marta o‘limdan shunchalar qo‘rqdim. Xuddi tuvakdag‘i gulga o‘xshab bir joyda turishim ruhan adoyi tamom bo‘lishim uchun yetarli edi. Internetga kirib, borishni istagan joylarimning rasmlarini ko‘rib, o‘zimni yashash uchun kurashga rag‘batlantirardim. Bu orzum haqida Yusufga bir marta aytgandim. U yuzimga egilib, ko‘zlarimning ichiga tikilar ekan, jilmayib qo‘ydi va:

— Ahvoling yana biroz yaxhilansin, keyin qayerga borishni xohlasang, o‘sha yerga birga boramiz. Shifokor ham ahvoling tobora yaxshilanayotganini aytdi, — dedi.

Uning yuzini qo‘llarim bilan silab:

— Sendan juda ham minnatdorman, — dedim.

Lekin, afsuski, ahvolim yaxshi emasligini, aksincha, borgan sayin yomonlashayotganimni bilardim. O‘tgan kuni ko‘zimga

uyqu kelmay shunchaki ko'zlarimni yumib yotar ekanman, onam bilan Yusuf mening uxlab qolganligimga ishonch hosil qilib, o'zaro pichirlashib gaplasha boshlashdi. Men esa o'shanda ularning hamma gapini eshitib, lekin o'zimni eshitmaganga solib yotaverdim. Yusuf yig'lab yuborgan onamni jon-jahdi bilan, chorasizlik bilan, qo'lidan kelgancha yupatardi. Lekin hozir Yusufga o'sha kungi suhbatni eshitganimni, ahvolim qanaqa ekanligini bilishimni sezdirmadim, shunchaki tabassum qilib, minnatdorchilik bildirdim. O'shanda menga tanish-notanish bo'lgan bir qancha insonlar meni ko'rishga kelishdi. Hatto Serhat bilan onasi ham kelgandi va tezroq sog'ayib ketishimni tilashgandi.

Kelganlarning ko'pchiligi: "Voh-voh, naqadar go'zal qiz ekan... E hali ancha yosh ekan, bechoraga jabr bo'libdi..." — deya achinishar, o'zaro pichirlashgan holda gaplashishar, menga rahm-shafqatga to'la ko'zlar bilan tikilishar edi.

Meni ko'rishga kelganlar ko'z o'ngida go'yoki odamlar uzoqroq turishim kerak bo'lgan bir moxov kabi edim va mana shunday tuyg'ularini o'zimga ham his ettirardilar, bu holat esa menga umuman yoqmasdi. Dugonam Melike ishidan mehnat ta'tilga chiqqach, eridan ruxsat olib, menikiga keldi. Yusuf bilan ham tanishdi. U meni aslo yolg'iz qoldirmadi, ba'zi kechalar onamning biroz dam olish uchun mening yonimda qolardi. Ichimda saqlagan va hech kimga ayta olmagan dardlarimni, tuyg'ularimni u bilan bermalol dardlashdim. Melike kulgan paytlarim menga qo'shilib kulardi, yig'lagan paytlarim hamdard boilib yig'lardi. Uning mening yonimda bo'lishi menga kuch berardi. Chunki *ba'zi narsalarni oila a'zolaringizga, sevgilingizga, yaqinlaringizga va hatto turmush o'rtoq'ingizga ayta olmaysiz, lekin eng yaqin do'stingizga aytishingiz mumkin*. Men ham har bir dardimni Melike bilan dardlashib, tinchanardim, xotirjam

bo'lardim. Ammo vaqt o'tgan sayin ahvolim yomonlashardi. Kundan kunga holsizlanayotganimni his qilardim. Ba'zi paytlar nafas ololmaganim tufayli uyg'onib ketardim. Kasalxonaga yotqizilganidan beri juda ozib ketdim. Yusuf so'nggi paytlarda avvalgidek yoningga ko'p kelmayapti. Mening sog'lig'im vaqt o'tgan sayin yomon tomonga o'zgarayotgani asta-sekin unga ham ta'sir qilayotganligini o'ylardim.

Axir, men endi o'zimga qaray olmayotgandim-da, eng go'-zal qiyofalarim bilan uning qarshisiga chiqqa olmayotgandim-da. Yusuf ahvolimni ko'rib turardi, menga nisbatan e'tibori asta-sekin pasayib borayotganidan xabardor edim... Kela olmagan kunlarida doimo qo'ng'iroq qilardi. Ammo oxirgi paytlarda haftada bir yoki ikki martagina ko'rishga keladigan bo'ldi. Borabora kelmagan kunlari qo'ng'iroq qilib, hol-ahvolimni so'rashni ham to'xtatdi. Bir kuni onamning unsizgina yig'lab o'tirganini ko'rib qoldim. Onamni bu holda ko'rib men ham yig'lab yubordim. Onam ham men bilan birga yig'lar ekan: "Sen, albatta, ya-shaysan, qizim! Nima qilib bo'lsa ham, o'sha yurakni topamiz. Chet elda ham gaplashib turgan odamlarimiz bor. Sen, albatta, tuzalib ketasan, xavotir olma", — deya meni yupatishga urinardilar. Lekin onam meni yig'latgan holat kasalligim emas, balki hattoki mana shu xasta yuragim bilan ham his qilayotgan tark etilish xavotirim ekanligini bilmas edi... Yana Melikega butun dardlarimni to'kib soldim va:

— Men uqlab yotgan paytlarim Yusuf keldimi? — deya so'radim.

Melike esa boshini ikkita tomonga bir necha bor chayqadi. Shunda bildimki, Yusuf kelmagan.

Melike keyin meni biroz chalg'itish uchun erkaklar haqida biroz gapirdi. Erkaklarning his-tuyg'ulari qanchalik beqaror

ekani, ayollardan qanchalik tez zerikib qolishlari, yuz bergen biror bir o'zgarishga tezda ko'nika olmasliklari, darrov ajrashib ketishlari haqida gapirib berdi. O'zining tur mush o'rtog'i haqida ham bo'lar-bo'lmas gaplarni aytardi. Go'yo bir nimalarni aytishni istardi-yu, lekin aytu olmayotgandi. Gapini olib qochib, bo'lar-bo'lmas boshqa gaplarni aytib, meni chalg'itishga urinar edi.

— Nimadir bo'ldimi, Melike? — deya so'radim.

— Hech narsa bo'lgani yo'q, — dedi.

Yolg'on gapi rayotganini nigohlaridan sezib turardim. Lekin shunday bo'lsa, indamay turishni, sukut saqlashni tanladim.

Melike birozdan so'ng xo'rsinib yonimga keldi va cho'nta-gidan telefonini chiqarib oldi. Menga Yusufning sariq sochli bir go'zal ayol bilan quchoqlashib tushgan suratini ko'rsatdi. Suratda Yusuf baxtdan jilmayib turardi. Ustiga-ustak, men bilan bo'lgan paytlari hech qachon bunchalik baxtli bo'l magandek jilmayib turardi. *Inson o'z qalbini kemiradigan biror-bir noxush his-tuyg'ularni his qilsa, o'sha noxush his-tuyg'ular darrov haqiqatga aylanadi...* Menda ham shunday bo'ldi. Bir necha kundan beri qalbimni kemirib yurgan noxush bir tuyg'u Yusufni barmoqlarimning orasidan sug'urib olayotgandek edi. Axir, Yusufdan ayrilib qolishni aslo qabul qila olmasdim, xayolimga ham keltira olmasdim. Lekin shunday bo'lishini bir necha haftalar oldin his qilgandim... Oradan bir necha soat o'tgach, bitta derazali kichkina xonamning eshigi ochildi va Yusuf kirib keldi. Undan Melike boyaga ko'rsatgan fotosuratning hisobini so'ramoqchi edim-u, lekin uni butunlay yo'qotishdan ham qo'rqedim. Kulimsirab:

— Xush kelibsan, — dedim.

Yig'laganlarimdan, yolvorganlarimdan, o'limdan qo'rqiб, undan panoh izlaganlarimdan, bag'riga otilishni istagan payt-

larim bo'lganidan aslo xabari yo'q edi. Bu kechinmalarimning hamma-hammasini qalbimga ko'mdim va tabassum qildim, xolos...

— Kechirasan, aybga buyurma, Elif, bir qancha vaqt dan beri yoningga kela olmadim. Biroz ishlarim bor edi, o'shalar bilan ovora bo'lib qoldim, — dedi.

Sababini bilmayman-u, lekin birinchi marta Yusufning ham boshqalar kabi menga achingan nigohlar bilan tikilayotganini his qildim. Uning aytgan bu ishonarsiz yolg'oniga ishongandek ko'rinishdan boshqa ilojim yo'q edi. Keyin esa butun bir sevgim bilan, butun bir qalbim bilan, jamiki yaxshi niyatlarim bilan unga javob qaytardim::

— Ishingni hal qilgan bo'lsang bo'ldi, hechqisi yo'q, sevgi-lim, — dedim. — Ammo oxirgi paytlar kelmay qo'yaningdan juda xavotirga tushgan edim. Vaqtı-vaqtı bilan ora-chora senga qo'ng'iroq qildim, lekin senga bog'lana olmadim. Rostini aytadigan bo'lsam, biroz qo'rqib ketdim. Xabar olish uchun yonimga kelmasang ham, hech bo'limganda, vaqtı-vaqtı bilan o'zing haqingda menga xabar berib tura olasanmi? Butun o'y-xayolim, fikri-zikrim senda qolyapti...

— Nega butun o'y-xayoling, fikri-zikring menda qolyapti, Elif? Qarang, axir, sevgan insonlaring har doim sening yoningda. Men ham bir necha haftalar davomida sening yoningda bo'ldim, lekin qiladigan, yo'liga solib yuborishim kerak bo'lган bir qancha ishlarim bor edi. Axir, shuning uchun bu yerda har soniya qola olmayman, qilayotgan ishlarim haqida har doim senga hisobot bera olmayman. Qo'limdan kelganicha sening yoningga ke-lib turishga harakat qilyapman, — dedi.

O'zi esa bu gaplari bilan meni qanchalik azoblayotganini tushunmasdi. Aslini olganda, u to'g'ri gapirayotgandi, haq edi...

Qaysi erkak kelajagi noma'lum bo'lgan, sog'ayish-sog'aymasligi noaniq bo'lgan bir ayol bilan birga bo'lishni istardi?..

Lekin shunga amin edimki, agar u mening o'mnimda bo'lganida men uni hech qachon yolg'iz tashlab ketmasdim. *Kimnidir butun qalbingiz bilan sevishingiz ba'zi bir qurbanliklarni talab qiladi. Ba'zan uning qo'llariga aylanishingiz kerak bo'ladi, ba'zan uning ko'zлari bo'lasiz, ba'zan esa oyog'i bo'lib yurasiz... Agar inson kimnidir chin diliidan sevsa, sevganining ehtiyoj tuygan, yetishmayotgan tomonlarini o'zi bilan to'ldirishga majbur bo'lgani his qiladi. Aks holda, sevgi maysa yoki hasharotni sevishdan qanday farq qilardi?*

Yusufning yonimga so'nggi bor kelganidan so'ng oradan yetmish ikki kun o'tdi... O'sha kundan keyin har kun, har soat, har daqiqa uning eshikdan kirib kelishini kutaverdim. Dahlizda eshitilgan qadam tovushlari uniki bo'lib chiqishi uchun duo qila-verdim va har gal telefonim jiringlar ekan, hattoki ekraniga ham qaramay bag'rimga bosib, qo'ng'iroq qilayotgan inson Yusuf bo'lishini istardim. Ammo bu vaqt ichida u bir marta ham kelmadni, biror marta ham qo'ng'iroq qilmadi va men ham u haqida biror-bir xabar eshitmadim...

Melike ham uyiga qaytib ketdi, natijada esa men endi butunlay yolg'iz qoldim. O'zimni yuragim tobora sovib borayotganidek va yashashga endi hojat qolmagandek his qilardim. *Qachonki inson o'zining og'ir yuk ostida qolganini his qilsa, qachonki hamma narsadan voz kechsa yoki ishonchini yo'qotsa, Alloh taolo mo'jiza yuborib, uni yana bir yangi umid bilan hayotga bog'laydi. Har kim sizdan bir kun yuz o'girib ham, Yaratgan sizni hech qachon yolg'iz qoldirmaydi. Allohga beedad shukrlar bo'lsin...* Hayotga nisbatan jamiki ishonchim yo'qolib, umidim so'nib qolgan shunday bir kunlarning birida

onam chinqirib-baqirib oldimga keldi. Ham yig'lar edi, ham baqirar edi...

— Yaxshi xabar, Elifim! Yaxshi xabar, qizginam! Senga mos keladigan yurak nihoyat Kiprдан topildi. Uni allaqachon samolyot orqali yuborishibdi. Hatto uni olib kelish uchun aeroportga ham borishdi, qizginam, — deya yugurib kelib, mening bag'rimga otildi.

Onam boshini bag'rimga qo'yib, xursandchilikdan ko'z yosHLarini to'kar ekan, men tomog'imda esa mushtdek bir umidsizlik, ayriliq tuyg'usi o'sib borardi. Men quvonchdan yig'lashim kerak edi. Aslini olganda, onamga o'xshab xursandchilikdan chinqirib yig'lashim kerak edi... Axir, Yusufni sevgan bu yurak ko'ksimdan yulib tashlanar edi-da. Eng yomoni Yusufning o'zi ham men bilan emas edi. Tezda meni olib ketishdi va operatsiya tayyorlay boshlashdi. Yurak donordan olingandan so'ng bir necha soat ichida boshqa bir insonga ko'chirilishi kerak edi-da. Bu operatsiya mening oxirgi imkoniyatim ekanligini bilardim. Lekin atrofimdan shoshilib yugurayotgan odamlar kabi shoshmayotgan edim, sokin edim.

Narkoz berilishdan oldin: "Allohim, iltimos, uyg'onganimda Yusuf yonimda bo'lsin..." — deya qalbimning eng churqur joyidan qilgan iltijomni eslayman. O'zimga kela boshlaganimda birinchi qilgan ishim Yusufning qalbimdag'i o'mini aniqlash bo'ldi.

His-tuyg'ularim avvalgisidan farq qilmasdi. Uyg'onganimda uni ko'ra olmaganimdan hafsalam pir bo'lganini, umidsizlikka tushganimni so'z bilan tasvirlab berolmayman. *O'shanda tushundimki, insonlar qalblari bilan emas, ruhlari bilan sevishar ekan. Shuning uchun ham ba'zi bir ishqlar inson o'lsa ham tugamas ekan...* Tikuvchi Reyhan opa xayolimga keldi, uni

yarim hushsiz holimda xayolimda tasavvur qilardim. U ham Yilmazni ruhi bilan sevgan ekan...

Operatsiyadan keyin oradan bir necha kun o'tdi va endi o'zimni yanada yaxshi his qilayotgandim. Ammo azoblarim ham, og'riqlarim ham hali-hanuz davom etardi. Birdan bir, yagona istagim, Yusufning yonimga kelishi edi, bir marta bo'lsa ham hol-ahvolimni so'rashi, qo'ng'iroq qilishi men uchun yetarli edi, lekin u bilan bog'liq biror-bir o'y-xayolim ham kutganimdek bo'lmasdi. Ko'zlarim shifoxonadan chiqadigan kunimgacha Yusufni qidirardi. Oylar davomida kutdim... Butun bir yil davomida kutdim...

Axir, o'ttiz yoshga to'lgunimcha kitoblarda o'qigan o'sha buyuk muhabbatni kutayotgan edim-da... Haqiqiy ishqning meni topishiga ishonib yashardim. Jamiki hissiyotlarim bilan sevib qolgan odamim, kutayotgan insonim, meni o'ziga bog'lab olgan, meni o'zining bir parchasi ekanligimni o'zimga his ettirgan o'sha odam barcha orzu-havaslarimni quchog'imda qoldirib ketgan edi. Bu esa mening sevgiga bo'lgan ishonchimni va odamlarga bo'lgan ishonchimni vayron qilgandi. Bu shunday bir yo'qotish ediki, yo'qotgan tuyg'ularni endi hech qachon qaytarib ola olmasligimni bilardim. Uni unutishga hech qachon harakat qilmadim, chunki buning iloji yo'q ekanligini bilardim. U menga hayotimning eng ajoyib lahzalarini baxshida qilgan inson edi, shunday ekan, uni qanday qilib unuta olardim? Ammo shuncha paytdan buyon dom-daraksiz bo'lib ketganiga ham va endi hech qachon mening yonimga qaytib kelmasligiga ham ko'nikkan edim.

Endi u kelgan bo'lishi mumkinligini o'ylab eshiklar tomon yugurishni ham, qo'ng'iroq qilgan-qilmaganligini o'ylab har daqiqada telefonga qarashni ham bas qildim... Hatto yuz martalab qo'ng'iroq qilsam-da, bir marta bog'lana olmagan raqamini ham

telefonimdan o'chirib tashladim. Maqsadim uni unutish emas edi, balki uning yo'qligiga ko'nikishim uchun nima kerak bo'lsa, shularning hammasini qilish edi. Balki, buni eplay olmagandirman, lekin endi avvalgidek ezilmasdum, jonim azoblanmasdi va qaytib kelmayotgani uchun yig'lab o'zimni azoblar iskanjasiga otmasdim. Hattoki uning qaytib kelishini ham xohlamasdim. O'lim bilan yuzma-yuz yurgan o'sha kunlарimda meni yolg'iz tashlab, tushkunlikka solib qo'chib ketgan odamga hammasi o'z o'miga tushgan bu paytlarda quchoq ochishga yetadigan kuchim yo'q edi. Sevgi, haqiqatan ham, eng tushkun kunlaringizda yordam beradigan eng samarali doridir, yaxshi kunlaringizda esa faqat aldovdan iborat, xolos... Endi esa hayotimning o'sha eng yaxshi kunlari butun hayajonimni va baxtiyorligimni ko'mib tashlashim kerak bo'lgan ulkan bir axlatxonadan boshqa narsa emas edi...

Boshimdan qanday kechinmalarni o'tkazgan bo'lsam, bularning bari vaqtning kulga aylantiradigan kuchining qarshisida maydalanib, yo'q bo'lib ketayotgan edi. Oldimda ulkan tog'dek bo'lib turgan, hech qachon ortda qolmaydigandek, tugamaydigandek his qilgan o'tmishimning alamli kechinmalari asta-sekin xotiramdan yo'qolib borardi. Ishimga qaytadigan darajada, yetarlicha sog'ayganimdan so'ng mакtabdagи ishimga qayta tiklashlarini so'rab ariza yozdim. Ishlayotgan maktabimni ham, o'quvchilarimni ham juda sog'ingan edim. Balki, bu harakatlarim, hali-hamon ichimdagи to'la-to'kis tinchimagan bo'rondan qutulib, qayerlardandir panoh topish uchun qilgan urinishimdir. Bunisini bilmayman...

2012-yilgi o'qish davri boshlanishi bilan ishimni boshlashim mumkinligi haqidagi xabarni eshitganimda juda xursand bo'ldim. Demakki, to'rt oydan keyin yana o'z ishimni boshlay-

man.

Maktab boshlangunga qadar o'zimni chalg'itish va kun-larimni huzur-halovat bilan o'tkazish uchun o'y-fikrimni bir ni-malar bilan band qilishga harakat qillardim. Endi onam bilan ko'proq vaqt o'tkazardim, birga u-bu narsalarni xarid qillardik, avvalgidan ko'ra ko'proq kitoblar o'qirdim. O'qiyotgan kitob-larimning bo'sh joylariga eslatmalar yozib qo'yardim.

Ishq insonni ham gado qiladi, ham shoh qiladi, kimlarni-dir shoirga aylantiradi, kimlarnidir she'rga aylantiradi... O'zimni kimningdir yuragiga yozilgan she'r sifatida ko'rardim, lekin uning qalbidagi jumla emas ekanman... Manzilini bilma-ganim uchun aslo jo'nata olmasligim aniq bo'lgan, ammo Yusuf-ning o'qishini istaganimni bildiradigan xatlar yozardim. Uni juda sog'ingan, lekin voz kechishga ko'nikkan paytlarim quyidagilar-ni yozgandim:

Bugun mendan voz kechib ketgan kuningdan buyon o'tgan kunlarni sanashni bas qildim. Vaqt go'yoki hech kimi yo'q yetim boladek kaftlarimda ulg'ayyapti. Na kunlarning va na yillarning oldini kesib chiqishga urinyapman. Qo'rqqan narsalarni ko'rmaslik va eshitmaslik uchun ko'zlarining va quloqlaringizni ber-kitib olasan va natijada go'yoki momaqaldiroqning ovozini eshitmaganga, chaqmoqlarni ko'rmagan olganingdek qo'rquvlar biroz yengillashdi. Mening qo'rquvim bularga o'xshamaydi. Vaqt mana shunday tarzda sensiz o'tib ketishidan juda qo'rqa-man. Va shunga ishon: na ko'zlarimni yumishim, na quloqlarimni bekitishim vaqtning bunchalar tez va sensiz o'tishiga to's-qinlik qila oladi...

Qachondir seni aslo tanimagan kunlarimga qayta olaman-mi — bunisini o'zim ham bilmayman. Rostini aytadigan bo'lsam,

o 'sha kunlarga qaytishni juda-juda istayman.

Chunki sendan butun umidlarim bor bo 'y-basti bilan uzilgan holdaman. Bunday holatning eng qo 'rquincli ko 'rinishi ni-ma ekanligini bilasanmi?.. Sendan biror-bir umidim qolmagan bo 'lishidan qat'i nazar, hali-hamon seni juda-juda sevaman. In-son kimnidir sevib qolsa, uning yo 'llariga to 'rt ko 'z bilan poylayveradi, garchi qaytib kelmasligini bilsa ham... Na voz kechib keta olasan, na kutganiningni biror-bir nafsi tegadi... "Ko 'rishmag'an kunlarimizni sanashni bas qilsam, senga bo 'lgan muhabbatimning buyukligini unutaman", — deb o 'ylayman. Haqiqatan ham, shunday bo 'lishi mumkinmi yoki mumkin emasmi — buni-sini bilmayman, lekin bunchalar buyuk sevgi meni qo 'rqityapti. Shu yerlarda, yaqin atrofda ekaningni bila turib sendan uzoq-roqda yashashga urinish, qo 'llaringni ushlay olmaslik, ko 'z-laringga qaray olmaslik, kipriklaringga tegina olmaslik meni o 'ldiryapti, yo 'q qilyapti! Balki, bu tuyg 'ularni hech qachon his qilmaganing uchun senga gaplarim g 'alati tuyular, lekin mening o 'rnimda bo 'lganiningda yashay olmasding.

Yana qancha vaqt shunday davom etadi — bu haqida biror-bir fikrga ega emasman. Bular haqida o 'ylashni allaqachon to 'xtatganman. Uzoq vaqt dan beri istayotgan birdan bir, yagona tilagim — go 'zal tong bilan uyg 'onish, xolos. Chunki kunn'i qanday kayfiyatda boshlasang, kun oxirida boshingni shunday kayfiyat bilan yostiqla qo 'yasان. Kun davomida to 'plangan barcha azoblar, og 'riqlaring, g 'am-tashvishlar, go 'yoki sendan oldin yostig 'ingga bosh qo 'yganday bo 'ladi. Oqibatda esa uxtay olmaysan... Shunaqa emasmi?.. Ko 'rdimki, yillar o 'tib ketgandek sen ham o 'tib ketibsani. Ortda qolgan davrlar ko 'z ochib yumguncha o 'tib ketgandek bo 'lsa, nega seni o 'ylagan lahzalar hech qachon o 'tmaydigandek tuyulyapti menga? Nega

hali-hamon bo 'g'zimga tiqilib qolgansan, nega hattoki ismingning xayolimga kelishi ham nafas olishimga yo 'l qo 'ymayapti?

Mana shularning barchasini o 'ylar ekanman, mana shunday boshi berk ko 'chadan chiqishga urinar ekanman, sen esa bu paytda, balki, hayotingda butunlay yap-yangi sahifa ochgandirsan. Seni hali-hamon sevishda davom etayotganimdan xabaring yo 'q, sezmayapsan, hali-hamon sevishimni his qilmayapsan. Axir, oxir-oqibat, ba 'zi kechinmalarga nuqta qo 'yish yangi boshlanishlarni, yangi qadamlarni, yangi kechinmalarni talab qilar ekan. Sen esa allaqachon bu nuqtani qo 'ygansan, yangi boshlanishlarni, yangi qadamlarni, yangi kechinmalarni boshlagansan...

Har kim ajoyib kunlarni yashashga haqli va shunga ishonki, sen shunday kunlarni yashashga qanchalar haqli bo 'lsang, men ham shunchalar haqliman.

Mening ajoyib kunlarim arzimas bir hikoyadan kutiladigan yakun kabi bir nihoya edi. "Hamma narsa sen bilan boshlanganidek yana sen bilan ham davom etadi, har narsa sen bilan ajoyib bo 'ladi", — deb o 'ylagandim. O 'z hikoyamga nisbatan qarama-qarshi, zid harakat qilishimni aslo o 'ylamagandim, o 'z hikoyamda o 'zimning baxtsiz bo 'lishimni aslo xayolimga keltirmagandim. Endi esa bu kechinmalarimni taqdir, nasiba, qismat, hikmat kabi so 'zlar bilan nomlashni xayolimga ham keltirmayaman. Nima bo 'lishidan qat 'i nazar, bu kechinmalarimga biror-bir nom berishni istamayman. Qanday bo 'lgan bo 'lsa, shundayligicha qolishi lozim ekan, xolos. Biz ikkalamiz aslo birga bo 'lmadik, bo 'lmaymiz, bo 'la olmaymiz ham...

O 'ylaymanki, hayotingni go 'zalliklar aslo tark etmas. O 'ylaymanki, sen aslo ega bo 'la olmaydigan nimaningdir yetishmasligi tufayli bir kun qalbing olovlar ichida yonmas. Bu shun-

day ojizlikki, shunchalar nochorlikki, hattoki agar dushmanim bo 'lsa, ularga ham bunday nochorliklarni ravo ko 'rmayman. Sen ham bunday ojizlig-u nochorlikka aslo duch kelma, bunday onlarni aslo boshingdan o 'tkazma...

Ba'zi bir ishlar o 'z o 'rniga tusha boshlaganini, o 'z yo 'liga chiqa boshlaganini his qilyapman. Bugun sensiz o 'tgan kundlerimni sanashni to 'xtatdim, ertaga senga xat yozishni to 'xtataman... Bir kun ko 'rasanki, vaqt kelib dahshatli tushdan uyg 'ongandek bularning birortasi haqiqat emasligiga shukr qilib, yig '-layman. Bir kun ko 'rasanki, vaqt kelib hattoki xayolimdan ham chiqib ketasan, endi aslo eslamaydigan darajada seni unutaman va sen bilan o 'tgan kunlarim, sen tufayli boshimdan o 'tkazgan kechinmalarim aslo bo 'maganday hisoblayman.

Boya aytganimdek, qayerda bo 'lsang ham, nimalar qilayotgan, bo 'lsang ham, o 'ylaymanki, hayoting, ishlarining o 'z o 'rnida yaxshi ketayotgandir. Agar hech bir ishing o 'z o 'rnida yaxshi ketmayotgan bo 'lsa va borgan sayin yomon tomonga qayri- layotgan bo 'lsa, ko 'zlarining yum va vaqtini to 'xtat.

“Mendan shunchalar ko 'p yomonlik ko 'rgan insonning duolarining himoyasidaman hali-hamon...” — deya o 'zingga pi-chirla... Shuni bilginki, nimalar bo 'lib o 'tganidan, nimalar qilganingdan qat'i nazar, har doim qalbimning bir burchagida ajoyibligingcha qolasan. Sen nafaqat g 'azab-u nafratimsan, balki qalbimning mehr-shafqatli bir qismisan...

Seni qanday qilib tasvirlay olaman? Yoki seni anglatishining eng go 'zal joyi qayerdan boshlanadi.

Ko 'zlarining men uchun misli qop-qorong'i bir xona, qo 'llaring esa bor kuchi bilan taqillatilgan eshikdir...

Bilaman, endi nima desam ham, baribir, foydasi yo 'q, ta 'sir qilmaydi. Sen men uchun shunday bir baland devorsanki, bu

devorni shunchalar uzoq vaqt davomida biror marta ham oshib o 'ta olmadim va bundan keyin ham hech qachon, aslo oshib o 'ta olmayman...

"O'tib ketadi... Uni, albatta, unuta olaman... Menden biroz uzoqlashsa, hammasini yangidan, boshidan boshlay olaman..." — deya o 'yladim.

Eh, azizim... Shunday qilishga harakat qildim, lekin bo 'lma-di. Axir, hayotimdagи biror-bir ishni o 'zim xohlaganimday qila olmaganman. Sen men ega bo 'la olmagan yagona orzum, maq-sadim, niyatim emassan, lekin jonimni eng ko 'p azoblagan sen-san. Ajabo, agar o 'lsam, xayolingga kelamanmi, bir marta bo 'l-sa ham eslaysanmi? Zarracha bo 'lsa ham xafa bo 'lasanmi, achinasanmi?

Aslini olganda, senga aytmoqchi bo 'lgan oxirgi gapim bor. Hammasiga qo 'l silta, e 'tibor berma.

Nima bo 'lsa bo 'lsin...

Uzluksiz, doimo aynan mana shu tuyg'ularga g 'arq bo 'lardim. Yozganlarimni ming martalab, qayta-qayta o 'qir ekanman, menga mana shu tuyg'ularni his ettiradigan darajada Yusufga qanday yomonlik qilgan ekanligimni o 'ylayman. Buning biror-bir sababini topa olmay, o 'ylab o 'yimga yeta olmayapman, jonim azoblanyapti, ruhim qiynalayapti. Oradan biroz vaqt o 'tgach, hamma narsa o 'z ma 'nosini yo 'qota boshlaydi. Akira Kurosava¹: "Bolaning qo 'lidan bir konfetini olib qo 'ysangiz, u qolganlarini ham tashlab yuboradi", — deya naqadar to 'g 'ri va ajoyib gap aytgan ekan.

Har bir insonning hayotida shunday bir qadr-qiyomatli in-

¹ **Akira Kurosava** (1910 – 1998) — yapon kinorejissori, ssenariynavis. "Rasyomon" filmi bilan jahonga tanilgan. "Ovsar", "Yetti samuray", "Jangchnining soyasi", "Jarohat", "Avgust rapsodiyasi" filmlari mashhur.

soni bo'ladiki, u uchun o'zining butun umrini bag'ishlaydi, uning hayotidagi barcha noxushliklarga ko'kragini kerib qarshi tura oladi, uning yashash uchun kurashi doimo qo'llab-quvvatlaydi, madad beradi, har doim, har qanday holatda yonida bo'ladi. Agar o'sha insonda yashash uchun kurash o'z mohiyatini yo'qotgan bo'lsa, boshqa hech bir narsaning mazmum-mohiyati qolmaydi! Yusufdan keyin mening ham hayotga bo'lган ishtiyoqim yo'qoldi. Sevgi haqida gap ketadigan bo'lsa, hech kimning yuzini ko'rishni istamasdim. Jamiki insoniyatdan, jamiки mehr-muhabbatdan, ishqdan, sevgidan ranjigandim... To'yga ko'rilgan hozirlik ikki marta marraga yetar-yetmas ortga qaytganidan so'ng hattoki onam ham bu mavzu haqida boshqa gapir-madi.

Qachonki o'zimizni boshqalar uchun qurban qilsak, qachonki kimgadir benihoya ishonsak, qachonki sevinchdan oyog'imiz yerdan uzilib, boshimiz osmonga yetganida, har safar yanada qattiqroq yiqilib tushmadikmi?

Demakki, nihoyasi shunday ekan, kimgadir sevgi berishning, ishqni his qildirishning nima keragi bor? Demakki, yakuni shunday ekan, har safar o'zimizni azoblaydigan ishonchning nima keragi bor? Axir, hammamiz ham: "U baxtli bo'lsin, u kulib yursin, uning joni azoblanmasin, uning kayfiyati tushmasin", — deganimiz uchun hayotda mag'lub bo'lmadikmi? Xo'sh, bizning dardlarimiz, ezilgan qalblarimizning kimning parvoyiga kelardi? Aslini olganda, bizning dardlarimizga, ezilgan qalblarimizga hech kim parvo qilmaydi, nazariga ilmaydi, e'tibor ham bermaydi... Kimdir hamma, jamiki ishlarini joy-joyiga qo'yadi, o'zining hayotini birinchi o'ringa qo'yadi...

Sevgi-muhabbat yo'lidagi mashaqqat-u zahmatlar, qurbanliklar-u fidoyiliklar... Bularning barchasi o'zimizni o'zimiz

aldashimizdir, xomxayollarimizdir. Chunki sevgi-muhabbat yo'lidagi mashaqqat-u zahmatlar, qurbanliklar-u fidoyiliklar o'zining mevasini olsagina, o'z mukofotiga ega bo'lsagina, ma'no-mazmunga, mohiyat-u ahamiyatga ega bo'ladi. Agar shunday bo'lmasa, xuddi sevgimiz kabi duolarimizga ham, ezgu niyatlarimizga ham hech kim parvo qilmaydi, hech kim qayg'urmaydi, hech kim ahamiyat bermaydi.

Demoqchimanki, ba'zi bir narsalarga bog'lanib, tiqilib, qaram bo'lib qolmaslik kerak. Eng go'zal qo'shiqlar qanday tugasa, eng barqaror, eng mukammal sevgi-muhabbatlar ham shunday tugaydi. Eng ishonchli odamlar ham bir kun voz kechib, tark etib ketadi... Kimdir o'z yo'lini topayotgan ekan, biz ham u kabi o'z yo'limizni topishimiz yoki yaratishimiz kerak. Chunki bu besh kunlik dunyoda o'zingizni qiynar ekansiz, hayotning qiziqarli tomoni bo'lmaydi. Huzur-halovat bilan uqlash va xursand bo'lib uyg'onish uchun o'zingizga besarq bo'lgan odamlar uchun yashashni to'xtatishingiz kerak. Chunki siz bilan yashash tufayli o'zini baxtli his qiladigan insonni topishning boshqa bir yo'li yo'q...

Boshqalarning baxtiyorligi yo'lida, boshqalar huzur-halovat yashashi uchun o'zimni qurban qilishni to'xtatdim. Axir, baribir, hech kim bu fidoyilig-u qurbanliklarimga arzimaydi. Eng yaxshisi — o'z huzur-halovatingiz-u baxtiyorligingiz uchun nimalardir qilishdir. Chunki *boshqalarning baxtiyorligi bilan baxtli bo'lishga intilayotganimiz ularning parvoyiga ham kelmaydi, bir lahza bo'lsa ham bu qilganlarimizga e'tibor berishmaydi. Asosiy e'tiborimizni ularning hayotiga qaratib, o'zimizning hayotimizni ortga tashlashimiz adolatdan emas.* Bu gaplarim bilan shuni aytmoqchimanki, *o'tmishga bog'lanib, o'tmish bilan qolib ketish, o'tmishni o'ylash orqali hech bir ishi-*

miz joy-joyiga tushmaydi, bir yerdan yana qayta boshlashimiz kerak... Mana shunday o'ylash bilan, mana shunday fikrlar bilan o'zimga ruhiy madad berishdan boshqa hech bir ish qo'limdan kelmasdi...

Kunlarimni abakus munchoqlarini birma-bir sanayotganday o'tkazardim va nihoyat, maktablarning boshlanishiga ikki hafta qoldi. Aslini olganda, mana shu yoz faslida umrimning eng yolg'iz kuzini yashagan edim. Shoxlarida qurib, sarg'ayib qolgan barglarini majburlik bilan, zo'rlik bilan saqlab qolish uchun kurashgan, hayotning bor kuchi bilan larzaga tushayotgan yolg'iz daraxtga o'xshardim. Osonlik bilan bo'lmasa-da, asta-sekin tuzalib ketayotgandim, o'zimga kela boshlagandim.

Misol uchun, endi tunlari bemalol, huzur-halovat bilan uxlay boshlagandim, o'y-xayollarga kamroq berilardim, boshimdan o'tgan kechinmalarim uchun kamroq xafa bo'lardim. *Inson qanchalik, necha martalab: “Unutdim...” — desa ham, qalbida paydo bo'lgan olovni o'chirish uchun bir tomchi ham suvi yo'q odamni unutib bo'lmaydi. Uni sevgingiz bilan bo'lmasa, g'azab-u nafratingiz bilan eslaysiz.* Ustiga-ustak, azoblangan faqat siz bo'lasiz, joni achigan ham faqat o'zingiz bo'lasiz. Sizning qanchalik abgor ahvolda qolganingiz ketgan odamning parvoyiga ham kelmaydi. Axir, hech kim o'zi hech qachon unutolmaydigan odamini shunchaki tashlab, tark etib ketmasdi... Demakki, tark etgan odam ketar joyini oldindan tayyorlab qo'yadi, shuning uchun ortda qolganlarning, tark etilganlarning ahvoliga maymunlar yig'laydi...

Melike muktablar ochilishidan oldin bir kuni ertalab oxirgi marta yonimga keldi. Ko'rinishim juda ham yaxshi ekanligini, yaqin orada hammasi joy-joyiga tushishini, har narsa yanada ajoyib va go'zal bo'lishini aytdi. *Odamlar sizning tashqi ko'ri-*

nishingiz bilan qiziqishadi. Ichingizga yashirinib olgan bomba portlamagunicha atrofingizdagilar uchun ajoyib ko'rinasiz. Agar yashira olishni eplar ekansiz, hech kim ko'krak qafasingning ichidagi olovga parvo qilmaydi. O'sha yerda katta bir otash borligini va sizning otashda yonayotganiningizni bilishadi, lekin parvo qilishmaydi. Ular uchun insonning yaxshi ko'rinishi yaxshi bo'lishidan muhimroqdir. Natijada esa ko'zimizga ko'rinmaydigan narsalar haqida qayg'urishimizning ham hojati qolmaydi. Afsuski, hammamiz shunday qilamiz...

Melike bilan soatlab suhbatlashganimdan so'ng mavzu ay-
lanib yana qalbimning azobiga, ya'ni Yusuf mavzusiga keldi...

— Seni mana shunday a'lo kayfiyatda ko'rganimga juda sevindim, Elif, — dedi Melike. — Sen mening eng qadr-qiymatli dugonamsan. Bilaman, juda ham mashaqqatli davrlarni boshing-
dan o'tkazding, qaniydi, o'sha paytlar yanada ko'proq yoningda bo'lsaydim. Lekin qo'limdan nima ham kelardi, bo'ladigan ish, baribir, bo'ldi... Yusufni unutganing uchun ham juda sevindim. Aslida ham, hammasi shunday bo'lishi kerak edi. Sen, haqiqatan ham, uni judayam qattiq sevganmiding?

— Uni tanib-bilib olganiningdan keyin sevmaslikning iloji bormi? — deya javob qaytardim. — Men bunday bo'lishi mum-
kinligini aslo xayolimga keltira olmagandim, ya'ni uni bunchalar sevib qolishim mumkinligini bilmasdim. Lekin u mening eng zaif, nozik joyimdan ushlab oldi. Uni uchratgan paytlarimda sevgiga, odamlarga bo'lgan ishonchimni yo'qotgan edim. U esa aynan o'sha paytlar yaralarimni bag'riga bosdi, dardlarimdan o'pdi... Meni davoladi, nafas olishni qaytadan o'rgatdi. Uni qan-
day unuta olishim mumkin? "Har doim shunday davom etadi, har doim sevadi, doimo yonimda bo'ladi", — deya o'ylagandim... Lekin bunday bo'lmadi. Men uni juda yaxshi ko'rardim, oxir-

oqibat esa, har doim sevilishga odatlangan, o'rgangan boshqalar kabi ketdi-qoldi. Melike, menga qara... Tark etilganim uchun menga achinish ko'zi bilan aslo qarama. Balki, men haqimda: "Tark etilganiga, tashlab ketilganiga bardosh bera olmayapti", — deya o'ylayotgandirsan, lekin unday emas! Mening dardim umuman boshqacha. Shunchaki oldimga kelib meni sevmasligini aytsaydi, shuncha paytdan beri meni o'ynab, aldab yurganini anglatsaydi... Yana nima desam ekan, ha, ustiga-ustak, haqorat qilsaydi, ichidagi bor adovati-u g'azabini yuzimga sochsaydi, bunchalik xafa bo'lmas edim... Shunday qilsaydi, o'zimga o'zim tasalli berardim, o'zimdan ayriliqqa sabab bo'ladigan biror-bir xato topar edim. Lekin hech bir sababsiz yuzaga kelgan bu ayriliqqa chiday olmayapman! Meni anglayapsanmi?

— Albatta, anglayapman, azizim... Bo'lar ish bo'ldi endi, aslini olganda, sen emas, u yutqazdi. Ko'p o'zingni azoblayverma, — dedi Melike.

Shu onda ko'z qovoqlarimga o'nlab ignalar birdaniga san-chilayotgandek his qildim o'zimni. Ko'zimni pirpiratmaslikka harakat qilardim, chunki ko'zlarimni bir marta pirpiratsam, yana yig'lab yuborishimni bilardim. O'zimni ortiq ushlab tura olmadim, kipriklarimga bir tomchi ko'z yoshim tushganini his qilishim bilan Melikeni bag'rimga bosib, qalbimni kemirayotgan so'nggi alamlarimni ham to'kib soldim...

— "Sen emas, u yutqazdi", — deganing nimasi? Shuningdek, kim yutqazganining nima ahamiyati bor? Men unga nima yomonlik qildim? Xudo haqqi, aytsang-chi, unga nima yomonlik qildim? Hayotiga zo'rlik bilan kirdimmi, orqasidan yugurdimmi? Nega mehr-muhabbat ko'rsatib, meni o'ziga bog'lab oldi, men tufayli go'yoki qayta tug'ilganini nima uchun aytди? Xasta bo'lganimda yonimdan aslo ketmadi, nima uchun yashash uchun

kurashimga, hayotda qolishimga bir sabab berdi? Men shunchaki o'zim bilan o'zim ovora bo'lib yurgan oddiy inson edim. Unga nima yomonlik qildimki, menga buncha azoblarni ravo ko'ryapti? U berayotgan bu azoblarining hech biriga loyiq emasdim. Melike, e'tibor ber, kasalxonadan chiqqanimga ham bir yil bo'lidi. Hech bo'limganda, o'sha shirin xotirali kunlarimiz uchun bo'lsa ham, yonimga kelib yoki qo'ng'iroq qilib, tezroq sog'ayib ketishimga tilakdosh bo'lsa bo'lardi-ku, lekin aytmadid... "Balki, boshiga biror-bir falokat tushdimikan?" — deya xavotirlanib, ish joyiga bordim, do'stlaridan, otasidan so'radim. Meni operatsiya qilishlaridan bir necha kun oldin barcha do'stlari bilan vidolashib qayergadir ketibdi. Rifat aka bilan gaplashmabdi, ammo yangasi bilan xayrlashibdi, rozi-rizolik so'rabdi. U yashaydigan uyga ham bordim, uy egasiga mol-mulkini muhtojlarga berishi mumkinligini aytibdi-yu, chiqib ketibdi. Demak, biror-bir falokatga duch kelmagan. Demakki, mening ko'zlarim har lahma uni eshik oldida kutib turar, u esa bu yerlardan ketish uchun tayyorgarlik qilib yurgan ekan. Lekin, shunday bo'lsa ham, shu vaqtgacha: "Undan biror-bir xabar kelib qolar", — deya umid bilan kutdim. Na o'zi keldi, na biror-bir xabar yubordi... Lekin endi ortiq kutmayman! Bundan keyin kelmasa kelmasin, hattoki kelishini ham istamayman... Yusufni hech qachon kechirmayman...

— Vaqt o'tgan sayin yanada kuchli bo'lishga intilyapsan-ku, men nima ham der edim? Yig'lashni xohlayotgan bo'lsang, yig'la! Baqirib qichqirishing shart bo'lsa, baqir, qichqir! Eshikderazalarni sindirishni istayotgan bo'lsang, hammasini qil, o'zingni to'xtatma! G'azab-nafratingni tinimsiz ichingga yutaversang, kuchli bo'la olmaysan...

Hayotda hamma narsa mana shunday. *Agar sukul saqla-*

sang, boshqalarga aytadigan gapi yo'q odamday ko'rinasan. Agar qochsang, qolishga yuzi yo'q odam kabi ko'rinasan... Yaxshimi yoki yomon bo'lishidan qat'i nazar, istaganlarining hammasini qil, odamlar, baribir, bir nuqson izlab topadilar. Shunday ekan, nega hamma azob-u g'am-tashvishlarimizni, g'azab-u nafratimizni ichimizga yutishimiz kerak? Demakki, bizni himoya qilmas ekan, hech narsani joy-joyiga tushirmas ekan, vaziyatni yaxshilamas ekan, hattoki borgan sari yanada yomonlashayotgan ekan, nega hammasini ichimizga yutishimiz kerak? Ba'zan aytilishi kerak bo'lgan gaplarning hammasi aytilishi kerak, boy berilishi kerak bo'lganlarning hammasi boy berilishi shart, tugashi kerak bo'lgan barcha munosabatlar tugashi zarur.

Lekin hech kim bu tarzda yolg'iz o'zi jang qilib, ich-etini yeb tugatmasligi kerak... — deya gapini tugatdi Melike.

Odamga eng og 'ir yuk — aytmoqchi bo'lgan gaplarini aytolmay ichiga yutishga harakat qilishdir... Tilingizning uchiga keladi-yu, lekin sukut saqlaysiz, bo'g'zingizga qadar to'lib ketadi, lekin o'zingizni majburlab ichingizga yutasiz. Ichingizda joy qolmagach esa ich-etingizni yeb bitirasiz... Ichingizdagilarni to'kib solmas ekansiz, nima qilsangiz ham, qalbingizni sokinlashtira olmaysiz, tinchlantira olmaysiz... Men ham bu yuklardan Melikening do'stligi soyasida qutuldim. Aytmoqchi bo'lganlarimni va so'rashni istaganlarimni Yusufning yuziga baqirib ayta olmagan bo'lsam ham, hech bo'lma-ganda, ichimdagi g'azab-u nafratimni, g'am-alamlarimni mana shunday tarzda tashqariga chiqardim.

Uzoq vaqtlardan beri birinchi marta o'zimni xotirjam, sokin his qildim va:

— Choy ichamizmi? — deb so'radim Melikedan.

U ma'qullaganday bosh irg'adi.

Choy ichar ekanmiz, mavzuni o'zgartirdik, zavq-shavq bilan kulishib o'tirdik, oxirida esa biri-birimizni bag'rimizga bosib xayrashdik... Melike ketar ekan, uning qalbimga bag'ishlagan sokinlig-u halovati meni o'zimga ummondag'i bo'ronga qarshi oylar davomida kurashgandan so'ng nihoyat qirg'oqqa yetib kelgan eski bir qayiq kabi his ettirdi. Alg'ov-dalg'ov, g'alati bir halovatning hissi bilan to'lib toshgandim. Boshimdan o'tayotgan noxush kechinmalar endi nihoyasiga yetib kelgandi... O'zimni vaqt yaralarimni davolay boshlagan joyda ekanligimday his qillardim, lekin, afsuski, unday emas ekan. "Barcha noxush kechinmalar o'tib ketdi", — deya o'yash naqadar katta xato ekan.

Melike xayrashayotganda meni uzundan uzun bag'rige bosib turdi va:

— Ba'zi odamlar qanchalar ko'p o'ylaganlari sayin, qanchalar ko'p xavotirga tushganlari sayin, qanchalar ko'p sevinganlari sayin, murvatlarini bo'shatadilar, o'zlarini boshqara olmay qolishadi... Sen bunday qilma, dugonajon... Har kimni o'ziga yarasha yaxshi ko'r va hech qachon o'zingdan voz kechar darajada sevma... Sen boshqalar uchun mehribon ona quchog'i yoki shafqatli otaning qo'llari emassan. Har kimni va har narsani doimo va istisnosiz kechirmasliging kerak. E'tibor berma, qayg'urma: har kim turadigan o'z o'mini bilsin.

Uning bu gaplariga beixtiyor kulib yubordim. Chunki bu gaplari menga juda kech berilgan tavsiyalar edi, endi foydasi yo'q edi...

Melike bilan xayrashganidan so'ng besh daqiqa ham o'tmagan ediki, onam qo'lida bir piyola choy bilan yonimga keldi. Meni yanada xush kayfiyat ko'rish uning ham ruhini tinchlan-tirgandek, sokinlashtirgandek, ruhiga halovat bag'ishlagandek

bo'ldi. U ro'paramdagi kresloga o'tirdi. Anchadan beri kitob o'qimaganligini va mendan o'qish uchun kitob berishimni so'radi. Eng sevimli kitoblarimdan birini olib berish uchun endigina o'rnimdan turgan edimki, ortimdan onamning aytgan gaplari g'a-zablangan bir pulemyotdan oldi-ortiga qaramay otilgan o'qlaridek boshimga kelib urilaverdi.

— Seni shunday xushkayfiyat ko'rishni juda sog'ingan edim, qizim. Zotan, u ham nima qilishini hal qilolmay, ya'ni qolish-qolmasligini yoki ketish-ketmasligini bilmay ikkilanishlar-u sarosimalar ichida yurgandi. Kelishini kutib, asta-sekin sovigandan ko'ra, vaqtি borida kuygan ma'qul, — dedi.

Onamning nima demoqchi ekanligini tushunolmadim, lekin Yusuf haqida biror-bir xabarga ega ekanligi aniq. Shu onda to'satdan to'xtab, ortimga o'girilib qarar ekanman, onam jim bo'lib qoldi. Biroz oldin beixtiyor aytgan gapidan pushaymon ekanligi yuzidan bilinib turardi. Mavzuni o'zgartirmoqchi bo'ldiyu, lekin men bunga yo'l qo'ymadim, axir, o'q miltiqdan chiqib, g'isht qolipdan ko'chgandi-da. Onamning gapirgisi kelmasdi, mendan nimanidir yashirayotgani shu qadar aniq ediki, shuning uchun gapirishga majbur qildim. Onamning aytishicha, men Yusufning yo'llarini poylab, lekin ko'ra olmay yurgan paytlarimda Yusuf har doim mening ahvolimni uzluksiz kuzatib yurgan ekan. Lekin men bilan bo'lishni endi xohlamagani uchun ko'rishmaslikka harakat qilgan ekan. Onam ham uni operatsiya kunidan keyin aslo ko'rmagan ekan.

Modomiki, Yusuf men bilan birga bo'lishni istamas ekan, operatsiya qilinadigan kunimgacha nega bu yerlarda edi, nega mening ahvolim bilan qiziqdi? Men javob topa olmagan bu savolga onam faqat yelkasini silkitib javob berdi, ya'ni onam ham buning sababini bilmas edi. Onamdan bu gaplarni eshitgan

paytimda qalbimga kirgan tushkunlikni so'z bilan tushuntirib bera olmayman. Nima bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, orqada qolgan shuncha vaqt davomida bu narsalarni bilishga haqqim bor edi, lekin onam esa bu haqqimni mendan ruxsatsiz-iznsiz olib qo'ygandi...

— Sizning ko'nglingizga qarab, sizni o'ylab Serhatga tur-mushga chiqishga rozi bo'lgandim. Oyi, siz qanaqasiga mening oylar davomida chekkan azob-uqubatlarim ko'z yumib keldingiz? — dedim jahl aralash gina qilib. — Qanchalar og'ir azob-lar boshimdan kechirdim, alamlar otashida qalbimni naqadar yoqdim... Yuragimda otam qoldirgan bo'shliqni to'ldirishga harakat qilar ekanman, bu bo'shliqdan ham chuqur bir chohga tushib qoldim. Ko'zlaringiz o'ngida qorong'i bir quduqning tubida hech narsa qila olmay, behuda harakat qildim. Yuragim o'rni-ga boshqa yurakni qo'yganlari-chi? O'sha kasalxonada yuragimni qoldirdim, qalbim parchalandi... Buni menga qanday ravokordingiz? Meni yaxshi ko'rmasligingizni aysangiz ham bir navi edi, hech bo'limganda, sizdan xafa bo'lmasligim uchun bir sababim bo'lardi.

Siz hamma gapdan boxabar bo'lgan holda, mendan yashirishga qanday haqqingiz bor edi? To'g'ri, Yusufdan nafratlanaman, lekin siz ham eng kamida u kabi qalbsiz va aybdorsiz...

Aslida, mening tanamga tegishli bo'limgan, men bilan birga ulg'aymagan, sevishni ham, sinishni ham, sog'inishni va qayg'urishni ham men bilan o'rganmagan, lekin ongim ichidagi xotiralarim jonlanganda ming marta ko'proq og'rigan begona bir qalb bilan o'zimni ko'chaga tashladim. Hamma dard-u alamlar ustma-ust boshimga kelardi. O'zimni ko'chadagi hamma binolar va bari daraxtlar ustimga qulab tushayotgandek his qilardim. Nafas ola olmasdim. Bir nafasda Yer-u ko'k orasidagi butun bir

havoni o'pkamga so'rib olsam ham, yetmas edi.

Onam bilan mening oramda bo'lib o'tgan mana shu noxush g'avg'odan keyin shuni tushunib yetdimki, garchi qiyinchilik bilan bo'lsa-da, bir yil davomida o'zim harakatlanayotgan bu qorong'i yerosti yo'lining oxirida kichkinagina bo'lsa ham yorug'-lik bor ekan. Aslida, Yusuf doimo o'sha yerda edi. Meni tanimasidan oldin ham o'sha yerda edi, taniganidan keyin ham o'sha yerda qoldi... Meni hayotidan chiqrganida ham o'sha yerda bo'lishda davom ettirdi. Shu vaqt davomida uni noto'g'ri joylardan qidirgan ekanman... Endi esa izlagan narsamni qayerdan qidirishni bilaman. Demakki, Yusuf meni tark etib ketgan bo'lishiga, men ham uning shunday qilganiga amin bo'lib yurganimga qaramay, u har doim mening yonimda ekan. Hammasi boshlangan o'sha kasalxonaga hammasi tugagan joyga aylanishi kerak ekan...

Men ham imkoni boricha tezroq kasalxonaga borishni va qalbimni tirmab qonatayotgan barcha shubha-gumonlardan xalos bo'lishni xohlardim. Hayotimdag'i barcha kam-ko'stlarga naqadar ko'nikkanligimni aytsam ham, qalbimning tub-tubida o'zining borligini menga his qildirgan noaniq, ko'rinas qayg'ularni o'chirib tashlay olmasdim va ba'zida ularni yashirishga urinish esa ruhimni yanada azoblashdan boshqa ishga yaramas edi.

Endi esa biror-bir g'am-tashvishni, dard-alamni, g'azab-u nafratni ichimga yutishni, yashirishni, "Shunday bo'lishi kerak ekan", — deya qabul qilishni, ko'nikishni xohlamayotgandim. E'tiborsiz qoldirganlarimga, yo'q hisoblaganlarimga, yashirganlarimga, izlaganlarimga va topa olmaganalrimga, meni juda qo'rqiitgan nima bo'lsa, hammasiga imkon qadar tezroq duch kelishni xohlardim...

*Agar unga bir jumla aytish imkoniga ega
bo 'lsaydim, menga nimalar his ettirganlarini,
bergan azoblarini va, hammasidan eng muhimi,
yonimda bo 'lmasa ham hayotimni yo 'lga qo 'ya
olganim haqida uzundan uzun gapirish o 'rniga:
“Endi ruhimni azoblay olmayapsan”, — derdim.
Demakki, ruhim azoblanmayapti ekan, qalbim
ham uni his qilmayotgani aniq.
His qilmaslik esa nafratlanishdan ming baravar
yomondir...*

– VIII –

Kasalxonaga kelar ekanman, Yusuf bilan har doim ko'zimiz-ko'zimizga tushadigan o'sha zinapoyadan ko'tarilib chiqar ekanman, go'yoki qaltirayotgan tizzalarimning sinib ketayotganimi ham, xuddiki olovli koptokni ko'tarib ketayotganligim tufayli kuyib qolgan qo'llarimning azobini alg'ov-dalg'ov, tushunarsiz bir hayajon bilan his qilardim. O'zimni go'yoki Yusuf hozir birdan o'sha burchakdan chiqadi-yu, yuzma-yuz kelib qoladiganday his qilardim. Qadamlarimni sekinlashtirib, ko'z qirim bilan bog'ning hamma joyini: devorlar tagini, daraxtlarning tagini, skameykalarni kuzatib, eshikdan ichkariga kirdim.

Atrofda o'tmishdan qolgan bir qancha achchiq xotiralardan boshqa unga oid hech bir narsani, hattoki, zarradek kichik bir hech biri izni ko'rmadim. *Inson o'z kechinmalarining ba'zilarini qanchalar ortda qoldirsa ham, vaziyatga qanchalar ko'niksa yoki hattoki unutsa ham, bir nechta lahzagina davom etgan xotiralar bilan qayta uchrashish hamma narsani ostin-ustun qilish uchun yetarli bo'ladi. Shunda anglab yetasizki, shu vaqtgacha faqat o'zingizni aldab, o'zingizni yupatib yurgansiz, xolos. Hech narsani unutmagansiz! Azoblagani uchungina es-*

lashni xohlamaysiz, xolos. Bor haqiqat — shu.

Liftga chiqar ekanman, Yusufning o'shanda qilgan qaltis hazilini xayolimga keldi va shu onda xotiralar azobidan qochar-yotganimni angladim. O'sha lahzalar ko'z o'ngimda jonlanar ekan, yuzimda ma'yus tabassum paydo bo'ldi. O'y-u xayolim alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Sarosimaga tushib qoldim. Uchinchi qavatga ko'tarilar ekanman, yo'lak boshida ichki kasalliklar mutaxassis — shifokor dotsent Bulent Kayinning xonasini ko'r-dim. Chuqur nafas olish bilan o'zimni qo'lga oldim va eshikni taqillatib ichkariga kirdim...

— Uzr so'rayman. Mabodo band emasmisiz, menga biroz vaqt ajrata olasizmi?

— Albatta, marhamat, menga nima xizmatingiz bor?

Doktor menga ichkariga ruxsat berar ekan, nima deyishimni ham, gapni nimadan boshlashimni ham bilmay qoldim. Chorasizlik va biroz xijolat bilan ichkariga kirdim.

Doktor istarasi issiq, ko'rkam, o'rta bo'yli odam edi. Ko'ziga yarashmay turgan qalin hoshiyali ko'zoynakni nomigagina taqqanday edi. Qoshlari qalin, sochlari kalta va qop-qora edi... Yusufning yonida oldinlari ko'rganimda bu insonga hech qachon bunchalik diqqat bilan qaramagan edim. Meni ko'rар ekan, taniganday qaradi yuzimga. Ustida hamma narsa sochilib yotgan stolini aylanib o'tib, mening oldimga keldi.

— Siz Elifsiz, shunday emasmi? — dedi u qo'lini cho'zib men bilan ko'rishar ekan.

Juda hayron bo'lib, shoshilib qoldim. Meni tanishi mumkinligini kutmagandim. Shunday bo'lsa-da, yolg'on qo'shmay rostini aytadigan bo'lsam, Yusufning unga men haqimda gapirgani o'zimni yaxshi his qilishimga olib keldi.

— Ha, men Elifman... Menimcha, siz bilan ilgarim uchrash-

maganmiz, demakki, shunday ekan, meni qayerdan taniysiz?

— Siz ushbu shifoxonada yurak transplantatsiyasini o'tkazgan birinchi bemorsiz, — dedi u muloyim tabassum bilan. — Menimcha, bu yerda sizni tanimaydigan shifokor yo'q.

Rostini aytadigan bo'lsam, men kutgan javob bu emas edi. Bu odam uchun muvaffaqiyatli operatsiya qilingan bir bemordan boshqa hech kim emas edim, lekin bu inson bilan umuman boshqa bir umid bilan gaplashmoqchi edim. U operatsiya jarayoni qanday o'tganligi haqida bir zum ham to'xtamay, go'yoki tezkor o'qotar quroldek tushuntirib berar ekan, men esa o'zim uchun umuman qizig'i yo'q bu nutqini tinglashga chiday olmay, gapini bo'lishga majbur bo'ldim.

— Janob Bulent... Aslida men bularni tinglash uchun kelmaganman. Aksincha, bularning barchasini unutishga harakat qilyapman, eslatilishini aslo istamayman... Shuning uchun uzundan uzun tushuntirish uchun ovora bo'lishingiz shart emas. Zотан, bularning hammasini boshimdan o'tkazdim.

— Haqiqatan ham, bu mavzu yopilgan. Menimcha, sizning shifokoringiz Haluk Xoja emasmi? Xo'sh, u holda, nega mening oldimga keldingiz?

— Yusuf... Aslida, bu yerga Yusuf uchun kelgandim. Anchadan beri undan biror-bir xabar ola olmayapman. Agar sizda u haqida biror-bir ma'lumot bo'lsa, shuni bilmoqchi edim.

— Qaysi Yusuf haqida gapiryapsiz, to'g'risi, eslay olmadim?

— U menga siz bilan do'st ekanligini aytgandi. O'ng qo'lda ikkita protez barmog'i bor edi... Bu yerda davolanayotgan paytlarimda u ham sizning oldingizga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun kelardi.

— Xo'sh-xo'sh.... Ha, eslaganday, ha eski bir tanishim edi,

lekin bir yildan beri ko'rmadim. O'sha paytlari kanda qilmay kelib turardi, keyin esa umuman kelmay qo'ydi. Afsusdaman, lekin u haqida mana shulardan boshqa hech nimani bilmayman...

Bu gaplarni aytar ekan, men mahkam yopishib olgan oxirgi shoxni kesib tashlaganini ham farqiga ham bormadi, so'nggi umidimni ham so'ndirganini parvoyiga ham keltirmadi. Butun bo'y-basti bilan namoyon bo'layotgan noxush jumlalarni aytayotganini shifokorning o'zi ham sezmasdi. "Axir, bu nechanchi marta umidsizlikka tushishim?" — deya o'zimdan o'zim xayolan so'rardim. Naqadar ulkan bir mavhumlik, chorasisizlik, naqadar katta bir shafqatsizlikning ichiga tushib qolganimni anglay olmayotgandim. O'z holimga achinishdan boshqa bir ish qo'limdan kelmasdi.

— Menda boshqa ishingiz bormi, siz uchun yana nimalardir qilishim mumkinmi? — deya so'radi shifokor Bulent, meni xonasidan muloyimlik bilan quvib chiqarayotganday.

Boshimni chayqagan holda boshqa ishim yo'qligini bildirdim. Axir, undan so'raydigan boshqa biror-bir savolim yo'q edi. Shifoxonaga bir umid bilan kelgandim, endi esa oldingi urinishlarim kabi quruq qo'l bilan qaytib ketishim aniq edi... "Bundan buyon bu masalani abadiy yopaman, hattoki Yusufni nafrat bilan ham eslamayman", — deb o'zimga va'da berdim. Borgan sayin meni bo'g'ayotgan bu kasalxonadan imkonim boricha tezroq chiqib ketmoqchi edim.

Rahmat aytib, endi ketmoqchi edimki, ko'zim shifokor stoli ustidagi peshlavhaga tushdi.

Dotsent shifokor Buletin, ichki kasalliklar...

Ichki kasalliklar...

Shu payt xayolim jimirlay boshladi. "Nega ichki kasalliklar? Bu tabibning Yusufga nima aloqasi bo'lishi mumkin?"

Shu onda o'zimni o'nglab oldim va o'girilib:

— Shuni bilasizmi, janob Bulent? Men ko'pincha Yusufning o'sha protez barmoqlaridan o'pardim. Chunki birovni sevish uning kamchiliklarini to'ldirishni talab qiladi. U o'z kamchiliklarini ko'rsatishni yoqtirmasdi, shuning uchun undagi bu nuqsonni ko'rib ko'rмагanlikka olardim, go'yoki bu nuqsoni yo'qdek hisoblardim. Shuni e'tirof etib tan olishim kerakki, uning barmoqlarida o'rnidagi protezlar juda ham mahorat bilan qo'yilgan ekan. Uni birinchi ko'rganimda protezini hattoki payqamagandim. Qo'llaringiz dard ko'rmasin... — dedim.

— E'tirofingiz uchun tashakkur bildiraman... Biz faqat o'z vazifamizni bajarishga harakat qilyapmiz... Bugun dam olish kunim, shuning uchun ishdan ertaroq ketaman... Ketishga hozirlik ko'rishim uchun qiladigan bir qancha ishlarim bor... Agar menda boshqa biror-bir ishingiz yoki gapingiz bo'lmasa...

— Rostini aytadigan bo'lsam, sizdan so'raydigan oxirgi savolim bor...

— Xo'sh, qulog'im sizda.

Doktor hamma narsa sochilib yotgan o'sha stolining yoniga qaytib, o'z stuliga o'tirdi, qo'llarini biri-biriga chirmashtirib, meni tinglay boshladi.

— Siz ichki kasalliklar shifokorisiz, shunday emasmi, Buletnbey?

— Ha, gapingiz to'g'ri...

— Xo'sh, bunday holda, ajabo, Yusufning operatsiyasini qanday qildingiz? O'zingiz boshqa sohaning shifokori bo'la turib, uning tibbiy ko'riklarini qay holda muntazam ravishda teksirib turdingiz? Shunga hayronman...

Men bu savolni berar ekanman, uning boyagini ko'rinish turgan o'ziga ishonchidan hozir ayni lahzalarda asar ham qol-

magan edi. U yelkasini pastga tushirib, barmog‘idagi uzukni o‘ynay boshladi. So‘ng o‘midan turib, og‘ir qadamlar bilan qayta yonimga qaytdi.

Endi shunga ishonchim komilki, bu shifokor Yusuf haqida bir nimalarni biladi, lekin mendan yashirgan.

U bilganlarini menga aytishga majbur emas edi, shifoxona xavfsizlik xodimlarini chaqirib, meni bu yerdan sudrab olib chiqishi, chiqish eshigini ko‘rsatib qo‘yishi mumkin edi... Bunday vaziyatga duchor bo‘lmaslik, eng muhimi, uzoq vaqt davomida endigina qo‘lga olgan yagona imkoniyatimni boy bermaslik uchun imkon qadar o‘zimni bosib olishga, madaniyatli bo‘lishiga harakat qilardim. Shifokor Bulent chap tomonidagi stulni ko‘rsatib, o‘tirib olishimga ishora qildi.

— Modomiki, shunday ekan, aldashdan, yolg‘on gapirishdan foyda yo‘q, — deya o‘zi ham ro‘paramdagi stulga o‘tirdi va chuqur nafas oldi. — Men sizni operatsiyangiz tufayli emas, balki Yusuf tufayli bilaman. Lekin bu yerdagi shifokorlar sizni yurak transplantatsiyadan keyin taniganlari rost... Ha, mayli, buni qo‘yib turaylik... Xo‘s, siz nega Yusufni qidiryapsiz? Agar u siz bilan birga bo‘lishni xohlasa, hozir, zotan, yoningizda bo‘lardi. Yoningizda emas ekan, demakki, sizning yoningizda bo‘lishni istamagan, shuning uchun ketib qolgan. Nega shunday qilishni istagani haqida biror-bir marta o‘ylab ko‘rganmisiz?

— Bu haqda o‘ylamagan kunim bo‘lmadi... Avvaliga unga nimadir bo‘lgan, boshiga biror-bir falokat tushgan bo‘lishi mumkinligi o‘ylab xavotirlandim, lekin keyin bilsam, unday emas ekan. Uning yuziga bir marta bo‘lsa ham tikilib qarashim kerak, uning ko‘zlarining ichiga, hech bo‘lmasa, bir marta boqishim kerak! Agar undan nafratlanishimni shu tarzda aytta olsam, g‘azabim soviydi. Aks holda, hech qachon tinchlana olmayman,

qalbim g‘alayonini to‘xtata olmayman. Meni tushuning, hayotimni bunday davom ettira olmayman.

Inson jonidan ham ortiq sevgan insonidan nafratlana oladimi? Sevgan insonidan, balki, ranjishi mumkin yoki xafa bo‘lishi mumkindir, ehtimol, g‘azablanishi ham mumkindir, lekin nafratlanishi mumkinmi? Yo‘q, unday emas, nafratlanishi mumkin emas. Undan nafratlanish uchun millionlab sababi bo‘lishi mumkin, lekin birgalikdan o‘tkazgan birgina soniya ham butun g‘azabini yo‘q qilishi mumkin.

O’shanday paytda undan xafa bo‘lganingizni xayolingizga ham keltirishni xohlamaysiz, baxtsizligingiz haqida o‘ylay olmaysiz, boshingizdan o‘tgan azob-uqubatlarga uning ham duchor bo‘lishi aslo tilamaysiz! Ba’zan sizni sog‘ingan yoki sog‘inmaganligini emas, balki faqat hol-ahvol yaxshi-yomonligini bilishni istaysiz, xolos... Kimnidir shunchalik sevish — shunchalar mavhum, nimaligini sevgan insoning o‘zi ham anglamaydigan tuyg‘udir! Nima bo‘lishidan qat‘i nazar, uning biror-bir ko‘ngilsizlikka uchrashini istamaysiz, ko‘zingiz qiymaydi...

Yusufdan nafratlanishimni aytar ekanman, bunga aslida, o‘zimni ham ishontira olmayotgandim. Inson o‘zi nafrat etadigan odamni topish uchun, uning yonida bo‘lish uchun nega bunchalar azoblar-u qynoqlarga chidashi kerak, bu yo‘lda joni qurban qiladigan darajada davom etishi kerak?

Shifokor Bulentning hech nima demay, gaplarimga qarshi biror-bir gap aytmay, meni jimgina tinglayotgani asablarimni yanada taranglashtirardi, sabr-toqatimning chegaradan oshib ketishiga olib kelardi.

U go‘yoki teatr sahnasidagi bir tragediyani tomosha qilayotgan, o‘zini majburlab his-tuyg‘ulari namoyon etishga urina-

yotgan, iyagini qo'llariga suyab, nima bo'layotganini tushunishga harakat qilayotgan odamdek sokin edi.

Yig'lab yuborishimga oz qoldi.

Yo'q... Bundan keyin ichimdagilarni yashirib o'tirmayman. Shifokorga Yusuf bilan mening oramda bo'lib o'tganlarni qanday bo'lsa, shundayligicha, boricha aytib berdim.

Men so'zlar ekanman, qarshimda turgan bu hissiz odamning nigohlari ham, qiyofasi ham endi o'zgara boshlagan edi. Hattoki tilidan menga tasalli berish uchun aytilgan bir nechta bo'lar-bo'lmas jumlalar ham chiqdi.

— Qarang, Elif... — dedi. — Balki, sizga nasihat qilishga haqqim yo'qdir, lekin, afsuski, bunday vaziyatlar hayotda har doim bo'ladi. O'zaro munosabatlar boshlanadi, ajoyib davrlar boshdan o'tkaziladi... O'zaro sevgi munosabatlari tufayli qanchalar mashaqqat chekilganligi uchun bunday munosabatlar abadiy davom etishi shartligi haqida biror-bir qoida yo'q. Bilmanki, sizning ham boshingizdan o'tayotgan bu noxush kechinmalarining azobi bir kun o'tib ketadi. Ko'nikib ketasiz, unutasiz, balki, hayotingizga boshqa biri kirib kelar. Ehtimol, balki, bo'lib o'tganlarni o'z o'y-xayolingizda haddan tashqari bo'rttirib yuborayotgandirsiz, o'zingizcha pashshadan fil yasayotgandirsiz. Balki, bu kechinmalarining, aslida, siz o'ylagandek emasdир, bu kechinmalarining ortida quvishni bas qilsangiz, hammasi yana joy-joyiga tushar... Hayotni nimadir qilishga majburlay olmaysiz. Yoki o'zingiz yoqmagan ishlarni hayotdan shunchaki yilib tashlay olmaysiz. Ba'zan har narsani qanday bo'lsa, shundayligicha, boricha qabul qilishingiz va to'xtagan joyingizdan davom etishingiz kerak bo'ladi...

— Ehtimol, sizga o'z dardlarimni tushuntirib bera olmayotgandirman. Gap mening boshlang'ich maktabdagi sevgim haqida

ketayotgani yo'q, ustiga-ustak, o'zim ham mактаб o'quvchisi emasman. Yoshim o'ttizdan oshgan, necha yillardan beri o'qituvchilik qilyapman, to'g'rini noto'g'ridan va xomxayolni haqiqatdan ajrata oladigan odamman. *Tabiiyki, inson har narsaga ko'nikadi, bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Ustiga-ustak, ko'nikishga majbur, ko'nikmasa, qo'lidan nima ham kelardi, axir? Lekin, shu bilan birga, inson yo'qotishini aslo istamagan yaqinining yo'qligiga osonlikcha ko'nikib qolishni istay oladimi? U bilan o'tkazgan bir hafта, bir oy yoki bir yil muhim emas... Sevgini kim bilandir o'tkazgan vaqtingiz bilan o'lchay olmaysiz. Sevgi o'lchovi kimningdir sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otayotgani bilan bog'liq.* Nima bo'lishidan qat'i nazar, men o'zimni hayotni mahkam ushlab turgan, har qanday qiyinchilikka qarshi tura olishim, kurashishim sabab topib bergen, ruhiy madad bergen bir odamni yo'qotdim. Siz buni shunchaki oddiy ayrılıq sifatida ko'ryapsiz, xolos, men esa buni o'limning boshqa bir qiyofasi sifatida ko'ryapman. Sizga yana qay tarzda anglatayin... *Har qanday munosabatlar tugashi mumkin, bu — odatiy, me'yoriy holat. Insoning ertalabgacha uxlay olmasligi, sevgilisining suratlariга yoki sevgilisi bilan birga tushgan o'zining eski suratlarga uzliksiz termilishi, tinimsiz yig'lashi juda ham achinarli holat emas... Asl achinarli holat — haddan tashqari ortiqcha sevish, sevgiga juda bog'lanib qolishdir. Chunki dard-u azobning naqadar chuqurligi sevgining qanchalik kuchliligi bilan belgilanadi...*

Gapirar ekanman, ko'z yoshlарим sel bo'lib oqa boshlagan edi... Zotan, bir yildan buyon his-tuyg'ularим mana shunday tinimsiz alg'ov-dalg'ov bo'lib yotgandi. Yusuf mening shunday bir yaramga aylangan ediki, uning bitishiga negadir o'zim yo'l qo'ymasdim, bu yaramni qobiq bog'lar ekan, men esa uni uzluk-

siz tirdim, qayta-qayta qonatar edim. Yillar davomida unga sahifalarni to'ldirib xatlar yozgandim va yozgan xatlarimni bir yerga yig'ib qo'ygandim. Xatlarim shunchalik ko'p ediki, hattoki sonini ham bilmayman. Bu yerga kelayotganimda ularning aksariyatini o'zim bilan olib keldim.

Shundaya deyar ekanman, qo'limni sumkamga solib, undan xatlarni chiqarib oldim.

— Mana, qarang, bular men unga aytishni istagan, ammo aytolmagan gaplarim, — dedim. — Unga yozgan o'nlab xatlarimdan bir nechtaşı, lekin bularning bittasini ham unga yubora olmaganman... Men uni juda sevdim. To'g'ri, u seviladigan odam emas ekan. Hatto yuziga qarashga loyiq odam emas ekan. O'zining ortida bir ayolni muammolar-u mavhumliklar bilan yolg'iz qoldiradigan va bu qilig'i tufayli o'sha ayolning boshidan o'tadigan kechinmalarga e'tibor bermasdan ketadigan odamni odam deyish mumkinmi? Yo'q, mumkin emas... Lekin, baribir, uni sevaveraman! Uni la'natlar ekanman, keyin esa bu ishimdan o'zim pushaymon bo'lib yig'layman, Allohdan mag'firat so'rayman. Uni la'natlashga ko'zim qiymaydi.

Shifokor Bulent men stolning ustiga otgan xatlarimdan biringi olib, o'qiy boshladi:

* * *

Senga uzoq davom etayotgan, ich-etimni uzluksiz kemirayotgan bir yolg'izlik tufayli xat yozyapman. Ehtimol, bularni yozishim uchun juda kech qolgan bo'lishim mumkin, lekin bularni bundan buyon ichimda saqlay olishga qurbim yetmaydi...

Sen haqingdagi, ichida sen bo'lgan barcha orzularimdan voz kechdim. Sen bilan bog'liq bo'lgan kelajak rejalarimning

barchasini xayolimdan chiqarib tashladim.

Boshimizdan o'tkazgan shuncha kechinmalarning biror-biridan afsuslanmayman, sen bilan o'tkazgan lahzalarning birortasini ham behuda sarflangan vaqt sifatida hisoblamayman. Menga: "Sensiz ham bo'l mayapti, ammo sen bilan ham bo'l-mayapti", — der eding. Bu gaplaring nimani anglatishini endi yaxshiroq tushuna olyapman. Oramizda hech qachon tugata ol-maydigan bir nimalarimiz bor. Demoqchimanki, bularni qancha cho'zaversak, shuncha ko'p azob chekamiz va, afsuski, buning bir yechimi yo'q...

Seni yo'qotmaslik uchun nimalar bilan qanchalik kurashishimga to'g'ri kelganini boshqalardan ko'ra sen yaxshi bilasan. Bu borada menga nisbatan adolatsizlik qilishingni istamayman. Agar sevgi qarshilik ko'rsatish hisoblansa, jonini jabborga berib kurashish hisoblansa, jami-jamiki noxush-u yomon narsalardan voz kechish hisoblansa, u holda, demakki, men seni juda qattiq sevgan ekanman. Ammo shuni unutmaki, oramizdagi bu barcha masofalarni, bu to'siq-g'ovlarni, bu muz tog'larini, bu yong'inlarni — bularning hammasini sen yuzaga keltirding, sen yaratding. Meni ayblay olmaysan, men bu hikoyaning g'olib bo'la olmagan jabrdiyda qahramoniman, xolos...

Bilaman, vaqtı-vaqtı bilan juda ko'p tushunarsiz, mazmun-mantiqsiz, bema'ni ishlar qildim. Ba'zi paytlar seni tushuna olmadim, lekin seni tushunish uchun, anglash uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qildim. Afsuski, sen meni na anglashni xohlading va na tushunishga ham urinding... Sening bu qiliqlaring tufayli o'zimdan jahlim chiqqan paytalarim ham bo'lgan, hatto ko'pincha o'zimni o'zim jazolaganman. Endi esa yana ko'proq azoblanmaslik uchun uchun sendan uzoqlashishga qaror qildim. Lekin men buni ham qila olmadim, eplay olmadim.

Mening qalbimga shunchalar joylashib olgansanki, sendan uzoqlashishning iloji aslo yo'q edi.

Iforlar, ovozing, yuzing meni har tomonlama o'ziga qaram qilib olgan... Inson, axir, har tomonlama o'pkasiga qadar narsa singib ketgan odamdan qanday uzoqlasha oladi? Ha, sendan uzoqlashishni eplolmadim... Dumini qisib olgan it kabi har doim, har safar ortga qaytaverdim. Uyatdan sharmanda-yu shar-misor bo'lishim ham, hamma narsani hazm qilib ketaverishim ham senga bo'lgan muhabbatim tufayli edi. Chunki sendan boshqa hayotni bilmasdum, sendan boshqa osmon borligiga ishonmasdum... Siz mening oilam eding, sen mening erkin nafas oladigan yagona joyim eding. Qachonki jonim siqilsa, sendan panoh topishga intilardim, sening yoniga qochib ketishni istardim. Shuning uchun ham: "Seni endi aslo ko'rishni istamayman", — deya o'zimga o'zim bergen va'dalarimni bajara olmadim. Shuning uchun ham sendan voz kecha olish uchun qilgan duolarimni unutdim. Men hech qachon sendan ham ham yaxshiroq bir hayot yo'lidan yura olmaganman. Oradan vaqt o'tar ekan, gul bilan bezalgan o'sha yo'llarni tikanlar qopladi. Bilaman, gulni tikanlari bilan seva olish ham bir mahoratdir. Lekin shunchalar jarohat bergen, shunchalar azoblaydigan bu tirnalishlarga, qalbim vayronaligiga chidashga kuchim yetmadi va, oxir-oqibat, niho-yat seni tark etdim — ketdim...

Vaqti-vaqti bilan sening o'y-xayolingga, aqlingga kelganimdek sen ham mening xotiralarimda jonlanasan. Axir, o'z vaqtida seni unutish uchun nimalar qilmadimki? Ammo inson o'z xotirasidan eng go'zal lahzalarni ham va eng noxush onlarni ham o'chirib tashlashga qodir emas. Shu bilan birga, sen menga bularning barchasini juda ko'p marta his qildirding. Shuning uchun seni o'y-u xayolimning, ong-u idrokimning yorqin burcha-

gida eslashda davom etaman. Endi seni unutish so 'rab emas, balki yo 'llarimiz bundan buyon aslo kesishmasligini so 'rab duo qilaman. Bu gaplarim sendan nafratlaganimni bildirmaydi. Chunki nafratlanish uchun nimalardir hali-hanuz tugallanmagan bo 'lishi kerak, nafrat hali-hamon azob berayotgan nimalarni talab etadi... Afsuski, sen meni bundan buyon azoblay ol-maysan...

Hamma narsa o 'z vaqtida ajoyib bo 'lganidek sevish o 'z vaqtida go 'zaldir...

Seni sevish — agarda jonimni olsang ham — ko 'zlaringga mehr-muhabbat bilan qaray oladigan paytlarimda chiroqli ko 'ri-nardi. Seni sevish nima qilishingdan, nima deyishingdan qat 'i nazar, doimo kechira oladigan, biror-bir xato-yu nuqsoningga parvo qilmaydigan, senga asir bo 'lib qolgan kunlarimda go 'zal edi.

Nozim Hikmat aytganidek:

*Qalbimda yo 'q senga zarracha kin-adovatim
Menimcha, sen ham endi boshqalar kabisan...*

Demoqchimanki, barcha go 'zal narsalar tugagani kabi biz ham tugadik... Qalbimda senga jahl qilishimga sabab bo 'ladigan hech narsa qolmadı, umidsizliklarim-u zo 'riqishlarim o 'tib ketdi, sevgim ham tugadi. Bir paytlar sen uchun jonimni ham berishga tayyor edim, endi baxt-saodatli bo 'lishingni so 'rab duo qilyapman, xolos. Gul bilan bezalgan o 'sha yo 'llarda yana birga yurishimiz mumkin emas. Noxush-u yomon kunlarni ortimda qoldirdim, seni menga bergen go 'zal kechinmalaring va hissiyotlaring bilan eslashni istayman. Mayli, hammasini ortda qoldiraylik, taqdirimiz shunday bo 'lgan bo 'lsa ham, qalblarmizda bir-biri-

mizga nisbatan shirin xotiralar qolsin.

Boshimizdan o 'tkazgan shuncha kechinmalarimizdan keyin ham, qandaydir bir tarzda birga bo 'lsak ham, sen men uchun faqat olov bo 'lasan va men esa senga nisbatan sovuqqon bo 'lib qolaman, muz bo 'lib qolaman... Yaxshisi, bir-birimizdag'i hayot satrlaridagi jumlalarning yashirin "ega"si bo 'lib qolaylik. Sen mening oldimga kelmaysan va men ham seni kutmayman.

Axir, yo 'limiz shu yerda tugadi, endi biz uchun bundan bu yog'i yo 'q...

Shifokor Bulent so'nggi jumlani o'qir ekan, bir nima deyishiga ham imkon qoldirmay, Yusuf haqida menga biror bir ma'lumot bermasa ham, hech bo'limganda, yozganlarimni unga yetkazish iltimos qildim.

Shifokor Bulent hali ham u bilan aloqada ekanligini qalbimning tub-tubi bilan, sochlariimning har bir tolasi bilan his qilardim. Endi Yusufni topish uchun urinmasligimni, harakat ham qilmasligimni aytdim va men uchun, hech bo'lmasa, shu yaxshilik qilishni o'tinib so'radim. Bir og'iz ham gapirmay, lom-mim demay, xatlarimga qaragancha sukut saqlab, o'layverdi, o'layverdi va yana o'ylashda davom etaverdi.

"Qaniydi, Yusufni hech qachon uchratmagan, tanimagan, bilmagan bo'lsaydim", — deya afsus-nadomat chekar ekanman, Shifokor Bulent qip-qizarib ketgan ko'zlarini qo'lidagi xatdan yashin tezligida uzib oldi-da, yuzimga g'azablangan bir qiyofada qaradi va:

— "Qaniydi, Yusufni hech qachon uchratmagan, tanimagan, bilmagan bo'lsaydim", — deyishga qanday tilingiz bordi? Nima, "Yusufni yaxshi taniyman, bilaman", — deb o'laysizmi? U haqida nimalarini bilasiz o'zi? — deya so'radi.

— U haqidagi hamma narsani bilaman! Bolaligini ham bilaman, oilasini ham bilaman, qayerdan qayerga kelganligidan ham xabarim bor, ishidagi baxtsiz hodisada barmoqlaridan ayrilganligini va ishdan ketganligi haqida ham bilaman... Otasi haqidagi noxush taassurotlarini ham bilaman... O'zidan boshqa hech kimni o'yłamasligini ham bilaman. Uning yolg'onchi va takabbur ekanligini, zotan, bilardim va men kasalxonada yotar ekanman, u esa mening o'rninga boshqasini topganini ham bilaman, meniga xiyonat qilganini ko'rdim! Yana nimalarni bilishim kerak, Bulentbey! Mana shularning o'zi yetarli emasmi? — deya g'azab bilan tilimga nima kelsa, barini aytib tashladim.

Shifokor Bulent ayanchli bir istehzoli bir ovoz bilan meni mazax qilganday kuldi va:

— U haqida hech narsani bilmas ekansiz, — dedi boshini chayqab.

Birozdan keyin eshitadigan gaplarimga aslo tayyor emasdim. *Inson biror-bir dard-u azobga chiday olishni eplasa, o'zini juda ham kuchli his qiladi va: "Mana shu dard-u g'amga chiday oldimmi, demakki, boshqa dard-u azoblar meni yiqa olmaydi", — deya o'ylaydi.* Ammo har doim bundan ham kuchli dard-u azoblar bo'lar ekan, men esa buni bilmasdim...

Allohim...

*Hech kimga ko 'rsata olmagan yaralarimizni,
hech kimga aytolmagan dardlarimizni, hech
kimga eshittira olmagan duolarimizni faqat Sen
bilasan.*

*Ba'zi bir dard-azoblarga chidashning, bardosh
berishning iloji yo 'q.
Iltimos, menga yordam ber...*

— IX —

Roppa-rosa ikki soatlilik suhbatdan so'ng oramizga muzdek sukunat cho'kkandi.

Yusuf bilan meni bog'lagan tuyg'ular rishtasi eng ingichka joyidan uzilib ketishini istardim. Uni o'y-u xayolimdan, ong-u idrokimdan quvib chiqarsam, unga bo'lgan his-tuyg'ularim hech qanday ahamiyat kasb etmasligiga amin edim. Baribir, bir-muncha muddatdan so'ng bu his-tuyg'ular ham so'nadi, kulga aylanaudi. Lekin barchasi shunday tugashiga ishonib, katta xato qilgan ekanman...

Uzoq davom etgan bu sovuq sukunatni shifokor Bulentning usturadagi o'tkiri ovozi buzdi.

— Yusuf bilan tanishligimiz siz o'ylagandek emas, Elif...
— dedi.

— Qanaqasiga?...

— Demoqchimanki, Yusuf bilan mening munosabatlarim bir-birini shunchaki taniyidigan, faqat salom-alik qilib yuradigan ikki odamning o'zaro munosabatlaridan ancha chuqur. U bilan do'stligimiz universitet yillariga borib taqaladi. Universitetning oxirgi uch yili davomida bir uyda yashadik. Qolaversa, ustiga-ustak, siz Yusufni aslo tanimaysiz, bilmaysiz: uning hikoya-

sining faqat bir qismini bilasiz. Bir kuni maydonda musobaqa o'ynab yurgandik, o'ttada janjal kelib chiqdi. Uch kishi mening ustimga tashlandi, go'yoki o'ldiradiganday kaltaklashardi. Janjalning bahonasi yoki sababi musobaqa emas edi. Janjalga bahona qaysidir qizga o'tgan kuni tikilib qaraganligim emish. O'sha yerda janjalni tomosha qilib turgan bir qancha do'stlarim bor edi, lekin hech kim aralashmadi. Bir lahzada yuzim-ko'zim qonga belanib ketdi. Go'yoki o'lib qoladigan ahvolda edim. Oradan ko'z ochib-yumgunga qadar vaqt ham o'tmagandiki, yonimda qo'lida temir tayoqni ko'tarib olgan Yusufni ko'rdim... Bitta o'zi meni kaltaklagan boyagi uchta bolani ham o'z o'midan turolmaydigan qilib qo'ydi. Ha, aynan o'shanda u bilan tanishdik, do'stlashdik. Uning mendan boshqa yaqin do'sti yo'q edi. Masalan, u qo'shiq aytgan joyda do'stlaridan tashqari boshqa biror-bir begona odamlarni ham ko'rdingizmi? Ko'rmagansiz, ko'rmaysiz ham... "Yusufni yaxshi bilaman", — deb o'ylaysiz, lekin unaqa emas. U kelishgan yigit, maktabdagi ko'p qizlarga ham yoqardi, lekin Yusuf hech kim bilan munosabat o'rnatmadni, odamlardan nafratlanardi, hech kimga ishonmasdi. Men Yusufni o'n ikki yildan beri bilaman, u sizni tanigandan so'ng o'zining qalbida ham insoniy tuyg'ular borligini bilib qoldi. Uning kayfiyati boshqa odamlarniki kabi emas. Uning bolaligi shunchalik yomon o'tganki, uning his-tuyg'ularini go'yoki suv tortadigan nasoslar bilan so'rib olishgan. Siz uni o'zgartirdingiz, Elif, sevgingiz uni o'zgartirdi. Ikkalangizning orangizdagি munosabatlar tufayli sevgi orqali yechim topib bo'lmaydigan biror-bir muammo yo'qligini bilib oldim...

Yusuf har doim menga siz haqingizda gapirardi. *Insonni sevish kichik sabablarga bog'liq, sevgi siz tasavvur ham qila olmaydigan, taxmin ham qila olmaydigan oddiy narsalarning*

ichiga yashiringan. Bir teginishning ortiga, bir so‘zning ichida yashiringan bo‘lishi ham mumkin... Yusufning sizga bo‘lgan qiziqishi siz bilan tanishgan birinchi kunidayoq boshlanmadı. O’shanda siz uning uchun boshqalar kabi bir odam edingiz. Fleyta — uning hayotdagi eng sevimli cholg‘u asbobidir. Barmoqlaridan ayrilar ekan, bu cholg‘u asbobini boshqa chala olmasligidan qattiq ta’sirlandi. Fleytaga bo‘lgan qiziqishingiz Yusufni sizga yaqinlashtirdi. Yetishmayotgan tomonini o‘zi ham aslo sezmagan holda siz bilan to‘ldirdi, siz bilan bekam-u ko‘st bo‘ldi. Shuni to‘liq ishonch bilan ayta olamanki, siz u hayoti davomida bir lahma ham nafratlanmagan birdan bir, yagona insonsiz. U sizni hammadan ham, har narsadan ham ko‘proq sevardi, menga ishoning: sizni uni qanchalar kuchli sevgan bo‘lsangiz, u sizni bundan ham ko‘proq sevdi...

Eshitganlarimga ishona olmayotgandim. Vaholonki, meni bag‘riga olgan, yig‘laganimda birga yig‘lagan, kulganimda birga kulgan odam, hech bo‘limganda, eng kamida, bir yosh bolakay-dek tuyg‘ularga beriluvchan, bir otadek mehr-shafqatli inson ekan. Go‘yo shifokor Bulent boshqa odam haqida gapiryapti-yu, men esa boshqa odam haqida gapirayotgandek edim.

— Yo‘q, Bulentbey, u siz ta’riflagandek odam emas! — dedim. — U men kabi sevishi mumkin emas, bunchalar sevish ehtimoli yo‘q. Sevgan odam o‘ziga bog‘lanib qolgan sevgilisini tark etib ketadimi? Sevgan inson yo‘lida uchragan birinchi to‘siqdayoq juftakni rostlab qoladimi? Lekin uning nega ketib qolgani, nega meni tark etganini bilaman... Bu kasallikni yengib o‘ta olishimga ko‘zi yetmagan. Unda to‘shakka mixlanib qolgan kasał bir qizni kutadigan yurak yo‘q. Balki, u to‘g‘ri ish qilgandir, haqdir. Ammo, hech bo‘limganda, eng kamida, birga o‘tkazgan go‘zal vaqtlarimiz xotirasi uchun ketayotganining sababini men-

ga anglatishga, ochiqcha aytishga majbur edi. Xo'sh, lekin u nima qildi? Meni shafqatsizlarcha, hech achinmasdan noma'lum bir mavhumliklar ichiga itarib, tark etib ketdi. Kasalligimdan ham ko'ra ko'proq meni bir tiyinga ham olmay qilgan mana shu muomalasi tufayli azoblandim. Hattoki biror-bir dushmanim bo'lsa ham menga bunchalik ozor bermasdi. Biroq, qanday sharoitda bo'lishidan, nima bo'lishidan qat'i nazar, uni hech qachon tark etmasligimga qasam ichgandim. Uning qayg'ulariga sherik bo'ldim, dardlariga hamdard bo'ldim. O'ylaymanki, bu borada men u uchun qo'limdan kelganini, imkoni yetganini yetarlicha qildim...

Doktor deraza oldidagi stolga ishora qilib, stol ustidagi eski kompyuter yonib turganini, uning oldiga borib elektron manzildan yuborilgan xatlarni ko'rishim mumkinligini aytdi.

Dastlab juda ham bema'nidek tuyulgan taklifda biror-bir ma'no-mantiq ko'ra olmadim, tushuna olmadim, lekin e'tiroz bildirmay aytganini qildim. Elektron manzildan yuborilgan o'nlab xatlar bor edi. Bitta xatning o'nlab turli xil shifokorlarga, xususiy shifoxonalarga va davlat shifoxonalariga yuborilganligini va ularda kelgan javob xatlarini ko'rdim. Yuborilgan xatlarning barchasida mening ma'lumotlarim, kasalligimning tashxisi aytilgan va bu kasallikni davolash usuli borasida, kerakli organni topishda yordam so'ralgan edi. Men nima bo'lganini tushunishga, anglashga urinar ekanman, shifokor Bulent:

— Bularning hammasini siz xudbinlikda ayblagan Yusuf yubordi, — dedi.

O'y-fikrlarim, xayollarim, butunlay alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi, miyam go'yoki ishlamay qolganday bo'ldi. Elektron manzildan yuborilgan va shu manzilga kelgan xatlarni bittama-bitta ko'rib chiqishni davom ettirdim. Keyin esa operatsiyaga kirgan

kunimning sanasi ko'rsatilgan, mening elektron manzilimga yozilgan, biroq jo'natilmagani uchun "qoralama"ga o'tib qolgan, yana bir xabarni ko'rib qoldim va o'qiy boshladim:

* * *

Uzoq vaqt seni bag'rimga bosa olmaganim, sen bilan gaplasha olmaganim va dardingga hamdard bo'la olmaganim uchun meni kechir. Boshingdan o'tayotgan bu kechinmalar, azoblar sen uchun qanchalik qiyin bo'lganligini bilaman, lekin menga ishon: men uchun ham oson bo'lmadi. Ba'zi paytlar hech kimga ko'rinnmay, eshigingga kelardim, uxlashingni kutardim. Sen uxlар ekan-san, bir necha soniya bo'lsa ham seni ko'rganim menga qanchalik baxtiyorlik baxsh etganini so'z bilan ta'riflab bera olmayman. Haqiqatan ham, go'zal kechinmalarning, ajoyib lahzalarning umri qisqa bo'lar ekan...

Elif...

Hayotingga, balki, umuman kirmasligim kerak edi, meni sevishingga yo'l qo'ymasligim, izn bermasligim kerak edi. Sen shunchalar ma'sum, shunchalar samimiyl qalb sohibisanki, Alloh nega meni sening qarshingga chiqarganini tushunmayapman. Siz biror-bir, zarracha qayg'u-g'amga loyiq emassan. Senga menga berilgan jazomisan yoki men senga berilgan jazomanmi — bunisini bilmayman. Yoxud men senga berilgan hadyamanmi, yoki sen menga berilgan armug'onmisan — bunisini ham bilmayman... Bilgan birdan bir, yagona narsam shuki, sen meni aql bovar qilmaydigan darajada o'zgartirding. Inson ota-onasidan nima olsa, o'sha olgani bilan ulg'ayadi. Men ota-onamdan na mehr-shafqat oldim, na zarracha oqibat-u mehribonlik ko'rdim... Hayot menga shu yoshimgacha eng mayda hujayralarimga qa-

dar kirgan nafrat-u adovatdan, shafqatsizlikdan, ishonchsizlikdan boshqa hech narsa bermadi. Axir, shu yoshimga qadar kimnidir sevish naqadar ajoyib tuyg'u ekanligini bilmay yashagan ekanman, shekilli. Vaholonki, insонning kimgadir ishonishi, kimnidir bag'riga bosishi, kimningdir quchog'iga otilishi, kimnidir chin qalbdan, haqiqiy hissiyotlar bilan o'pishi shart ekan... Bularning barchasini tatib ko'rishimga imkon berganining uchun sendan minnatdorman va tirik ekanmanki, sendan minnatdor bo'laman. Hammasi uchun senga cheksiz tashakkur bildiraman.

Koshkiydi, hayot umuman boshqacha bo'lganda edi, lekin, afsuski, unday emas... Sen bilan ajoyib tushning ichida yashadim, hammasini chetga surib, go'zal xayollar qurdim, tabassum qildim, sevdim, baxtli bo'ldim... Lekin uyg'onar ekansan, tushlar ham tugaydi. Afsuski, men ham uyg'onib ketdim va shirin tushlarim ham tugadi... Ba'zida qilishni istagan ishlaring va qilishga majbur bo'lgan ishlaring olov va muz kabi biri-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ba'zida shunday bir vaziyatlarga duch kelasanki, shunday bir muammolar qarshingdan chiqadiki, shunchalar nochor bo'lib qolasanki, na ortga qadam tashlay olasan, na olg'a yura olasan. Bunday vaziyatlarda inson shunchalar chorasisiz bo'lib qoladiki, es-hushini yo'qotib, aqdan ozar darajadagi vaziyatga tushib qoladi. Men ham aynan shunday vaziyat ichiga tushib qoldim.

Sen Allohdan o'zim uchun so'rigan yagona, birdan bir tilagimsan. Seni yanada ko'proq, yanada kuchliroq sevishim mumkin edi. Qaydan ham bilayki, balki, uzundan uzun bir qumloq sohilda sen bilan abadiy yalangoyoq yurishim ham mumkin edi. Seni uxlayotgan paytingda kuzatar ekanman, sen bilan yana sonsanoqsiz tongni qarshilashim ham mumkin edi. Bu vaqlar oralig'ida, balki, birgalikda yangi kitoblarni o'qishimiz mumkin

edi. Afsuski, bunday qila olmayman, buning iloji yo 'q... Bundan keyin sening butunlay boshqacha hayoting bo 'ladi, butunlay boshqacha bir yangi boshlanishing bo 'ladi.

Shu lahzalarda xayolan ortga qarayman, axir, inson ko 'nikmagan bir nima bormidiki? Yo 'q... O'z o 'rnini oq sahifalarga bo 'shatib bermagan fojia-yu falokatlar bormidi? Yo 'q... Men ham shu yoshimga qadar boshimdan o 'tgan azoblar-u falokatlarni sen tufayli ortda qoldirib, hayotimdan yap-yangi bir sahifa ochishga muvaffaq bo 'ldim. Ishon menga: sening ahvoling menikidan og 'ir emas, sen hali ham hayotingni yangidan boshlapping mumkin va, shunday bo 'lishi shart, chunki hayot, baribir, qandaydir bir tarzda davom etaveradi. Boshqa tonglarda tashvishlarsiz, qo 'rquvlarsiz, noma 'lum, noxush mav-humliklarsiz uyg 'onishing kerak. Sen o 'shanday tonglarni qarshi olishga juda yaqinsan. Afsuski, bularning barchasini mensiz boshingdan o 'tkazasan, bunday tonglarni mensiz qarshilaysan. Sen bilan tanishganimizning, uchrashganimizning bir sababi bo 'lishi kerak edi, chunki men o 'zimga yuklangan vazifani bajarishim va seni tark etishim kerak edi. Umrimda birinchi marta nimadandir qo 'rquyapman, birinchi marta shunchalik tushkunlikka tushyapman, birinchi marta o 'zimni shu qadar jur 'atsiz-u jasoratsiz his qilyapman. O 'zimda bir erkakdek qarshingga kelib gapirishga kuch topa olmayapman. Kim biladi, shunday bo 'lishi, balki, ikkalamiz uchun ham eng yaxshisi bo 'lar...

Sen men bolalik davrimda hech qachon borolmagan o 'sha o 'yin maydonchasi kabi har doim qalbimning to 'rida qolasan. Sevmagan bo 'lishim mumkin emas, lekin yoningda qola olishimning ham iloji yo 'q.

Shuni ham aslo unutmaki...

* * *

Oxirigacha yozilmagan bu xatni o'qir ekanman, aqldan ozar darajaga yetdim. "Shuni ham aslo unutmaki..." — deganidan nimanı nazarda tutgan ekan — bunisini bila olmadim. Bu xatini nega menga jo'natmagan ekan — bunisini ham bila olmadim...

Meni dahshatli bir hikoyaning nochor qahramoni qiyofasiga kiritgan Yusufning maqsadi nima bo'lganligini, nima qilishni istaganligini aniqlash miyamdag'i chidab bo'lmas bir og'riqqa aylangandi.

So'nggi bir yil davomida boshidan o'tkazgan har kunini azoblar bilan bezagan ekan, menga shunday bir kun ham qoldirmagan ekanki, g'am-g'ussasini ko'z yoshlарim bilan sug'ormagan bo'lsam. Ustiga-ustak, meni chin dildan, samimiyl sevishini xatdag'i jumllari bilan anglatgandi. Tuyg'ularimni, dunyoqarashimni, istaklarimni anglatgandi... Bularni bilganimdan so'ng hayotimdag'i har narsa alg'ov-dalg'ov bo'lib, chalkashib ketdi. Ko'zlarim yig'laganim tufayli qizarib, ko'z yoshlарim buloq bo'lgandi.

— Iltimos, menga yordam bering, — dedim shifokor Bulentga. — Endi nima qilishimni bila olmayapman. Uni izlashni ham bas qila olmayapman, uni topishga harakat qilganim sayin jonim battar azoblanyapti... Otamdan ayrilganimda ham xuddi shunday og'riqni his qilgandim, lekin bu safargi og'riq haddan tashqari kuchli. Bu og'riqlarimga endi bardosh bera olmayman. Axir, har qanday azob bilan kurashadigan darajada kuchli emasman. Iltimos... Iltimos, menga yordam bering... — deb yolvordim.

Shifokor Bulent shu daqiqagacha mahorat bilan ko'rsatgan sovuqqon va og'ir-bosiq tabiatini endi asray olmadi. Qarshimda

turgan odamning nam ko'zlariga qarar ekanman, uning ham naqadar ayanchli va nochor ko'rinyotganini angladim.

U mehribonlik bilan yonimga yaqinlashib, dardimni baham ko'rmoqchidek, barmog'i uchi bilan bir necha marta yelkamga tegindi va hammasini, boricha bekam-u ko'st anglatmoqchi ekanligini aytdi. Uning boyagi juda ham kibrli ovozi endi mehrli shivir-shivirga aylangan edi.

— Yusuf dastlab bu haqida hech kimga, ayniqsa, sizga bir og'iz ham gapirmasligim haqida mendan ahd oldi. Siz o'qigan barcha xatlarni, elektron manzilda yuborilgan yozishmalarni u yozgan edi. Sizning hayotda qolishingizning yagona yo'li yurak transplantatsiyasi ekanligini bilganidan keyin ancha payt sizga mos keladigan bir yurakni izlashga kirishdi. Hattoki, o'zining yuragini ham sizga berish haqida juda ko'p o'yładi va bunga tayyor ham edi, lekin o'zi tirik ekan, yuragini kimgadir berish qonunan taqiqlangan edi, bunday qilishning imkonini yo'q edi. Yuragi senga mos kelish-kelmasligini o'rganish uchun qo'lidan kelgan hamma ishni qildi. Qilayotgan hamma ishini faqat men bilan o'rtoqlashardi va faqat mendangina yordam olardi. Sizga yordam berish uchun aqli qabul qiladigan barcha yo'llarni sinab ko'rdi. Lekin, oxir-oqibat, natijasi foydasiz bo'lib chiqqan harakatlar tufayli o'tayotgan har bir kun sizning zararingizga ishlayotgandi. Ustiga-ustak, juda nufuzli, boy-badavlat odamlar yurak transplantatsiyasi o'z navbatlarini oldinga surardilar, ro'yxatning tartibini o'zgartirardilar. Soddarоq qilib aytganda, na sizga mos keladigan yurak topildi, na navbatingiz kealdi... Yusuf obro'-nufuzli turli tashkilotlar, mansabdar shaxslar, hattoki inson ta'na a'zolari savdosi bilan shug'ullanadigan turli jinoiy guruhlar bilan tanishib, ulardan ham yordam so'radi. U bu yo'lda hattoki dengizga tushib ilonni quchoqlashga, ya'ni o'z dushmanining

oyog'ini o'pishgacha bordi, salgina umid bergen barcha ishni qildi. Kecha-yu kunduz shuning izidan yurdi, qo'lida nima bor bo'lsa, hammasini shu yo'lda sarfladi. Keyin esa Kiprdan yashab qolishining aslo imkonи bo'lman, reanimatsiya (jonlantirish) bo'limida yotgan bir bemorning yuragi sizga mos ekanligini bilib oldi. Darhol o'sha bemorning yagona qarindoshi bo'lgan opasining huzuriga yetib bordi va suhbatlashishdi. Ayolning ismi — Sertap. Uzun bo'yli, sarg'ish ayol. Biroq, uning akasi allaqachon ixtiyoriy organ donori edi. Ukasining hayoti parvosiga kelmasdi, go'yoki donor ukasi emas-u, o'zidek tutardi. Pul olishdan boshqa bir maqsadi yo'qligi aniq edi. Aslini olganda, ukasi allaqachon donorlikka ixtiyoriy ravishda rozi bo'lgandi. Yusuf, baribir, hamma narsani kafolat ostida qilishni istardi. Sertap Istanbulda yashardi, hatto ko'rishib, gaplashib olish uchun ikki marta kasalxonaga ham kelgandi. Yusuf ayolni ishontirish uchun uni bag'riga bosdi, hattoki yosh boladek ho'ngir-ho'ngir yig'ladi. Umrimda birinchi marta Yusufni tanimasligimga iqror bo'ldim va sizing hayotingiz u uchun qanchalik muhim ekanligini angladim. O'sha ayol so'ragan pul Yusufda yo'q edi va natijada o'sha pulni topish uchun o'z buyragini ham sotishga urindi. Uning siz uchun qilgan ishlarini tasavvur qila olasizmi? O'ylaymanki, men hech qachon bunchalik harakat, bunchalik fidoyilik, bunchalik qurbanlik qilmagan bo'lardim. Uni vafosizlikda va sevgisizlikda ayplashga haqqингиз yo'q! *Agar biror ishni mehr-muhabbat bilan va ixtiyoriy ravishda, mansaatsiz qilsangiz, uning nomi yaxshilikdir va Allah taolo hech bir savob ishning chala, tugallanmay qolishiga yo'l qo'ymaydi. U, albatta, bir chiqish yo'lini ko'rsatadi.* Uni Germaniyadagi yetimlar uyidan olib ketgan o'sha Perihan xonim o'limidan oldin uyini va bankdagi pullarini hammasini Yusufga qoldirgan ekan. Yusuf bu xabarni

eshitib, darhol Germaniyaga boradi va merosning hammasini naqd pulga aylantirib, qaytib keladi. Keyin esa ko'rinishidan o'zini yaxshilik farishtasiga o'xshatgan, aslida esa, chirkin ayol Sertap bilan shartnoma tuzadi. Operatsiya qilinadigan kuningiz Yusuf hozir siz o'tirgan stulda o'tirib, elektron pochtadan kelgan xabarlarni hali-hanuz diqqat bilan o'qirdi. Keyin unga qo'ng'iroq bo'ldi va yuragi sizga ko'chiriladigan bemor vaqtini boy bermay samolyotda shu yoqqa jo'natilganini bildik. Yusuf juda hayajonda edi. Darrov aeroportga shoshildi. Operatsiya paytida bir soniya ham kasalxonadan chiqmadi. Xudoga shukrki, baxtingizga, operatsiya juda ham ijobjiy o'tdi. Allohning inoyati bilan Yusuf sizning hayotda qolishingizga sababchi bo'ldi.

Bularning barchasini eshitar ekanman, qo'limni ko'ksimga tiqib, yuragimni o'z joyidan qo'porib olishni istardim. Baqirabaqira yig'lashni istardim. Shifokor Bulent aytayotgan ayol Melike o'sha kuni menga ko'rsatgan suratdagi sarg'ish ayol edi... O'sha kuni xayolimga kelgan yomon o'ylar tufayli endi o'zimdan jirkandim. Hech ikkilanmasdan, uyalmasdan, hech kimga e'tibor bermay baqirib yig'lashni, chinqirishni, dod-voy solishni istardim.

Yer yuzida men his qilayotgan ushbu azobning og'rig'ini yengillashtiradigan biror-bir yupanch, tasalli yo'qligiga amin edim. Baland bir qoyaga chiqib, o'zimni tubsiz bo'shliqqa million marta tashlab, million marta o'lishni xohlardim. Yusufning sadoqatidan, muhabbatidan, men uchun qilgan fidoyiligidan bexabar bo'lgan holda unga nisbatanadolatsizlik qilgan ekanman, unga nisbatan nohaqlarcha gina-adovat qilgan ekanman. Endi esa o'zimdan nafratlanardim...

Barmoqlarim titrar edi, qilgan ishlarimdan ko'nglim aynib ketayotgandi, butun vujudim ostida chiqsa olmaydigan bir vayro-

na tagida qolgan edi... Gapira olmasdim, gapiradigan tilim ham gung bo'lib qolgan edi... Qo'limdan keladigan birdan bir, yagona ish aql-u o'yimdan o'tayotgan gaplarni shifokor Bulentning anglashini Allohdan tilash va lom-mim demay yig'lash edi.

"Men uchun shunchalar ko'p fidoyilig-u qurbonliklar qilgan ekan, u holda nega meni tark etib ketdi?" — deya so'ramoqchi edim, lekin og'zimni ham ocha olmasdim.

Xayriyatki, shifokor Bulet xuddiki mening ichki ovozimni eshitgandek:

— Xo'sh, shularning barchasini siz uchun qilgan ekan, u holda nega sizni tark etib ketib ketganligi haqida o'layapsiz, to'g'rimi? — dedi.

Vujudimda qolgan oxirgi kuchim bilan boshimni qimirlatib, uning gapini tasdiqlab qo'ydim.

— Afsuski, Yusufning baxtsizligi uning bolaligi davridek ortda qolmadi, — davom etdi shifokor Bulet. — Bolaligida onasidan ko'rgan jabr-zulmlari, keyinchalik esa bolalar uyida ko'rgan azoblari Yusufning ruhiyatiga jiddiy putur yetkazgan va miyasida esa davolab bo'lmas darajadagi kasallikni paydo qilgan ekan. Tabiatidagi noxush o'zgarishlar va shaxsiyatining buzilishi, uyqusizlik hoatlari bu kasallikning rivojlanishiga olib kelgan... Miya hujayralari ham o'z faoliyatini tezlik bilan yo'qotar edi... U bilan tanishgan ilk paytlarimda sog'liqqa juda yomon ta'sir qiladigan kuchli dorilarni iste'mol qilar edi. U o'zining sog'ayishni kutar ekan, shifokorlar unga o'tgan yili ALS¹ tashxisini qo'ydilar. Sizga tushunadigan tilda aytadigan bo'lsam, bu kasallik — asab tolalarini va mushaklarni boshqaradigan markaziy asab tizim o'z funksiyalarini yo'qotib borayotganligini angla-

¹ Amyotrofik lateral skleroz (ALS) — asosan mushaklarning harakatini nazorat qilib turadigan asab hujayralarining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan nevrologik kasalliklar kamyob turi.

tadi. Siz uning ruhi qanchalik azob chekkanini tasavvur qila olmaysiz. Boshidan o'tkazgan mana shunday fojialar tufayli dori-darmonlarni qabul qilishni ham to'xtatdi. Chunki bu dori-darmonlar faqat vaqt ni uzaytirishdan boshqasiga yaramayotganini bilardi. Umrining qolgan qismini hech kimga muhtoj bo'lmasdan o'tkazishini, bu kasalligining chorasi ni ham hech kim kimga ziyon yetkazmay topishini doimo aytib yurardi. Bu gaplari bilan nimani nazarda tutganini angladitingiz, to'g'rimi?

Keyin esa siz bilan tanishdi. Hayotining haqiqatini unutdi, siz bilan birgalikda bo'lsa, hamma narsa yaxshi bo'lishiga, o'z joyiga tushishiga ishondi. Toki sizni kasalxonaga yotqizgularicha... Ha, u o'sha kuni go'zal tushdan uyg'ondi va dahshatl i haqiqatlarga ko'zi tushdi. Masalan, sizning tirik qolishingiz uchun kichik bo'lsa ham imkoniyat bor edi, afsuski, uni biror-bir mo'jiza ham qutqarib qola olmasdi... Shuning uchun sizga butunlay boshqa hayotni armug'on qilish uchun qo'lidan kelganini qildi, menimcha esa, qo'lidan kelganidan ko'prog'ini, imkoniboridan ortiqchasini ham qildi. Haqiqiy qiyinchilig-u mashaqqatlar shundan keyin boshlandi. Sizni o'zining tark etib ketganga ishontirmoqchi, birmuncha vaqt dan so'ng, ya'ni uning ketib qolgan ko'nikib qolganingizdan keyin, oldingi hayotingizga qaytishingizni istar edi. Chunki Yusuf sizga bir umrlik hamroh bo'lishi mumkin emas, buning iloji yo'q... Hozirgi paytlarda kundalik hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan biror-bir jiddiy muammoga duch kelmayapti, lekin bir necha yildan so'ng yuz beradigan holat yaxshilik bilan tugamaydi. Yusuf kelajakda o'zining nazoratidan tashqaridagi hayotda, ya'ni o'zini nazorat qila olmaydigan hayotda yashashni istamaydi.

Taqdir o'zi bilan sizni shunday vaziyatda uchrash tirganidan o'zicha bir ma'no-mantiq topdi va o'zini unutib, bor kuchini

sizga sarfladi. U sizning hayotingizni yangidan boshlashingizga turki bo'ldi. Garchi juda qisqa vaqt davom etgan bo'lsa-da, siz tufayli o'zini birinchi marta baxtli his qildi. Demoqchimanki, bu azoblarni yolg'iz o'zingiz tortmadingiz, u sizdan ancha og'irroq mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Siz hamma narsani qaytadan boshlaydigan kelajakda o'z dardi-azoblari bilan sizga ortiqcha yuk bo'lish yoki sizning qarshingizga qo'lidan-oyoqdan qolgan inson sifatida chiqish niyati yo'q edi. Bularni na sizga ayta oldi va na hech narsa bo'limgandek hayotingizda qolishni istadi. Aynan mana shu sabablar tufayli sizdan uzoqlashishni ma'qul ko'rди... Lekin u sizning bunchalik qaysar ekanligingizni va aslo voz kechmaydigan darajada juda kuchli sevganizingizni hisobga olmagan ekan.

— Iltimos, bunday qilmang. Iltimos, bu gapni aytmang. Alloh haqqi... Uning o'lganligini aytmang...

— Yo'q, u o'lindi... Lekin shunga ishonchim komilki, bularni sizga aytganim uchun meni o'ldiradi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, baribir, sizni uning oldiga olib boraman. Bu ikklangizning taqdiringiz, qanday tugashi kerak bo'lsa, shunday nihoya topa qolsin. Sizdan faqat Yusufning kasalligi haqida hozir mendan eshitganlaringizni, bilganlaringizni uning o'ziga aytmasligingizni iltimos qilaman. Balki, bir kun kelib, lozim topsa, o'zi sizga aytib berar. Ammo bularni mendan eshitganiningizni hozir bilib qolsa, bu holatdan xursand bo'lmasligi aniq. Axir, bu haqida sizning bilishingizni aslo istamaydi... Aytganlarimga rozimisiz, kelishdikmi?

— Mayli, kelishdik.. Kasalligi haqida bilishimni unga aslo bildirmayman. So'z beraman...

Kasalxonadan qanday chiqib ketganimizni haligacha eslay olmayman. Yaxshiyamki, yo'lida davom etar ekanmiz, kayfi-

yatim biroz ko'tarilgan edi. Mashinada ketar ekanmiz, boshimni suyangan oynaning salqinligi va yuragimdag'i yarador qushning tebranishidan boshqa hech narsani his qilmadim. Yo'l-yo'lakay Yusuf bilan tonggacha suhbatlashib chiqqan o'sha tunni o'yladim. Bluzkamning kamarini yechayotgan paytim: "Iltimos..." — deya bunday qilmasligimga undagan lahzani, iliq quchog'ida soatlab davom etgan onlarni, uqlab qolmoqchi bo'lganimda yel-kamdan olgan bir bo'sasini xayolimdan jonlantirdim... O'shanda nega bunday qilganligini tushunmagandim, endi esa hammasi ochiq-ravshan bo'ldi, bunday qilganligining sababi aniq bo'ldi. Har qanday holatda ham, oxir-oqibat, baribir, men tark etib ketishini bilgan ekan va shuning uchun menga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakatdan qochgan ekan. Men esa o'zimcha uning bu harakatlaridan: "Demakki, men sevganim-chalik meni sevmas ekan", — deya o'yabman. "Agar uning o'mida bo'lganimda bunchalik fidoyilik qila olarmidim?" — deya o'yab, o'zimga o'zim xayolan savol berardim. Nima bo'lganidan qat'i nazar, aslini olganda, o'zini o'ylagan, xudbinlik qilgan faqat men ekanman, u hech qachon o'zini o'ylamagan ekan...

Oradan taxminan bir soat o'tgach, biz katta yo'ldan chiqib, Istanbul chegaralaridan tashqaridagi bir joyga, ya'ni ilgarilar men aslo kelmagan bir mahallaga keldik. Oldida bog'i bor bir binoga kirib, zinapoyadan yuqori ko'tarila boshladik. Uchinchi qavatdag'i kvartira eshigi oldida turar ekanmiz, go'yoki his-hayajondan o'lib qoladigan darajaga yetgandim. Bulent qo'ng'iroqni bosdi, ko'p o'tmay eshik ochildi. Eshik oxirgicha ochilar ekan, Yusufni qarshimda ko'rdim. Hech nimani o'ylamay, uyalmay, uning bo'ynidan osilib oldim, quchoqlab oldim. Tinimsiz o'par-dim, hidlardim...

U shu qadar hayratda qolgan ediki, hattoki hech nima deya olmadi, hech qanday munosabat bildira olmadi. Axir, kutilmagan paytda uning qarshisiga chiqqandim-da. Shifokor Bulent indamay, lom-mim demay bizni yolg'iz qoldirdi.

Yusuf es-hushini yo'qotgan odamday ko'rinaridi. O'ziga kelib olishi, es-hushini yig'ib olishi uzoq vaqt oldi. Hattoki meni tanimay qolgan bo'lishi mumkinligidan xavotirlandim. Umuman gapirmasdi, hattoki lom-mim demadi.

Shifokor Bulentga so'z berganimdek, Yusufga kasalligi to'g'risida jamiki bilganlarim, eshitganlarim birortasi haqida ham og'iz ochmadim, men uchun qilgan ishlaridan xabardor ekanligimni aytdim, xolos. Bu qilgan yaxshiliklar uchun bir jon qarz bo'lginimni, kelajakda nima bo'lishidan qat'i nazar, doimo yonida bo'lishimni chin dildan, samimiay aytdim.

Hattoki agar u o'ladigan bo'lsa, men yonida turishim lozim — agar men o'ladigan bo'lsam, u yonimda bo'lishi kerak. Birimiz-birimizdan xat-xabarsiz holda uzoqda bo'lmasligimiz kerak... Yusuf dastlab gaplarimga e'tibor bermaslikka urindi, lekin birozdan keyin meni mahkam quchoqlab yuragidagi bor dardini to'kdi va gapining oxirida esa go'yoki u emas men qochgandek: "Mendan qutula olishingni o'ylaganmiding?" — deya jilmaydi.

Birgalikda Yusufning eski uyiga qaytdik. Uning uyi halihanuz boshqalar tomonidan ijaraga olinmagan edi, hammasi o'zi qanday qoldirgan bo'lsa, shundayligicha turardi. Ertasi kuni onamning oldiga borib, narsalarimni yig'ib, yana Yusufning uyiga qaytib keldim...

Sendan nafratlana olmayman...

*Balki, xafa bo 'lgandirman, jahl qilgandirman,
lekin nafratlana olmayman...*

*Sen mening sevgim o 'sib-ulg 'ayadigan
makonimsan. Sen yuragimning eng chirkin
joylaridagi o 'sha kichkina umidsan. Men esa qay
holda kelsang ham, oradan yillar o 'tgandan
keyin kelsang ham, eshigi har doim senga ochiq
bo 'ladigan uyingman. Hattoki sening o 'y-
xayollarining ham juda ajoyib. Negaligini
so 'rashing mumkin, lekin men anglata
olmayman...*

— X —

Yusufning go'yoki suv emas, qon bo'lib terlashlari, ruhiyati-yu tabiatи buzilganligi uchun tinmay o'zini ayblashlari, gohida sassiz-sadosiz o'rnidan turib, o'zi bilan o'zi gaplashishlari olti oy davom etdi. Ba'zi kunlar: "Senga ham tinchlik, halovat bermadim", — deb o'ylardi va shunday qilayotganidan uyalib uzr so'rardi, tinmay o'zini ayblardi, ba'zida hattoki o'lishni istayotganini ham aytardi.

Uning meni tashvishga soladigan jismoniy kasalligi hali-hanuz bo'y ko'rsatmagan edi, yuzaga chiqmagandi. Aslini olganda, bu kunlar bizning yaxshi davrlarimiz ekanligini, bir muncha vaqt o'tgach, o'zi ham istamaydigan odamga aylanib qolishidan qanchalik qo'rqishini va u kunlarni ko'rishni xohlamasligini tushunardim, lekin buni o'ziga bildirmasdim.

— Nega meni o'z holim bilan yolg'iz qoldirmading-a? — deb ora-sira mendan ham o'pkalardi. "Aslida, sening qanday xastalik bilan kurashayotganidan xabardorman, bu xastaliging sendan sovishimga sabab bo'la olmaydi, oxirigacha sening

yoningdaman, sen bilan birga qolaman”, — deyishni istardim-u, lekin aya olmasdim, tilimni ichimga yutib yuborardim. Rostini aytadigan bo‘lsam, o‘ziga achinayotganimni sezib qolsa, mendan qochib ketishidan qo‘rqardim... Birgalikda mana shu hayotimiz meni qiynamayotganligini, nima bo‘lishidan qat’i nazar, yonida bo‘lishim menga baxtiyorlik baxsh etishini qanchalar tushuntirsam ham, o‘z fikrlarimni to‘liq ifoda eta olmasdim. Shunchaki Yusufning o‘zi hammasini o‘z ixtiyori bilan aytib, meni ham, o‘zini ham tinchlantirishini kutayotgandim.

Ertalab mакtabga ketar ekanman, aql-u hushim uyda qolar-di: darslarim tugashi bilan to‘g‘ri uyga chopar edim. Har dam olish kunlari avvalgidek sayrga chiqardik, kitob o‘qirdik, kinoga borardik. Ba’zida faqat ikkalamiz tabiat bag‘rida yolg‘iz qolar-dik. Yusuf sevimli qo‘shiqlarimizni kuylar ekan, men ham fleyta chalib unga jo‘r bo‘lardim. U esa mana shunday holatlardan juda ham zavqlanardi, biroz vaqt bo‘lsa ham, tashvishlarimizdan qutulib, baxtiyor bo‘lardik... Keyin esa u yana qandaydir arzimas bahonalar tufayli o‘z zulmatiga qaytish yo‘lini topar va bu holati bilan meni qanchalar azoblayotganining farqiga ham bormasdi.

Men bir kuni kechqurun oshxonada salat tayyorlar ekanman, Yusuf mehmonxonadagi stolni tayyorlar edi. Idish-tovoqlarni olish uchun yonimga kelar ekan, undan:

— Angut qushi haqida eshitganmisan, azizim? — deya so‘radim.

— Bu qush haqida eshitganman, lekin ta’rifini to‘liq bil-mayman. Xo‘s, angut qushiga nima bo‘libdi?

— Qushlarning bu turi umrlarida davomida faqat bir marta-gina juft topar ekan. Juftidan ayrilgan qush o‘limiga qadar aza tutar emish, o‘ziga yangi juft topmas emish. Juda ham ajoyib, shunday emasmi?

— Buning nimasi ajoyib, Elif? — dedi Yusuf. — To'g'ri, qulqoqqa juda romantik eshitiladi, lekin... Qanday anglatsam ekan? Menimcha, o'lgan odam o'zi uchun kimningdir abadiy aza tutishni istamasdi. Qolgan odam uchun hayot davom etar ekan, nega aza tutish bilan umrini qolgan qismini behuda o'tkazishi kerak? Bu aslo adolatli emas... Tirik qolgan ham baxtiyor bo'lishga majbur... Menimcha, tinimsiz, uzluksiz motam marhumga tinchlik emas, azob olib keladi. Chunki hech kim birovni baxtsiz qilish uchun sevmaydi...

Yusuf nima demoqchi ekanligini, aslida, tushungandim, lekin u meni umuman tushunmasdi. Men usiz yashay olmasligimga ishora qilsam, u esa vaqtি kelsa, hammasini unutishim mumkinligini aytardi. Boshqa hech narsa demadim. Shundan so'ng bu mavzu o'z-o'zidan yopildi.

* * *

Ajoyib bir chorshanba kuni maktabga borish uchun erta sahardan turdim va nonushta tayyorladim. Yusufni ham uyg'otishga urindim, u esa yelka qisib, ko'rpaning ichiga battar kirib oldi, hattoki boshini ham ko'rpaning ichiga tiqib oldi. O'sha kun men uchun juda ajoyib bir tarzda boshlandi. Yusuf bilan birgalikda nonushta qilishni istardim, lekin uni majburlab uyg'otishga ko'zim qiymadi. Uning uchun ham nonushta tayyorlab qo'ydim va uydan chiqdim.

Maktabda kun davomida ichimga sig'may yurdim. Imkon qadar tezroq uyga qaytish uchun sabrsizlanardim...

Tushdan so'ng oxirgi darsimga endigina kirmoqchi edimki, telefonim jiringladi. Biz Yusuf bilan ijarada turgan uyning egasi qo'ng'iroq qilayotgan ekan. Ham xavotir, ham hayrat bilan qo'n-

g'irog'iga javob berdim. Agar iloji bo'lsa, uyg'a qaytishimni iltimos qildi. Xavotirdan jonim bo'g'zimga kelgan ham edi, xayriyatki, biror-bir muammo yo'qligini, tabiiy gaz xodimlari kelgalligini, uyg'a kirib tekshirishlari shart ekanligini kerakligini aytdi. Uydan hech kimni topa olmagach, menga qo'ng'iroq qilgan ekan, xavotirlarim chekinib, yengil tortdim.

Oxirgi darsimdan ruxsat olib, uyg'a qaytar ekanman, ko'chada olomonni va kvartiradan usti butunlay yopilgan bir odamni shifoxona zambilida olib chiqib ketishayotganini ko'rib, vahima-ga tushdim. Uning kimligi bilish uchun oldinga qarab yugurib ketar ekanman, kimdir qo'limdan ushlab oldi va olg'a yurishim-ga izn bermadi. O'girilib yuziga qarar ekanman, yo'limni to'sgan odam shifokor Bulent ekanligini ko'rdim. U yig'lardi. "Allohim, qo'rqqanim yuz bergen bo'lmasin", — duo qilardim... Shifoxona zambilidagi yotgan boyagi odamni "Tez yordam" mashinasiga qo'yishar ekan, men ham tez harakatlar bilan mashina yoniga keldim va qimir etmay yotgan jasadning yuzini kutilmagan shiddatli bir harakat bilan ochdim.

Bu Yusuf edi!

Yusuf o'lgan edi va endi aslo, bir marta ham ko'zini ochmas edi... Bayonnomada o'lim sababi sifatida gazdan zaharlanish ko'rsatilgan edi. Mutaxassislarning xulosasiga ko'ra, gazplitaga choy qaynatish uchun suv to'la idish qo'yilgan, gaz murvati ochilgan, lekin yoqilmagan. Qiziq, chindan ham, choy qaynatmoqchi bo'lib gazni ochar ekan, uni yoqishni unutib qo'yganmi yoki ataylab gazni ochib, o'limini kutganmi?

Bu ulkan muammoning javobini hech qachon bila olmayman... Faqat bilganim shuki, o'sha kuni Yusufga tayyorlab qo'yigan nonushta dasturxonidan topgan maktubim uydan chiqqanimda o'sha yerda yo'q edi... Faqat shuni anglar edimki, u qoldirgan

bu qog'oz vidolashuv xatiga o'xshardi. Ba'zan o'zimcha: "Koshi, kasalligidan xabarim borligini o'ziga ayta olganimda edi", — deya o'yayman.

"Bular har kimning boshiga tushishi mumkin. Qara, men sen bilanman, sening yoningdaman. Shu on hech narsang yo'q va kelajakda nima bo'lishini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Iltimos, bir necha yillardan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan noxush hodisalar tufayli bugungi kuningni boy berma, tashvishlanma. Men seni juda yaxshi ko'raman..." — deya olsam edi.

Balki, o'shanda hammasi umuman boshqacha bo'lishi mumkin edi. Bilaman, bu vijdon azobini bir umr, abadiy yuragimda olib yuraman.

Yusufning janozasi sassiz-sadosiz o'tkazildi. O'ttiz besh yillik umri davomida yig'a olgan bir hovuch yaqinlaridan boshqa hech kim yo'q edi. Shu orada Yusufning otasi Rifatni tobut boshida ko'rdim. Ko'rinishi, tashqaridan qaraganda, bo'ronning shiddatli kuchiga bardosh berayotgandek chinordek kuchli ko'rinsa ham, ich-ichidan chirib, zaiflashayotgandek goh Yusufning yuziga egilardi, goh qaddini rostlardi. Yiqilib tushmaslik uchun o'zini zo'rg'a ushlab borardi. Rifat ko'z o'ngimda pushaymon bo'lish, afsus qilish uchun ham kech qolmas kerakligini anglatayotgan bir obraz kabi gavdalanardi. Toki nafas olar ekan, o'zini kechira olmasligining katta bir sababi bor edi...

Hamma Yusufning oldidagi so'nggi burchini bajarib, chetga o'tgandan keyin navbat menga keldi. Sekin unga yaqinlashib yuziga qaradim... Qimir etmay turgan bir holda sevgilimni kuzatib turardim... Qoni qochganligi tufayli oqarib ketgan yuziga tegindim, barmoqlarim uchi bilan soqollarini suyib-siladim. Uning bu soqollarini menga birinchi marta muzdek tuyildi... Yopilgan ko'z qovoqlarining ustida yanada chiroyli ko'ringan kiprik-

laridan o'pdim. Yusufni oxirgi marta ko'rib turayotganimni bili-shim ko'ksimda bir tubsiz jarlik yuzaga keltirdi. Uni oxirgi marta bag'rimga qattiq bosib, meni eshitishini istagan holda: "Qani, o'rningdan tur, go'zal ovozing bilan qo'shiq ayt", — deb pichir-ladim qulog'iga. Balki, meni eshitgandir, lekin lablaridan so'z-ning bir bo'g'ini ham chiqmadi... Uning jasadi bir hovuch odam-lar o'rtasidan olinib, sarhadi yo'q bir yolg'izlik tomon olib ketilar ekan, chor-nochor uzoqdan kuzatdim.

Olti kishi zo'rg'a qabrga qo'ygan Yusufni mening bir o'zim yuragimga ko'mgan edim. Yusufni tuproqqa qo'yishar ekan, eng ko'p azoblangan mening jonim bo'lidi. Umrimning eng go'zal damlarda boshimni suyagan ikki odamni birin-ketin yo'qotib qo'yish yukini go'yoki tug'ma bukrilik kabi yelkamda olib yurishga majburday his qillardim o'zimni. Avval otamning yuki-ni, keyin Yusufning yuki...

Dafn marosimiga onam ham keldi, nima bo'lganligidan qat'i nazar, uning bag'riga o'zimni tashladim va uni kechirdim. Oradan unchalik ham ko'p vaqt o'tmagan ediki, ya'ni bir necha oydan keyin onamni ham boqiy dunyoga kuzatdim. Bu dunyoda men hazm qilishim kerak bo'lgan boshqa biror-bir dard qolma-gandi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, umrim davomida uchra-gan va uchratishim mumkin bo'lgan bari azobning va bari qayg'u har bir zarrasiga qadar arziydigan darajada buyuk muhabbatni boshimdan o'tkazdim.

Bu hikoya boshlangan kundan beri oradan o'n yil o'tdi. Yaqinda Yusufning vafot etganiga ham yetti yil bo'ladi... Orqada qolgan noxush kunlarni ko'nikish menga oson bo'lmadi. Vaqt insonning singan bo'laklarini biri-biriga qayta payvandlaydi, ya-rasini davolaydi... O'lmaysiz, lekin tiriklarning qatoriga ham kirmaysiz.

Biroz oldingina terdan jiqla ho'l bo'lib uyg'ongan edim.

Umutning bag'ridan turib, uyg'onar ekanman, butun bir o'tmishimning bor-yo'g'ini ma'yus baxtiyorlik bilan esladim. Hammasi qalin bir qobiq ostiga yashiringan yaraga aylangan edi. Endi yig'lamayapman. Vaqtı-vaqtı bilan: "Mendan qutula olishingni o'yladingmi?" — deya uyqumni buzadigan odam Yusuf ekanligini bilaman... Uning yuzini ko'rmasam ham, meni tark etmaganini mana shunday yo'l bilan eslatadi. Uyg'onib ketgan holda o'tmishim bilan yuzma-yuz kelganimligim tufayli yig'lab o'tirganimni Umutning ko'rib qolishidan xavotirlanar ekanman, Yusufning menga qoldirgan oxirgi xatini yana bir bor yashirincha o'qib chiqdim:

* * *

Qachondir yoningda bo'lishimni istasang-u, lekin buning iloji bo'limasa, ko'zlarining mahkam yum va qo'llaringni yuragingning ustiga qo'y. Men sening ko'z qovoqlaring ortidagi qorong'ilikda, yuragingning har bir urishida bo'laman. Qachonki kemaga chiqadigan bo'lsang, sochlarining orasidan o'tgan shamol emas, mening barmoqlarim bo'ladi. O'qiyotgan kitobingning har bir satrida yoki tinglayotgan qo'shig'ingning musiqasida nafas olishni davom ettiraman. Yomg'irli kunda yelkangdan o'padigan yomg'ir tomchisi qiyofasida ham yoningda bo'lishim mumkin. Balki, hidlash uchun qo'lingni uzatgan gul bargidan uchib ketayotgan kapalak bo'larman. Meni qanchalik ko'p his qilishni xohlasang, men ham shunchalik ko'p yoningda bo'lishni davom ettiraman.

Ey ayol, men sening ruhingdan o'paman! Ko'zlarining meni ko'rmas, qo'llaring terimga tegina olmas... Sen dong qotib uxlab

yotar ekansan, men esa bosh uchingda turgan holda tongni qarshilayman. O'rni kelsa, chiday olmay, seni quchoqlab olaman. Seni shunchalar mahkam quchoqlab olsam ham, hattoki hidlarimni ham sezsa olmaysan. Sen mening ketib qolganligimni o'ylar ekansan, men esa boshqa dunyoda, boshqa bir hayotda, boshqa vaqtlar oralig'ida sening bag'ringda uxlashni davom ettira olaman. Bilasanmi, seni ko 'ksimdag'i yuragimning titrog'i bilan emas, angut qush kabi ruhim bilan sevdim...

Bularni shunchaki bir sevgilingning yoki turmush o'rtoq 'ingning tuyg'ulari sifatida qabul qilishingni xohlamayman. Bu xatni meni kim sifatida ko 'rsang, o'shaning tuyg'usi bilan, ya'ni yaxshi bir otaning mehribonlik va yaqin bir do'stning samimiylilik tuyg'usi bilan yozyapman. Meni yana bir marta kechir... Keyin esa baxtiyor bo'l! Ishon, men sening baxtiyor bo'lishingni butun qalbim bilan xohlayman. Shunchalar ko 'p g'am-qayg'u ko 'rdimki, qanchadan qancha baxtsizliklarga guvohi bo'ldimki, asti qo'yaver... Sen mening umrim davomida nafas olganimni his qildiradigan yagona joyim bo'lding. Sen mening bolaligimsan... Bolaligimdagi o'sha o'yin maydonchasi bo'lding. Sendan qanchalik minnatdor ekanligimni so'z bilan ta'riflab bera olmayman. Shuning uchun ham o'zimni yaxshi his qildirgan har bir soniya uchun senga million marta tashakkur bildiraman...

Yuragingning pardasini hech qachon berkitib qo'yma. Yorug'likning ichkariga kirishiga ruxsat ber. Tabassum qilmoq senga yarashadi, aslo qovog'ingni uyma... Baxtiyorlik — ulkan va behisob qiyinchiliklarga bardosh bergen insonlarning haqqidir. Maqtanib aytishga arziydigan kunlarni va orzularingdagidek ajoyib hayotni yasha. Ko'zlarining yum va ikkalamiz suhbatlashadigan lahzalar uchun ajoyib xotiralarni yig'ib qo'y.

Axir, qayg'uni, qayerda bo 'lsa ham, tanib olaman, menga baxtni ko 'rsat...

* * *

Yusufning men bilan xayrlashuvi mana shunday bo'lgan edi...

Agar o'sha kuni ertalab men bilan nonushta qilish uchun turganida yoki o'sha kuni o'lmanida edi, unga bir yarim oylik homilador ekanligimni aytgan bo'lardim. Kim biladi, qanchalik xursand bo'lardi... Undan keyin hayotimga boshqa hech kim kirmadi va aslo kirmaydi ham. Uning xotiralari va menga qoldirgan bir parchasi, ya'ni Umut o'g'limiz bilan yashayman va u bilan qovushadigan kunni sabr bilan kutaman...

* * *

Haqiqiy sevgi kimningdir kamchiliklariga e'tibor bermaslik, ko'z yumish degani emas, balki uning kamchiliklarining bag'riga otlish, nuqsonlaridan o'pish, borini boricha qabul qilgan holda sevish demakdir. Kamchiliklarini yashirish yoki ularga e'tibor bermaslik — oson ish, eng muhimi, o'sha kamchiliklar uniki emas, balki o'zingizniki kabi seva olishingizdir... Demoq-chimanki, ko'zning rangi, bo'yi yoki vazni unchalik muhim emas... Nima desam ekan, tanasidagi kamchilik yoki biror-bir a'zoning yetishmasligi muhim emas... Zotan, kimnidir chin dil-dan, samimiy sevsangiz, siz uchun dunyoda undan mukammal inson bo'lmaydi. Faqat u sizga eng go'zal tarzda qaraydi, faqat u eng ajoyib bir tarzda qo'lingizdan ushlaydi, faqat u eng shirin

bo 'sa oladi, faqat u eng shirin tabassum qiladi... Biror-bir inson ham bor narsasi, ega bo 'lganlari bilan go 'zal emas, balki jamiki bor narsasini, ega bo 'lganlarini his qilgan darajada go 'zaldir... Sevish — qarshingizdag'i insonni o 'zgacha his qila olishdir.

Agar mana shu his-tuyg 'ularni sizga aslo his qildirmagan odam tufayli azoblanayotgan bo 'lsangiz, undan xafa bo 'layotgan bo 'lsangiz, hali-hamon hammasini o 'z o 'rniga tushirishga harakat qilayotgan bo 'lsangiz, bu ishlarni bas qiling, o 'zingizni behuda qiynamang. Chunki kamchiliklarimiz butun umrimiz davomida biz bilan birga yashashda davom etadi. Boshqacha qilib aytganda, o 'tmishdagi xatolaringiz tufayli sizni sevmagan odam kelajakda ham, baribir, xuddi shu xatolaringiz tufayli sevmaydi.

Haqiqiy sevgi hatlab o 'ta olmaydigan to 'sinqning, hal qila olmaydigan muammoning yo 'qligiga ishonaman. Bir kun kelib, sizni chin dildan sevgan insonni bag 'ringizga bosar ekansiz, bir og 'iz so 'zsiz gaplasha olganingizni, tillaringiz emas, dillaringizni gapirganini ko 'rasiz. Buni bo 'yningizga urilgan uning iliq nafasini, belingizni silagan kaftlarining mehrini, ko 'ksingizga bosgan qalbini marhamatini his qilganingizda anglaysiz. Ha, sizga shu ishonchni bag 'ishlagan va his-tuyg 'ularni siz bilan bahan ko 'radigan odam bilan bir yo 'ldan yursangiz, hech narsa ning, biror-bir muammoning sevgini yengib o 'ta olmasligini ko 'rasiz. Ha, aynan o 'shanda o 'tmishda hayotizingizni barbod qilgan va qalbingizdan chiqib ketgan har qanday odamni mana shunday ajoyib sevgiga joy bo 'shatgani uchun kechirasiz.

Men shunga ishonamanki, Alloh taolo og 'ir kunlarning mu-kofotini munosib darajada beradi. Inson iymon-ishonchini va sevgisini aslo yo 'gotmasa, bas, shuning o 'zi kifoya qiladi.

Ko 'pchiligmizning hayotimiz ba 'zi bir ishlardan, muam-molardan qochish bilan o 'tib ketyapti, to 'g 'ri emasmi?

Kunduzlari o 'zimizni ba 'zi bir ishlar bilan ovutamiz, tunlari esa uyqudan panoh topamiz. G 'am-qayg 'ulardan qochish-u qu-tulish uchun va hattoki g 'am-qayg 'ularni eng mayda zarrasiga qadar unutish uchun qo 'limizdan kelganining barini, imkonimiz yetganining hammasini qilamiz... Yuragimizga ko 'mib qo 'ygan, ichimizga yutgan, hattoki o 'zimiz eslashdan qo 'rqadigan shunday xavotirlarmiz borki, asti qo 'yavering... Lekin shuncha harakat qilsak ham, shunchalar qochsak ham, uyqu bilan o 'zimizni shunchalar ovutsak ham, bulardan qutula olmayapmiz, to 'g 'ri emasmi?

Xotiralarimiz go 'yoki bir vijdon azobi kabi yelkamizdan tushmayapti.

Bilasizmi, har doim bir narsada xato qilganmiz. Na qochish bilan, na boshqa ishlar orqali o 'zimizni ovutish bilan, na uyqu bilan muammolardan qutula olmaymiz. Hayotimizdan, xotiramizdan o 'chirishni istaganlarimizni unuta olmaymiz.

Men ham shunday qilishga juda ko 'p harakat qildim, foydasi tegmadi. Yashayotgan shaharlarimni o 'zgartirdim, atrofim-dagi insonlarni almashtirdim, aytadigan hikoyalarimni ham almashtirdim, baribir, bularning hech birining foydasi tegmadi. Chunki inson yuragini chetga tashlab, ortiga ham qaramay keta olmaydi. Qayerga borsak ham, his-tuyg 'ularimizni o 'zimiz bilan o 'sha yerga olib boramiz.

Aslida ham, haqiqiy muammo mana shunda. O 'z his-tuyg 'ularimizdan qochish emas, balki ular bilan yuzlashish va ba 'zi birlariga ko 'nikish, ularni boricha qabul qilishgina qalb yarasini davolaydi. Masalan, ketgan odam ketdi — uni ortga qaytarishning iloji ham yo 'q, keragi ham yo 'q. Masalan, ba 'zi bir ishlar qayta takrorlanmaydi. Masalan, o 'zimizni boshqa birov kabi ko 'rish orqali biror-bir muammoni ham yengib o 'ta olmaymiz...

Inson ortda qolganligi uchun har doim ham tark etilavermaydi. Ba'zan orqaga qaramay ketsangiz ham, tushkunlikka tushasiz, g'am-qayg'uga botasiz. Chunki ba'zida yuragingiz aqlidan ozishni istab qolganligi, kurashish uchun kuchingiz qolmaganligi tu-fayli ketishdan boshqa yo'l topolmaysiz: yoki o'zingiz ortda qolishingiz kerak, yo ortda qoldirib ketishingiz kerak. Nima bo'-lishidan, vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar, sizda faqat o'zingiz davolashingiz shart bo'lgan yaralar qoladi. Demoqchimanki, do'stlarim, o'zimizdan boshqa hech kimga muhtoj emas ekanmiz va o'zimizdan boshqa hech kim bizga yordam bera olmas ekan.

Yuragingizni, vijdoningizni va his-tuyg'ularingizni ozod qiling. Hech kimni o'zingiz uchun yagona chiqish yo'li, muammo-laringizning yechimi sifatida ko'rmang. Chunki hayot juda go'-zal, shu bilan birga, bu hayot kimlardir bizni parchalab tashlashiga yo'l qo'yadigan va keyin o'zimizni qayta yig'ib oladigan darajada uzun emas. Bunday bo'lishiga aslo yo'l qo'y mang va shuni hech qachon unutmangki, sizniki bo'lgan har narsa faqat siz bilan namoyon bo'ladi.

Hayot naqadar go'zalroq ekanini ko'rmoqchi bo'lsak, boshimizni ko'tarishimiz kerak. Menga ishoningki, baxtli bo'li-shimiz uchun o'zimizni yaxshi his qildiradigan ishlarni qilishdan ko'ra osonroq yo'l yo'q.

O'zingiz uchun bir nimalar qiling va qadrli ekanligingizni his qiling...

Ha, aytganday, sizga tinimsiz jabr-sitam yetkazadigan, sizni o'zi istagan paytda erisha oladigan bir buyum sifatida ko'radigan, faqatgina o'zining his-tuyg'ulari haqida gapirib, sizdan nimani his etganingizni aslo so'ramaydigan, qalbingizni parchalashdan boshqa ishga yaramaydigan, "Mensiz hech narcha qila

olmaydi”, — deb o ‘ylaydigan odamlarsiz ham hammasini eplay olasiz. Uyqusiz o ‘tgan shuncha tunlaringiz ham o ‘tib ketadi, hech narsa yemay o ‘tkazgan kunlaringiz ham ortda qoladi... O’zingizni, haqiqatan ham, juda dahshatli bir davr oralig‘ida parchalanib yashayotganday his qilishingiz mumkin. To ‘g‘ri, haqiqatan ham, juda ezilayotgan bo ‘lishingiz mumkin, lekin, ishoningki, bularning hammasi, baribir, o ‘tib ketadi.

Bir kuni ertalab ko ‘rasizki, usiz ham barchasini eplash mumkin ekan, hattoki juda ajoyib tarzda eplar ekansiz...

Albatta, insonlar bir-birini sevsin, munosabatlар tugab ketmasin, qalblar sinmasin... Ba ‘zi munosabatlар najot topishga, qutqarilib qolinishga munosib, shuning uchun, iloji bo ‘lsa, bunday munosabatlarni saqlab qolish kerak. Lekin ba ‘zi bir munosabatlardan qutulish ham kerak... Sevgining jinsi yo ‘q. Demoq-chimanki, sevgi erkak yoki ayolni tanlamaydi. Uning kuchli yoki zaif tomoni ham yo ‘q...

Ikki kishilik yukni bitta inson abadiy ko ‘tarib yura olmaydi. Shuning uchun o ‘zingizni behuda urintirmang. O’zingizni ham, qarshingizdagи insonni ham behuda azoblamang... Agar bu munosabatlarning oxiri yo ‘q bo ‘lsa, zotan, buni qalbingiz bilan his qilasiz.

Parvo qilmang, har kim o ‘zi istagan hayotni yashasin. Hikoyaning so ‘ngida har kim, yaxshi yoki yomon bo ‘lishidan qat ‘i nazar, baribir, o ‘ziga munosibini topadi.

Boshqa bir hikoyada uchrashgunimizcha sevgi va mehr-muhabbat bilan qoling...

EZGIN KILICH MENGA BAXTNI KO'RSAT

Tarjimon:
XUSANBOYEVA Aziza

Bosh muharrir:
ATAXOJAYEV Jamoliddin

Nashrga tayyorlovchi:
TURSUNOV Sardor

Kompyuterda sahifalovchi:
TURSUNOVA Shoira

DIQQAT!!! "Ilm-Ziyo-Zakovat" nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning "Destek" nashriyotti bilan 2022-yil 17-iyunda tuzgan shartnomasi asosida chop etdi. Shuning uchun ushbu kitobni o'zbek tilida chop etish huquqi saqat "Ilm-Ziyo-Zakovat" nashriyotiga tegishli. Boshqa nashriyotlar yoki shaxslarning ushbu kitobni yoki uning bir qismini gazeta va jurnallarda chop etishi, elektron ko'rinishida targatishi, internetga joylashtirishi, shuningdek, asarda keltirilgan izoh va iqtiboslardan ijodiy foydalanishi qat'yan taqiqlanadi.

Agar yuqoridaagi huquqbuzarliklar sodir etilsa, huquqbuzar "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi" kodeksning 177-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi, jarima to'laydi va yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

Bosishga 11.09.2022 yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108^{1/32}.

Bosma tobog'i – 11. Garnitura – "Times New Roman".

Qog'oz – ofset bosma. Adadi 3000 nusxa.

Buyurtma raqami – 25-10. Bahosi kelishilgan narxda.

«Dizayn-Print» MChJ O'IChK bosmaxonasida chop etildi.
100054, Toshkent shahar, Cho'pon ota ko'chasi, 28^A-uy.

«Xasanov Farkod» YTTda muqovalandi.
100054, Toshkent shahar, Cho'pon ota ko'chasi, 28^A-uy.

Tez kunda o'zbek tilida



38000

Ezgin Kilich

Menga Baxtni Korsat



Qachondir yoningda bo'lismiň istasang-u, lekin buning iloji bo'lmasa, ko'zlarining mahkam yum va qo'llaringni yuragingning ustiga qo'y. Men sening ko'z qovoqlaring ortidagi qorong'ilikda, yuragingning har bir urishida bo'laman. Qachonki kemaga chiqadigan bo'sang, sochlaringning orasidan o'tgan shamol emas, mening barmoqlarim bo'ladi. o'qiyotgan kitobingning har bir satrida yoki tinglayotgan qo'shig'ingning musiqasida nafas olishni davom ettiraman. Yomg'irli kunda yelkangdan o'padigan yomg'ir tomchisi qiyofasida ham yoningda bo'lismum mumkin. Balki, hidlash uchun qo'lingni uzatgan gul bargidan uchib ketayotgan kapalak bo'larman. Meni qanchalik ko'p his qilishni xohlasang, men ham shunchalik ko'p yoningda bo'lismiň davom ettiraman.

Yuragingning pardasini hech qachon berkitib qo'yma. Yorug'likning ichkariga kirishiga ruxsat ber. Tabassum qilmoq senga yarashadi, aslo qovog'ingni uyma... Baxtiyorlik — ulkan va behisob qiyinchiliklarga bardosh bergan insonlarning haqqidir. Maqtanib aytishga arziydigan kunlarni va orzularingdagidek ajoyib hayotni yasha. Ko'zlarining yum va ikkalamiz suhbatlashadigan lahzalar uchun ajoyib xotiralarni yig'ib qo'y.

Axir, qayg'uni, qayerda bo'lsa ham, tanib olaman, menga baxtni ko'rsat...

ISBN 978-9943-8427-4-8

9 789943 842748